



QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

ONOMASTIKA

ОНОМАСТИКА
ONOMASTICS

2024
3

ONOMASTIKA

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XALQARO ELEKTRON ILMIY JURNAL

ОНОМАСТИКА

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ONOMASTICS

KARSHI STATE UNIVERSITETE
INTERNATIONAL ELECTRON SCIENTIFIC JOURNAL

2024/3

QARSHI – 2024



**“ONOMASTIKA”
XALQARO ELEKTRON
ILMIY JURNALI**

Bosh muharrir:

Xo‘jamurod JABBOROV
f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Vazira NAFASOVA f.f.f.d.
(PhD) (O‘zbekiston)

Mas‘ul kotib:

Ra‘no SAYDULLAYEVA
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Xalqaro elektron ilmiy jurnal
2024-yil 31-yanvarda
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan № 215315 raqamli
guvohnoma bilan ro‘yxatga
olingan.

**MUROJAAT UCHUN
MANZIL:**

Pochta manzili: 180003,
Qarshi,

Ko‘chabog‘ 17. Qarshi davlat
universiteti, Filologiya fakulteti
binosi, 219-xona.

Telefon: , +998912205238;

TelegramID:

<https://t.me/QarDUonomastika>

Elektron pochta: e-mail:

xojamurod@list.ru

Veb-sayt:

<https://qarshidu.uz/uz>

TAHRIR HAY‘ATI:

Mail Binnat ASKEROV f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Zaribbay DO‘SIMOV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Gulshat Raisovna GALIULLINA f.f.d., professor (Rossiya)
Marina Vasilevna GOLOMIDOVA f.f.d., professor (Rossiya)
Dilmurod HOMIDOV f.f.d., professor (Tojikiston)
Nishonboy HUSANOV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun KARIMOV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Hikmet KORAŞ f.f.d., professor (Turkiya)
Nelli Aleksandrovna KRASOVSKAYA f.f.d., professor (Rossiya)
Lala Guseyn qizi KULIYEVA f.f.d., professor (Azerbaydjan)
Nizomiddin MAHMUDOV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla MIRZAYEV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Sidiqjon MO‘MINOV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Firangiz Shaxmurovna PASHAYEVA f.f.d., professor (Turkiya)
Abdulxay SOBIROV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Vasiliy SUPRNOV f.f.d., professor (Rossiya)
Nosirjon ULUQOV f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Durdona XUDOYBERGANOVA f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Odil BEGIMOV f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Maysara DANIEVA f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar SAPARNIYOZOVA f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Mo‘min TURDIBEKOV f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Ochil BO‘RIYEV t.f.n., professor (O‘zbekiston)
Kamil MARKAYEV f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Bayramali KILICHEV f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Sharifjon YOQUBOV f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Ibrahim ŞAHIN f.f.f.d. (PhD), dotsent (Turkiya)
Abdivohab ZAKIROV f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Dilrabo ANDANIYOZOVA f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sabohat KENJAYEVA f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Yulduz NE‘MATOVA f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Feruz RAJABOV f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston) (Kotib)
Sherali TEMIROV f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Akmal SAIDOV y.f.d. akademik (O‘zbekiston)
Qalandar ABDURAHMONOV i.f.d. akademik (O‘zbekiston)
Dilmurod NABIYEV i.f.d. professor (O‘zbekiston)
Ilhom BEKPO‘LTOV f.m.f.d. (O‘zbekiston)
Elzara GAFIYATOVA f.f.d., professor (Rossiya)
Gulbahor TOJIYEVA f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Otabek SHUKUROV f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Nilufar YO‘LDOSHEVA f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor RIZAYEV f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Roxila RUZMANOVA f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Yashnar AVLOQULOV f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar TILLAYEVA f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Dildor SHODMONOVA f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilshoda IBRAGIMOVA f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Quvondiq OLLOYOROV f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nilufar MO‘MINOVA f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

MUNDARIJA

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

- Norbayeva Shukurjon.** “Oshiqnoma” turkum dostonlari onomastik tizimida o‘z qatlamga oid nomlar 8
- Saydullayeva Ra’no, Jo‘rayeva Yulduz.** Onomastik ot, ism, nom terminlarining qo‘llanishi va uslubiy-semantik xususiyatlari 15
- Zaylobova Nazokat Turqunboyevna.** O‘zbek xalq askiya san'ati va dramatik asarlarda onomastikaning o‘rni 22

ONOMASTIK LINGVOPOETIKA

- Abatov Doston.** Badiiy matnda laqablarning lingvopoetik xususiyati 28

ANTROPONIMIKA

- Galiullina Gulshat.** Tatar antroponimiyasida rang bildiruvchi nomlar 36
- Xusanov Nishonboy.** Asmo Ul-Husna va o‘zbek ismlari 42

TOPONIMIKA

- Hamidov Xayrulla.** Istanbul toponimlarining leksik-morfologik xususiyatlari 49
- Djurabayeva Zamira.** Qashqadaryo va Andijon viloyati gidronimlarining mavzuviy tasnifi 59
- Nematova Yulduz Odiljanovna, Yunusova Barchinoy Mahmudhanovna.** Ba’zi etnonimlar haqida (Namangan viloyati toponimlari misolida) 68
- Nurmuhammedov Bahodir.** Qo‘shrabot tumani tabiiy-geografik gidronimlarining struktur-semantik xususiyatlari 76



QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
“ОНОМАСТИКА”**

Главный редактор:
Ходжамурод ДЖАББАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:
Вазира НАФАСОВА д.ф.ф.н.
(PhD) (Узбекистан)

Ответственный секретарь:
Раъно САЙДУЛЛАЕВА
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Международный электронный
научный журнал
зарегистрирован 31 января
2024 года № 215315
Агентством информации и
массовых коммуникаций при
Администрации Президента
Республики Узбекистан.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:
Почтовый адрес: 180003, г.
Карши,
Кучабог, 17. Каршинский
государственный университет,
Филологический факультет,
каб. 219.

Телефон: , +998912205238;
TelegramID:
<https://t.me/QarDUonomastika>
Электронная почта: e-mail:
xojamurod@list.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Маил Биннат АСКЕРОВ
Зариббай ДУСИМОВ
Гульшат Раисовна ГАЛИУЛЛИНА
Марина Васильевна ГОЛОМИДОВА
Дилмурад ХОМИДОВ
Нишонбой ХУСАНОВ
Суюн КАРИМОВ
Хикмет КОРАЎ
Нелли Александровна КРАСОВСКАЯ
Лала Гусейн кизи КУЛИЕВА
Низомиддин МАХМУДОВ
Ибодулла МИРЗАЕВ
Сидикжан МУМИНОВ
Фирангиз Шахмуровна ПАШАЕВА
Абдулхай СОБИРОВ
Василий Иванович СУПРУН
Носиржон УЛУКОВ
Дурдона ХУДОЙБЕРГАНОВА
Маралбек ЕРМУХАМЕТ
Одил БЕГИМОВ
Майсара ДАНИЕВА
Икром ИСЛОМОВ
Муяссар САПАРНИЯЗОВА
Мумин ТУРДИБЕКОВ
Очил БУРИЕВ
Комил МАРКАЕВ
Байрамали КИЛИЧЕВ
Шарифжан ЯКУБОВ
Ибрагим ШАХИН
Абдивохаб ЗАКИРОВ
Дилрабо АНДАНИЯЗОВА
Сабохат КЕНЖАЕВА
Нилуфар МУМИНОВА
Юлдуз НЕМАТОВА
Феруз РАЖАБОВ
Шерали ТЕМИРОВ

д.ф.н., профессор (Азербайджан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Таджикистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Турция)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д. ф.н., профессор (Турция)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Казахстан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.и.н., профессор (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Турция)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан) (секретарь)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Акмал САИДОВ
Каландар АБДУРАХМАНОВ
Дилмурад НАБИЕВ
Бекпулатов ИЛХОМ
Эльзара ГАФИЯТОВА
Гулбахор ТОЖИЕВА
Отабек ШУКУРОВ
Нилуфар ЙЎЛДОШЕВА
Бахтиёр РИЗАЕВ
Рохила РУЗМАНОВА
Яшнар АВЛОКУЛОВ
Муяссар ТИЛЛАЕВА
Дилдор ШОДМОНОВА
Дилшода ИБРАГИМОВА
Кувандик ОЛЛОЁРОВ
Nilufar MO‘MINOVA

д.ю.н., академик (Узбекистан)
д.э.н., академик (Узбекистан)
д.э.н. профессор (Узбекистан)
д.ф.м.н. (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

СОДЕРЖАНИЕ

ИСТОРИЧЕСКАЯ И СОВРЕМЕННАЯ ОНОМАСТИКА

Норбаева Шукуржон. Названия тюркского происхождения в ономастической системе дастанов серии “Ошикнома” 8

Сайдуллаева Рано, Жураева Юлдуз. Использование ономастических терминов от, исм (имя), ном (наименование) и их семантико-методические особенности 15

Зайлобова Назокат. Роль ономастики в узбекском народном искусстве «аския» и драматических произведениях 22

ОНОМАСТИЧЕСКАЯ ЛИНГВОПОЭТИКА

Абатов Достон. Лингвопоэтическая особенность прозвищ в художественном тексте 28

АНТРОПОНИМИКА

Галиуллина Гульшат. Цветовые обозначения в татарской антропонимии 36

Хусанов Нишонбой. Асмо Ул-Хусна и узбекские имена 42

ТОПОНИМИКА

Хамидов Хайрулла. О лексико-морфологических особенностях Стамбульских топонимов 49

Джурабаева Замира. Тематическая классификация гидронимов Кашкадарьинской и Андижанской области 59

Нематова Юлдуз, Юнусова Барчиной. О некоторых этнонимах (на примере топонимов Наманганской области) 68

Нурмухаммедов Баходир. Структурно-семантическая характеристика природно-географических гидронимов Кушработского района 76



**INTERNATIONAL
ELECTRON SCIENTIFIC
JOURNAL
“ONOMASTICS”**

Chief editor:
Khujamurod DJABBAROV
Doc. of philol. scien., prof.
(Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:
Vazira NAFASOVA PhD
(Uzbekistan)

Executive secretary:
Rano SAYDULLAYEVA PhD
(Uzbekistan)

The international electronic scientific journal was registered on January 31, 2024 No. 215315 by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.

CONTACT ADDRESS:
Postal address: 180003, Karshi, Kuchabog, 17. Karshi State University,
Faculty of Philology, office. 219.
Phone: +998912205238;

TelegramID:
<https://t.me/QarDUonomastika>
Email: e-mail:
xojamurod@list.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

Mail Binnat ASKEROV
Zaribbay DUSIMOV
Gulshat GALIULLINA
Marina GOLOMIDOVA
Dilmurod KHAMIDOV
Nishonboy HUSANOV
Suyun KARIMOV
Hikmet KORAS
Nizomiddin MAKHMUDOV
Ibodulla MIRZAEV
Sidikjon MUMINOV
Abdulkhai SOBIROV
Vasiliy Ivanovich SUPRUN
Nosirjon ULUKOV
Durdona
KHUDOYBERGANOVA
Maralbek ERMUKHAMED
Odil BEGIMOV
Maysara DANIEVA
Ikrom ISLOMOV
Muyassar SAPARNIYAZOVA
Mumin TURDIBEKOV
Ochil BO*RIYEV
Komil MARKAEV
Bayramali KILICHEV
Sharifjon YOKUBOV
İbrahim ŞAHIN
Abdivohab ZAKIROV
Dilrabo ANDANIYAZOVA
Sabokhat KENJAYEVA
Nilufar MUMINOVA
Yulduz NEMATOVA
Feruz RADJABOV
Sherali TEMIROV

Akmal SAIDOV
Kalandar
ABDURAKHMANOV
Dilmurad NABIEV
Ilkhom BEKPULATOV
Elzara GAFIYATOVA
Gulbahor TOZHIEVA
Otabek SHUKUROV
Nilufar YULDASHEVA
Bakhtiyor RIZAEV
Rokhila RUZMANOVA
Yashnar AVLOKULOV
Muyassar TILLAeva
Dildor SHODMONOVA
Dilshoda IBRAGIMOVA
Kuvandik OLLOYOROV

EDITORIAL TEAM:

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Tajikistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Türkiye)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Doc. of philol. scien., prof. (Kazakhstan)
Doc. of philol. scien., (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Cand.of historical scien., prof.,(Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Türkiye)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)

SCIENCE COUNCIL:

Doc. of Law, Academician (Uzbekistan)
Doc. of Economics, academician (Uzbekistan)
Doc. of Economics prof. (Uzbekistan)
Doc. of f-m. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
Cand.of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Cand.of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)

CONTENT

HISTORICAL AND MODERN ONOMASTICS

- Norbaeva Shukurzhon.** Names relating to own layer in the onomastic system of episodes of the “Oshiknoma” series 8
- Saydullaeva Rano, Juraeva Yulduz.** The use of onomastic terms from, ism (name), nom (name) and their semantic and methodological features 15
- Zaylobova Nazokat.** The role of onomastics in the art and dramatic works of the uzbek people 22

ONOMASTIC LINGUOPOETICS

- Abatov Doston.** Linguopoetic characteristics of nicknames in artistic text 28

ANTHROPONOMICS

- Galiullina Gulshat.** The color designation of tatar antroponymy 36
- Khusanov Nishonboy.** Asmo Ul-Husna and uzbek names 42

TOPONYMICS

- Khamidov Khairulla.** About lexico-morphological features of Istanbul toponyms 49
- Jurabaeva Zamira.** Thematic classification hydronimes of Kashkadary and Andijan regions 59
- Nematova Yulduz, Yunusova Barchinoy.** About some ethnomylths (in the example of toponyms of Namangan region) 68
- Nurmukhammedov Bakhodir.** Structural-semantic characteristics of natural-geographic hydronyms of the Kushrabotsky district 76

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

“OSHIQNOMA” TURKUM DOSTONLARI ONOMASTIK TIZIMIDA
O‘Z QATLAMGA OID NOMLAR

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna

filologiya fanlari doktori, dotsent

Urganch davlat universiteti

norbayeva75@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm dostonlari, xususan, “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi o‘z qatlamga oid nomlar xususida fikr yuritiladi. Xususan, Xorazm shevalari leksikasi o‘zbek xalqining murakkab etnik tarkibi, uzoq tarixi, turli etnik guruhlar bilan madaniy, iqtisodiy-siyosiy aloqalarini o‘zida aks ettira olishi, tilimizga ana shu jarayonda qarindosh bo‘lmagan tillarning ma’lum darajada ta’siri bo‘lishiga qaramay, har bir sathda bo‘lgani kabi mazkur hudud leksikasini aks ettirgan dostonlar tilida ham turkiy qatlamga oid so‘zlar yetakchilik qilishi misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Xorazm xalq og‘zaki ijodida, xususan, “Oshiqnoma” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan onomastik birliklarda mamlakatimizga xos bo‘lgan urf-odatlar, rasm-rusumlarning aks etishi bu vohada yashovchi xalqlarning etnogenezisini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: onomastika, doston, o‘g‘uz lahjasi, qipchoq lahjasi, antroponimika, toponimiya, affiksoid, turkiy qatlam.

НАЗВАНИЯ ТЮРКСКОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ В
ОНОМАСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ДАСТАНОВ СЕРИИ “ОШИКНОМА”

Норбаева Шукуржон Хайитбаевна

доцент, доктор филологических наук

Ургенческий государственный университет

norbayeva75@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматриваются названия хорезмских эпосов, в частности, эпосов серии “Ошикнома”. Лексика хорезмийских диалектов может отражать сложный этнический состав узбекского народа, его многовековую историю, культурные, экономические и политические связи с различными этносами, а также влияние неродственных языков на наш язык в этом процессе. При этом на примерах показано, что в языке эпосов,

отражающих лексику этого региона, как и на каждом уровне, доминируют слова, относящиеся к тюркскому слою. Утверждается, что в ономастических единицах, используемых в фольклоре Хорезма, в частности, в эпосе серии «Ошикнома», большое значение в определении этногенеза народов, проживающих в стране, имеет отражение традиций и обычаев, характерных для нашей страны в этом оазисе.

Ключевые слова: ономастика, эпос, огузский диалект, кипчакский диалект, антропонимия, топонимия, аффиксоид, тюркский слой.

NAMES RELATING TO OWN LAYER IN THE ONOMASTIC SYSTEM OF EPISODES OF THE “OSHIKNOMA” SERIES

Norbaeva Shukurzhon Khaitbaevna

Associate Professor, Doctor of Philology

Urgench State University

norbayeva75@mail.ru

Annotation. This article discusses the names of Khorezm epics, in particular, the epics of the “Ashiqnoma” series. In particular, the lexicon of Khorezm dialects can reflect the complex ethnic composition of the Uzbek people, their long history, cultural, economic and political relations with various ethnic groups, and the impact of unrelated languages on our language in this process. Despite this, it is shown on the basis of examples that the words related to the Turkic layer dominate in the language of epics that reflect the lexicon of this region, as in every level. It is stated that in the onomastic units used in the folklore of Khorezm, in particular, in the epics of the "Ashiqnoma" series, the reflection of traditions and customs typical of our country is of great importance in determining the ethnogenesis of the peoples living in this oasis.

Key words: onomastics, epic, Oghuz dialect, Kipchak dialect, anthroponymy, toponymy, affixoid, Turkic layer.

Kirish. “Oshiqnoma” turkum dostonlari o‘zbek folklorida faqatgina Xorazm vohasi hududida tarqalganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birgalikda, bu turkumga kiruvchi asosiy asarlar namunasi turkman, ozarbayjon va turk folklorida yetakchi dostonlardan hisoblanadi. Ushbu doston personajlari ayni xalqlar orasida eng sevimli xalq qahramonlari sifatida qadrlanadi. “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi atoqli

otlarning lingvistik xususiyatlarini aniqlash esa onomastika bo'yicha muhim ilmiy natija olishga imkon beradi.

Asosiy qism. Xorazm vohasining aholisi tarixan o'zbek xalqi tarkibiga birlashgan ikkita etnik guruh: o'g'uz va qipchoqlardan iboratligi ma'lum. O'g'uz va qipchoq lahjalarning o'ziga xos til xususiyatlari onomastik leksika, xususan, antroponimika va toponimiyada ham bir qadar aks etgan.

Xorazm shevalari leksikasi ham o'zbek xalqining murakkab etnik tarkibi, uzoq tarixi, turli etnik guruhlar bilan madaniy, iqtisodiy-siyosiy aloqalarini o'zida aks ettira oladi. Tilimizga ana shu jarayonda qarindosh bo'lmagan tillarning ma'lum darajada ta'siri bo'lishiga qaramay, har bir sathda bo'lgani kabi mazkur hudud leksikasini aks ettirgan dostonlar tilida ham turkiy qatlamga oid so'zlar yetakchilik qilishini ko'ramiz. Asl turkiy tillarga xos bo'lgan qatlam biz o'rganishni maqsad qilgan "Oshiqnoma" turkum dostonlari leksikasining ham asosiy negizini tashkil qiladi.

Ko'plab dialektologik xarakterdagi ilmiy manbalarda turkiy qatlamga xos birliklarning miqdoriy ko'rsatkichlari haqida turli ma'lumotlarni uchratamiz. Ayniqsa, antroponimikada turkiy qatlam birliklari hajman kam foizda ko'rsatilib kelinadi. Chunki kishi ismlarining katta foizi diniy qarashlarimiz, e'tiqodimiz bilan aloqador bo'lgan arab-fors qatlamiga oid birliklar asosida yuzaga keladi. Shunga qaramay, folklor manbalari, xususan, Xorazm dostonlaridagi antroponimlar tizimida turkiy asoslarga ega bo'lgan kishi ismlari muayyan miqdorni tashkil etadi.

Shularga asoslangan holda tahlil qiladigan bo'lsak, muayyan miqdordagi atoqli otlar va ular tarkibidagi affiksoidlarning ham o'z qatlam, yani turkiy tillarga aloqador bo'lib chiqishi tabiiy holat hisoblanadi. Bunday atoqli otlar leksik-semantik jihatdan shu qadar rang-barangki, u hamma o'zbek tili tarixiy leksikasining taraqqiyoti izlarini o'zida saqlab qolgan.

Xorazm dostonlari tilida turkiy qatlamga xos atoqli otlar tarkibidagi affiksoidlar haqida gap borganda eng faol birliklardan hisoblanuvchi *bek//bika//beka* elementlarini e'tiborga olish zarur.

Beka//bika//bek. Mazkur komponent "Oshiqnoma" turkum dostonlaridagi bir talay ismlar, asosan, ayol kishilar nomi tarkibida ishlatilishi kuzatilgan: *Asilbeka*, *Guliasrorbika*, *Novgulbeka*, *Suluvbika*, *Sumbulsochbeka* va boshqalar. Lug'aviy ma'nosi "hukmdorning, yuqori mansabdorning xotini, xonadon sohibasi" deganidir. Yuqoridagi atama kelib chiqishiga ko'ra, *bek* (*beg*) nomi bilan aloqadordir. Quyidagi parchada beka affiksoidi qatnashgan: "...*belbog'ni shunday yozib qarasa, o'rtasida Sumbulsoch bekaning surati bor. Chir aylanasi yozib qo'ygan xati bor. Xatda: "Kimki meni olmoqchi bo'lsa, darvozadan bo'lak yo'ldan kelsa, ikkilamchi, maydonda urush qilib meni boylasa, shunga tegaman"*, -degan..." ("Go'ro'g'li", 2-kitob, "Sumbulsoch beka" dostoni, 313-bet).

Bek komponenti “shahar yoki viloyat hukmdori”, “yuqori martabali amaldor” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi manbalarda *bag* [7, 369], *bæg* [8, 169] shakllarida talaffuz qilingan bo‘lib, dastlab, “katta, yirik” kabi ma’nolarni ifodalagan. Xuddi shu so‘zga kichraytirish ma’nosini anglatuvchi -ka qo‘shimchasini qo‘shish orqali *beka* so‘zi hosil qilingan: *bek* › *bəy* + *ka* › *beyka* // *bə:ka* // *beka* kabi.

Bu so‘z aslida, “kichik beka” ma’nosini ifodalagan (O‘TIL.I.43). Sh.Rahmatullayevning ta’kidlashicha, *beka* so‘ziga kichraytirish-erkalash ma’nolarini anglatuvchi -ch qo‘shimchasini qo‘shish bilan *beka* + *ch* › *bekach* atamasi hosil qilingan. Bu so‘z aslida “yosh beka” ma’nosini ifodalagan (O‘TIL.I.44). Qadimgi yozma manbalarda qayd qilinishicha, *begach*, *bekach* so‘zlari “kichik bek” ma’nosini ifodalaydi [8, 339]. *Bek* so‘zining keyingi taraqqiyoti negizida boshqa turkiy tillarda, shu qatorda, qoraqalpoq, qozoq tillarida *biy* atamasi hosil qilingan. Ushbu tillarda termin ijtimoiy-siyosiy ma’no ifodalagan va urug‘ oqsoqoli ma’nosini ifodalovchichi mansab nomi sifatida qo‘llanilgan. Bu so‘z, ya’ni, *bek*, *bey*, *biy* shakllari davrlar o‘tgach, ko‘plab terminlarning yasalişida asos bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, “Oshiqnoma” turkum dostonlarida o‘nlab erkak kishilarning nomlari tarkibida ishtirok etgan. Misol qilib, *Alibek*, *Ashurbek*, *Bolibek*, *Vafobek*, *Ganjimbek*, *Go‘ro‘g‘libek* (*Bek Go‘ro‘g‘li*), *Jig‘olibek*, *Mirzobek*, *Nazirbek*, *Oylabiy*, *Og‘abeg*, *Sarsangbek*, *Sumbulsoch beka*, *Tulimbiy*, *O‘tagan biy*, *Sharmon biy* kabilarni keltirish mumkin.

Misollarga murojaat qilamiz: “...Ammo amaldorlarning jamoasining ulug‘i to‘qson ikki to‘p mang‘itdan Tulimxo‘ja degan erdi. To‘xtamishxon Tulumbiyni hama mahramlaridan ziyoda yaxshi ko‘rur erdi...” (“Oshiqnoma”, 1-kitob, “Edigo” dostoni, 170-bet). Ushbu parchada qo‘llanilgan nom dostonida bir necha variantlari bilan qo‘llanadi, ya’ni ayrim o‘rinlarda *Tulumxo‘ja*, boshqa joyda *Tulumbiy*, ba’zan *Tulum* shaklida ham uchraydi.

Oq va *qora* elementli nomlar ham dostonlar tilida ko‘plab uchraydi. “Oshiqnoma” turkum dostonlari onomastik tizimida rang ma’nosini ifodalovchi so‘zlardan, xususan, *qora* so‘zi bilan hosil qilingan ismlar talaygina. Ular atoqli otlarning hamma turlariga (antroponim, toponim, etnonim, zoonim va h.k.) xosdir: *Aqcha*, *Oqdev*, *Oqrabot*, *Qoradev*, *Qorajon*, *Qorajon*, *Qorabobo*, *Qoromon*, *Qoradali*, *Qoraalam*, *Qoramalik*, *Qorabudoq*, *Qorako‘z*, *Qoratulpor*, *Qoramang‘it* va h.

Bu komponentlar onomastik tizimda ancha faol hisoblanadi. Ularni xalq og‘zaki ijodi va qadimgi yozma manbalarda ham kuzatish mumkin. Qiyos qiling: *Qoraxon* – Qoraxoniylar sulolasi asoschisi; *Qora Arslon* – Kichik Osiyoda hukmronlik qilgan saljuqiy hukmdorlardan biri; *Qora Yusuf* – G‘arbiy Eron yerlarini boshqargan (XIV

asrda) turkiy xon, Tojikistondagi *Qorategin*, “Tohir va Zuhra” dostonidagi sarkarda – *Qorabotir* va boshqalarni keltirish mumkin.

Umuman, badiiylik nuqtayi nazaridan “qora” salbiylik bo‘yog‘iga ega, ammo ushbu nomlarga e‘tibor qaratilsa, “qora” so‘zining faqat salbiylik ma’nosini ifodalashiga shubha bilan qarash mumkin. Chunki, xonlar, sarkardalar va boshqa mashhur kishilar salbiy ma’noda bu elementni o‘z nomlari tarkibida saqlamagan bo‘lar edi. Turkiy xalqlar fazodagi eng yorug‘ yulduz bo‘lgan Yupiterni – *Qoraqush* deb atagani uning qora rangi uchun emasligi yana-da ravshanroq namoyon bo‘ladi. *Qoraqush* burgutning turkiy xalqlardagi nomidir. Mazkur nomning Yupiter sayyorasiga ko‘chirilishi hech shubhasiz qora patlari bo‘lganligi sababli emas, balki kuchi, qudrati va mahobati uchundir.

Xalq og‘zaki ijodida to‘fonni *qora yel* deb nomlash ham bu fikrni tasdiqlaydi. Demak, *qora* so‘zi rang bildirishidan tashqari, “kuchli”, “katta” ma’nosini ham ifodalaydi. Shuning uchun *Qorabotir*, *Qoraxon* kabi ismlar kuchli, qudratli kabi ma’nolarni ifoda etgan. Qadimgi turkiy tillarda bu so‘z ham rang ifodalash bilan bir qatorda boshqa ma’nolarni ham anglatgan (DLT.III.240). *Oq* so‘zi yuzasidan ham shunday fikrni aytish mumkin. A. G‘afurov *oq* so‘zi ismlar tarkibida “baxt, baxtli” kabi ma’nolarni ham ifodalashini qayd qiladi [3, 163].

Shu faktni e‘tiborga olish lozimki, *qora* va *oq* so‘zlari toponimlar yo‘nalishida ham o‘ziga xos semantik xususiyatga ega. Ular ko‘plab nomlar tarkibida kuzatiladi. Buni toponimika tizimining yirik tadqiqotchilari ham qayd etgan [6, 33]. *Qora* so‘zi Xorazm shevalarida ko‘plik, seroblik ma’nolarini ham bildiradi.

K.Shoniyozov ham *qora*, *qizil*, *ko‘k*, *oq* kabi so‘zlarning etnik nomlar tarkibida uchrashi tasodifiy holat emasligini qayd qiladi. Uning fikricha, qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar Shimol, Janub, G‘arb va Sharqni ranglar nomi bilan ifodalagan. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko‘k rang sharqni, oq rang g‘arbni, sariq rang esa markazni ifodalagan. Ma’lum bir qabila ittifoqida bo‘lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o‘tishi bilan tomon nomlari (rang nomlari) etnonim bo‘lib qolgan [10, 145]. Shunday ekan, hozirgi vaqtda rang bildiruvchi so‘zlarning urug‘-qabila nomi tarkibida kelishi, ular o‘tmishda qutb tomonlarini aniqlash uchun qo‘llanganligidan dalolat beradi [9, 38].

Umuman, rang bildiruvchi so‘zlar atoqli otlar tarkibida turli ma’nolarni anglatgan. N.A.Aristovning qayd qilishicha, etnonimni ifodalovchi sariq rang Sharqda podsholar sulolasiga mansub, oqsuyak, yuqori tabaqa kishilariga nisbatan ishlatilgan [1, 309].

N.A.Baskakov qirg‘iz etnonimining etimologiyasini tadqiq qilar ekan, uni “qizil o‘g‘uzlar” ya’ni “janub o‘g‘uzlari” deb talqin qiladi [2, 92-93]. Bir faktga e‘tibor qaratish lozim. Rang bildiruvchi so‘zlar onomastik guruhlarining har birida o‘ziga xos

ma'no anglatadi. Masalan, *qora* so'zi antroponimlar tarkibida "kuchli, qudratli" ma'nosida, etnonimlar va toponimlar tarkibida tomon ma'nosida qo'llanishi olib borilgan tadqiqotlar orqali ma'lum bo'lgan hodisadir. Gidronimlar tarkibida ifodalangan *qora* elementi katta, serob ma'nosini (Qorasuv – kattasuv) anglatib keladi.

Xorazm dostonlari tilida *qora* elementli nomlar ham ma'lum miqdorni tashkil etadi. Bunday elementlar turkiy tillarga masub birliklar orasida o'ziga xos o'rin tutadi. Mazkur element nafaqat affiksoid shaklida, balki nomning asosini tashkil qilgan holatda ham keng qo'llanila oladi. Qora elementining yana bir jihati nom asosining birinchi komponenti bo'lib ham, ikkinchi komponenti bo'lib ham qatnasha oladi.

Quyidagi misolda Qoraxon nomi tarkibida qora elementi nom asosi sifatida qo'llanilgan: "...Qoraxonning lashkari birla andog' urushdilarkim, Rustam Mozandaronda, Afrosiyob daryoi Nil va Zarafshonda andog' urush qilg'on ermaslar..." ("Oshiqnoma", 4-kitob, "Xirmondali" dostoni (kitobiy variant), 145-bet).

Yuqorida keltirilgan misollarda qora elementi nomning yetakchi komponenti bo'lib kelishidan tashqari, asosan, salbiy ottenkalarni ifodalashga, qora rang bilan bog'liq badiiylikni bo'rttirishga xizmat qilmoqda. Ammo quyida ushbu so'zning ijobiy ottenkalarda ishlatilgan o'rinlarini kuzatamiz:

...O'ng yonimda turdi ul Vaysulqora,

Kuloh kiygan ul Norimjon ko'rindi... ("Oshiqnoma", 2-kitob, "Oshiq Alband" dostoni, 172-b); yoki:

...Uch yuz oltmish avliyolarning manzili,

Sulton Uvays birla Norimjon vali... ("Oshiqnoma", 2-kitob, "Oshiq Alband" dostoni, 203-b) va boshqalar.

Natijalar va muhokama. Turkiy qatlamga xos oq elementi ishtirok qilgan kishi nomlaridan yana biri "*Oqcha*" nomidir. Bu nomning kelib chiqishini fors-arab tillaridan emasligi darhol seziladi va bu xato bo'lib chiqmaydi. Bu nom "*Aqcha*", "*Aqchagul*" kabi variantlarda "Oshiqnoma" turkumidagi, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida qo'llaniladi. Mazkur nom turkman versiyalarda "*Aqja*" shaklida qo'llaniladi. Bu ism egasining asl ismi Gulnihol bo'lib, "*Oqcha*" nomi uning laqabi hisoblanadi.

Dostonlar matnididan o'rin olgan quyidagi parchalarga diqqatni qarataylik:

...Ammo Shohsanamning Gulnihol degan bir kanizi bor erdi, laqabini Aqcha der erdilar... ("Oshiqnoma" turkumi. 2-kitob. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni, 26-bet).

Yoki: ... Shohsanam Aqchaga qarab bir so'z aytdi:

Aqcha galin g'amsiz boshim, G'amxona bo'ldi naylayin?

*Bir soʻz bilan oshno yorim,
Begona boʻldi naylayin?... kabi.*

Oqcha//Aqcha laqabi uning oq yuzli koʻrinishi sababli qoʻyilgan boʻlishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda turkiy soʻzlarning xususiyatlari haqida gapirilganda qisqa boʻgʻinli soʻzlarning turkiy ekanligi aytiladi. Xususan, sifat turkumiga oid rang-tus bildiruvchi koʻpgina soʻzlar, jumladan, oq, sariq, koʻk, qora kabilar shubhasiz turkiy qatlamga oid soʻzlardir. Shunday ekan, “*Oqcha*” nomini, xususan, nomning birinchi tarkibiy qismi hisoblangan “oq” elementini hech ikkilanmay turkiy tillarga mansub birlik sifatida qarash mumkin.

Xulosalar. Umuman olganda, onomastik birliklar hamma vaqt mavjud til elementlari, materiallari negizida vujudga keladi. “Oshiqnoma” turkum dostonlari leksikasining asosiy qismi ham turkiy tillarga aloqadordir. Yana shuni alohida taʼkidlash lozimki, Xorazm xalq ogʻzaki ijodida, xususan, “Oshiqnoma” turkumi dostonlaridagi onomastik birliklarda mamlakatimizga xos boʻlgan urf-odatlar, rasm-rusumlarning aks etishi bu vohada yashovchi xalqlarning etnogenezisini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности, “Живая старина”. – СПб, 1896.
2. Баскаков Н.А. К вопросу о происхождения этнонима киргиз. //“Советская этнография, 1964.
3. Гафуров А. Лев и Кипарис (о восточных именах). – М.: Наука, 1971.
4. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
5. Дўсимов З. Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент: Фан, 2002.
6. Дўсимов З. Шимолий Хоразм топонимлари. Филол. фанл. номзод. дисс. – Тошкент, 1970.
7. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.-Л, 1951.
8. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Т. III. – Тошкент: ЎзФАН, 1963.
9. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997.
10. Шанязов К. Қанг давлати ва қангликлар. – Тошкент: Фан, 1990.

ONOMASTIK OT, ISM, NOM TERMINLARINING QO‘LLANISHI VA USLUBIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Saydullayeva Ra‘no Ibadovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Qarshi davlat universiteti

Jo‘rayeva Yulduz G‘aybullayevna

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiycha *ot*, arabcha *ism*, forsha *nom* terminlarining turli lug‘atlar, yozma manba va badiiy matnlarda zikrlanishi, yozma va og‘zaki nutqda qo‘llanishi hamda uslubiy-semantik xususiyatlari xususida so‘z boradi. Ushbu terminlarning izohli lug‘atlarda, tarixiy manbalarda, xususan, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida, Kaykovusning “Qobusnoma”sida, XIV asr Xorazm manbalarida o‘ziga xos shakllarda berilganligi qayd etilgan. *Ot*, *ism*, *nom* terminlarining o‘tmishda onomastik ma‘nodan ko‘ra ko‘proq etnografik ma‘no ifodalaganligi aytib o‘tilgan. Hozirda bu so‘zlarga ilmiy terminlik vazifasi ham yuklatilganligi, terminlarning o‘ziga xos jihatlari, ya‘ni uslubiy-vazifaviy xususiyatlari bayon etilgan. Maqolada *nom* so‘zi umumiy, *ot* va *ism* terminlari unga nisbatan xususiy ma‘nolarni anglatishi misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, onomastik birliklar, termin, *ot*, *ism*, *nom*, tarixiy manba, leksema, sinonim.

УПОТРЕБЛЕНИЕ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ ОТ, ИСМ (ИМЯ), НОМ (НАИМЕНОВАНИЕ) И ИХ СЕМАНТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Сайдуллаева Рано Ибадовна

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Каршинский государственный университет

Жураева Юлдуз Гайбуллаевна

Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье говорится об упоминании терминов *от* (имя) тюркского, *ism* (имя) арабского, *nom* (наименование) персидского происхождения в различных словарях, письменных источниках и художественных текстах, их употребления в письменной и устной речи, а также о стилистических и семантических особенностях. Отмечается, что эти термины в конкретных формах приводятся в толковых словарях, исторических

источниках, в частности, в «Девону лугати-т-тюрк» М. Кошгари, в «Кобуснаме» Кайковуса и в и Хорезмских источниках XIV века. Также говорится, что в прошлом термины *ot*, *ism*, *nom* выражали скорее всего этнографическое значение, чем ономастическое значение. В настоящее время за этими терминами закреплена функция научной терминологии, описаны конкретные аспекты терминов, т. е. методологические и функциональные характеристики. В статье на примерах раскрывается, что слово *nom* (наименование) имеет общее значение, а термины *ot* и *ism* (имя) имеют по отношению к нему частное значение.

Ключевые слова: ономастика, ономастические единицы, термин, имя, наименование, исторический источник, лексема, синоним.

THE USE OF ONOMASTIC TERMS FROM, ISM (NAME), NOM (NAME) AND THEIR SEMANTIC AND METHODOLOGICAL FEATURES

Saydullaeva Rano Ibadovna

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Karshi State University

rano.saydullayeva@mail.ru

Juraeva Yulduz Gaybullaevna

Karshi State University

Annotation. This article discusses the mention of words of Turkic origin (*ism*), Arabic origin (*nom*) and Persian origin (*name*) in various dictionaries, written sources and literary texts. It also discusses their use in both written and spoken language, as well as their stylistic and semantic features.

It is noted that these words are given specific forms in explanatory dictionaries and historical sources, such as the "Devon lugati-t-Turk" by M. Koshgari and the "Kobusname" by Kaykovus, as well as in Khorezmian sources from the 14th century.

Additionally, it is mentioned that in the past, the words *ot*, *ism* and *nom* were more likely to have an ethnographic meaning rather than an onomastic one. However, currently, these words have been assigned the function of scientific terminology and their specific aspects, such as methodological and functional characteristics, are described.

The article also provides examples to illustrate that the word "nom" has a general meaning, while the words "ot" and "ism" have specific meanings in relation to the word "name".

Keywords: onomastics, onomastic units, terminology, name, historical source, lexeme, synonym.

Kirish. O‘zbek onomastik terminlari tarkibida tub, sodda va qo‘shma terminlar kamchilikni tashkil qiladi va ularning aksariyati birikma shaklli terminlardir. Onomastika ilmiy soha sifatida yangi bo‘lsa-da, “nomlash”, “nom berish”, “atash”, “ism berish”, “ot qo‘yish”, “nom berish” kabi lisoniy hodisalar juda qadimiy udumlardir. Bular haqida ko‘pgina ko‘hna manbalar, etnografik adabiyotlarda qimmatli ma‘lumotlar bor [1, 53]. Mazkur birikmali terminlar *ot*, *ism*, *nom* kabi tub sinonim terminlar asosida yaratilgan.

Ushbu maqolada turkiycha *ot*, arabcha *ism*, forsha *nom* terminlarining lug‘atlar va yozma manba va badiiy matnlarda zikrlanishi, yozma va og‘zaki nutqda qo‘llanishi hamda uslubiy-semantik xususiyatlari haqida fikr yuritimiz.

Asosiy qism. 1. Ot. Izohli lug‘atda izohlanishicha, *ot* terminining bosh ma‘nosi yakka tuyoqlilarga mansub o‘txo‘r, sut emizuvchi yirik ish-ulov hayvoni. *Oq ot. Qashqa ot.* Ikkinchi ma‘nosi esa kishining shaxsiy ismi, nom. *Chaqaloqqa ot qo‘ymoq. Oti(ng) o‘chsin (o‘chgur)! Oti(ng) qursin (qurg‘ur)! qarg‘ish ma‘nosida.*

Ikkinchi ma‘nosidan tashqari *ot* termini quyidagi ma‘nolarda ham ishlatiladi: 1. O‘rgatilgan hayvonlarning nomi; laqab. *Buning oti To‘rtko‘z emas. Arslon.* 2. Umuman, narsalarning, hodisalarning nomi, nom bildiruvchi so‘z. *Bu.. tog‘ning oti Muzloq edi.* M. Ismoilov, Farg‘ona t. o. *Ot qo‘ymoq Nom bermoq, atamoq. Oti yo‘q evf. Chayon haqida aytiladi. Otiga(gina) Shunchaki, ko‘rinishga, nomiga. U otigagina rais, hamma ish muovin qo‘lida. Otigagina xon bo‘lib o‘tiruvchi Xudoyorxon, Musulmonqul maydondan olinguncha o‘zining qo‘g‘irchoq sifat yura berishini tushundi.* A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. **Otimni boshqa qo‘yaman** 3. Qasam, ontini ifodalovchi ibora. Boshlangan ishni oxirigacha olib bormasam, otimni boshqa qo‘yaman. Oydin, Sadag‘ang bo‘lay, komandir. 4. Unvon, mansab, nom. *Bir qari odamga “kuyovlik” otini berish ham uni kuyov bo‘lganday quvontiradi.* S. Ayniy, Qullar. 5. Zot, urug‘. *Kel, o‘sha Muharraming bo‘lmasa, boshqasi-da, qiz oti qurib ketibdimi?* Shuhrat, Shinelli yillar. 6. Shuhrat, dong. *Yaxshidan ot qolar, yomondan dod qolar. Maqol. Ot chiqarmoq Nom chiqarmoq, dong taratmoq, shuhrat qozonmoq, mashhur bo‘lmoq, tanilmoq. Ko‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot. Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot! Ergash Jumanbulbul o‘g‘li.* 7. Sha‘n, nomus, g‘urur. *Sizga xabar berib o‘tirishni yigitlik otiga ep bilmay, menga ham bir narsa sezdimagan.* A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. 8. Predmetni bildirib, “kim?” yoki “nima?” so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘z. *Turdosh ot. Atoqli ot [2, 150-151].*

Ma‘lum bo‘ladiki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ot* terminining sakkizta ma‘nosi izohlangan: 1. Kishining shaxsiy ismi. 2. Unvon, mansab. 3. Zot, urug‘. 4. Shuhrat, dong. 5. Grammatik kategoriya. 6. Hayvon nomi, laqab. 7. Qasam, ont. 8. Sha‘n, nomus, g‘urur.

Aslini olganda bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi bu uchala terminning birinchisi “*ot*” “*ism*”, “*nom*” terminlariga qaraganda, juda qadimiy davrlardan ma’lum. Masalan, qadimiy turkiy tilda *ot* termini: *at* (ism, nom), *at* (hayvon nomi), *at* (otmoq), *at* (yuragi otdi – yuragi urib turibdi) ma’nolariga ega. Bu soʻzning onomastikaga tegishli *at//od* (ad) shakli: 1) ism; 2) umuman nom; 3) unvon, titul ma’nolarini anglatgan. Ism ma’nosidagi *ot* soʻzi *at al* – ismga ega boʻlish, *at ata* – ism berish, *at ber* – ism berish, *ati kotrulmus* – oti yuksaldi, mashhur boʻldi, *at qoy* – ot qoʻy, *at tut* – ismli boʻlib yurmoq kabi birikma, iboralar tarkibida kelgan [3,64-65].

M.Koshgʻariy *a:t* (a:t) soʻzi – ism, ot va laqab, unvon ma’nosida qoʻllanishini koʻrsatib, quyidagi misolni keltiradi: *beg anar a:t berdi* – *bek unga ot berdi*. Qabilaning ulugʻi yoki boshligʻini ham *atlig* deyish mumkin. Ushbu muallif *atadi* – fe’lini shunday izohlaydi: “*ol aḡar at atadi* – u unga bir laqab berdi. Ot qoʻyib atashga ham bu soʻz qoʻllaniladi” [4, 44].

XII-XIII asr yozma obidasi boʻlmish “Tafsir” tilida *at (ot)* I – ism, nom; *at* – hayvon nomi va *at* – otmoq, uloqtirmoq; *at* – yorishmoq, tong otmoq omonimlari qayd qilingan. Nomlash jarayonini *atan* – ismli boʻlmoq, *ata* – ism bermoq, nomlamoq soʻzlari ifodalagan [5, 62-63].

Yuqorida qayd qilingan manbalarda *ism*, *nom* leksemalari uchramaydi. Shu narsa ham xarakterliki, *adash* soʻzi (birdan ortiq shaxslar ismining oʻxshash, bir xil boʻlib qolishi) “Древнетюркский словарь”da, shuningdek, “Devonu lugʻatit turk”da “doʻst, oʻrtoq” deb izohlangan. “Tafsir” leksikasida *at* II soʻziga *at tashi* (otdoshi) keltirilib, “*adash*” – bir xil ismli izohi berilgan.

Alisher Navoiy asarlarida esa *ism*, *nom* soʻzlari *ot* soʻzi bilan parallel qoʻllanilgan. *Ism* soʻzidan *ismlik* (nomli, nomga ega boʻlgan) soʻzi yasalgan. Ushbu manbada negadir *nom* soʻzining oʻz ma’nosi emas, koʻchma ma’nosi izohlangan: *nom* – obroʻ, eʼtibor, shuhrat, nomus. Ushbu soʻz negizida yasalgan *nomvor* (nom chiqargan, mashhur), *nomdor* (dongdor), *nomdorlik* (mashhurlik), *nomjoʻy* (shuhratparast), *nomzod* (unashilgan, oldindan belgilangan), *nomiy* (nomli, shuhratli) [6, 428] soʻzlarining mavjudligi *nom* soʻzi XV asr tilida ancha faol boʻlganidan darak beradi.

R. Nuritdinova *ot* soʻzining qoʻllanishi haqida fikr yuritarkan, quyidagicha yozadi: *ot (a:t)* soʻzi barcha turkiy tillarda uchraydi. E.V.Sevortyan *ot* soʻzining bu tillardagi beshta ma’nosini qayd qilgan. Ular orasida *ot* soʻzining ism, nom, laqab maʼnolari birinchi oʻrinda turadi. Tadqiqotchilarning aksariyati *ot (a:t)* – chaqirmoq, qichqirmoq, aytnoq maʼnosidagi oʻzakdan paydo boʻlgan, bunga dalil sifatida baʼzi turkiy tillarda *ata* soʻzi chaqirish, qichqiriq maʼnosida uchraydi.

A. Hojiyev lugʻatida *ot*, *ism*, *nom* terminlarini sinonimlar sifatida keltirib, ularga quyidagicha izoh bergan: shaxs yoki narsa-predmetlarga qoʻyiladigan atama.

Nom shaxs, shuningdek, narsa-hodisalarga nisbatan qo‘llanaveradi. Lekin jonli so‘zlashuvda juda kam qo‘llanadi. *Ot* asosan shaxs va jonli narsalarga nisbatan qo‘llanadi. Jonsiz narsalarga nisbatan juda kam qo‘llanadi. *Ism* shaxsga nisbatangina qo‘llanadi [7, 148-149].

Sh. Rahmatullayev *ot* terminini *ism*, yirik ish-ulov hayvoni, uloqtir ma’nolarida qo‘llanishini aytib, *ot* qadimgi davrlarda *a:t* tarzida talaffuz qilinganligi, o‘zbek tilida o unlisi a unlisiga almashganligini qayd etgan: *a:t> at> at* [8, 258].

O‘zbek tilining tarixiy rivoji davomida *ot*, *ism*, *nom* so‘zlari bilan bog‘liq ba’zi leksema va iboralar iste’moldan chiqqan. Bular *asmo* – *ism* so‘zining ko‘plik shakli: ismlar, nomlar; *ismi xos* – atoqli *ot*, *ismi om* – turdosh *ot*, *atan* – *ism*, nomga ega bo‘lmoq va b.

2. *Ism*. Izohli lug‘atda *ism* so‘zi aynan *ot* deb to‘g‘ri izohlangan. *Ism* so‘zi lug‘at maqolasida *ismi xos* – gram. esk. atoqli *ot*: *ismi om* – gram. esk. turdosh *ot* terminlari ham keltirilgan [9, 232].

Sh. Rahmatullayevning etimologik lug‘atida *ism* terminining “arabcha so‘z ismart(un) shakliga egaligi, o‘zbek tiliga kasrali *ayn* tovushini i tovushiga *sad* undoshini s undoshiga almashtirib qabul qilingan: *’ism* – *ism*. Bu ko‘pma’noli *sama* fe’lining “so‘z talaffuz qildi” [10, 175] ma’nosidan hosil qilingan *ot*, *ism* ma’nosi bilan o‘zlashganligini qayd etgan. Shuningdek, *ismdosh*, *ismlamoq*, *ismlanmoq*, *isimli* so‘zlari ham bosh so‘z sifatida keltirilgani ham diqqatga molikdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asrning 10-yillarida o‘zining bir maqolasida *ism* va *ot* so‘zlarini *nom* so‘zining sinonimi sifatida qo‘llagan: «Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmaydug‘anlarni “qul” – “marquq” (manqurt ma’nosida bo‘lsa kerak – kitob muallifi izohi) derlar” [11] - deb yozgandi.

Chaqaloqqa *ism* (nom) berishning oila va xalq ichida muqaddasligini, shu jarayonga oid urf-odatlarini Abdulla Oripov quyidagicha ifodalaydi:

*Oilada tug‘ilsa go‘dak,
Unga suyub qo‘yarlar ism.
Volidalar go‘dagi uchun
Beshik olib, tortadilar osh* [12, 18].

Ism so‘zi bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar jarayonida ancha faollashmoqda. Masalan, yosh shoirlardan F.Hamroyev o‘zining she’riy to‘plamiga “Dunyoning ismi” deb nom bergan [13]. Unda muallif ismga shoirona ta’riflar berishga harakat qilgan.

3. *Nom*. [fors-tojikcha – *ot*, *ism*; shon-shuhrat, obro‘, *ot* so‘z turkumi]. 1 Shaxs yoki narsa-predmetlarga qo‘yilgan *ot*, *ism*. Shahar nomlari. *Nom* qo‘ymoq. *Nom* bermoq. 2 Biror sohaga, guruhga oidlikni bildiruvchi atama. *Ulug‘ nom*. 3

Faoliyatning biror sohasida erishgan yutuq, malaka darajasini ko'rsatish uchun rasmiy yo'l bilan beriladigan unvon. Faxriy nom. Xizmat ko'rsatgan artist degan nom. Klassik kurash bo'yicha mamlakat chempioni degan nom. 4 Ko'pchilik orasida ma'lum-mashhurlik; dong, dovrug', shuhrat. Nomi chiqqan kurashchi [14, 53-54].

Izohli lug'atda *nom* terminiga berilgan izohdan bu so'z *ot*, *ism* so'zlariga nisbatan kengroq ma'noga egaligi ma'lum bo'ladi: "Shaxs yoki narsa-predmetlarga qo'yilgan *ot*, *ism*". Demak, *nom* so'zi keltirilgan ma'noda *ot* so'zining umumiy ma'nosiga yaqinlashadi. *Ism* so'zi esa ko'proq shaxsning atoqli oti ma'nosini anglatadi va antroponim tushunchasini ifodalaydi. Bu termin vositasida *noma*, *nomdor*, *nomzod*, *nomdorlik*, *nomgo'y*, *nomli*, *nomsiz* kabi ko'plab terminlar yasalgan.

O'zbek tili onomastika terminlari bilan shug'ullanib, ularning lisoniy tahlili yuzasidan tadqiqotlar olib borgan R.Nuritdinova: "*Nom* so'zi onomastikada ko'p holda «atoqli *ot*» ma'nosida qo'llanadi» [15, 7], - deb qayd etadi.

T. Enazarov va X. Daurovalarning "Nom va ism so'zlarining qo'llanishi to'g'risida" nomli maqolasida *nom* va *ism* so'zlarini to'g'ri qo'llash haqida asosli fikrlar bildirilgan. Jumladan, *nom* hamda *ism* so'zlari sinonimlar tarzida ko'rinsa-da, lekin ma'no jihatdan juda nozik farqi borligi e'tiborga olingan holda ishlatiladi. Har qanday *nom* (ism)da kishilar, shu jumladan, xalq, qabila, urug' va elatlarning biror narsani ikkinchi bir narsadan farqlashga qaratilgan fikr-o'yi mavjud bo'ladi, mana shuning natijasida atoqli otlarning turlari yuzaga keladi. Nom qo'yish qonuniyat (odob)lari bo'lgani kabi, obyektlarga (xoh u jonli, xoh jonsiz bo'lsin) ism qo'yish va nom bilan atash odob (qonuniyat)lari ham bor. O'zbek xalqi ham boshqa xalqlar kabi farzandlariga, umuman, mavjud barcha narsalarga *nom* (ism) qo'yish, nom bilan atash yuzasidan ancha-muncha tarixiy, milliy va etnografik an'analarga egaligini hammamiz bilamiz" [16, 188].

Ko'rinib turibdiki, *nom* (u kimni, nimani, qayerni xalq tomonidan qanday, qay tarzda atalishining zamonga mos ravishdagi ifodasi) milliylik, madaniyatlilik, tarixiylik, ma'naviy barkamollik belgisi sanaladi. Ularda biz bilmagan, ammo bilishimiz lozim bo'lgan va kishining diqqat-e'tiborini tortadigan nozik hamda purma'noli yashirin hikmatlar majmui bir butun holda muhrlangan. Shuning uchun Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, "Ismlarning tarixi uzoq, ismlarda asrlik qismat" bor. Shu sababli Jaloliddin Rumiylarning nom (ism)larning chiroyli, mazmundor bo'lish, bo'lmasligi to'g'risida shunday deb yozgan edi:

***"Nom agar o'ksuk esa, harfdin emas,
Suv agar achchiq esa zarfdin emas.***

Isming chiroyli bo'lmasa, harf aybdor emas, otang qo'ygan uni. Suvni achchiqligi sariqligida emas, ayniganidan deb bil" [17, 6].

“Kaykovus “Qobusnoma”da *nom* ma’nosida uning sinonimi bo‘lgan *ot* so‘zini ham ishlatadi (nom-ot). “Otni ota va onang qo‘ymishlar, sen unga g‘arra bo‘limg‘il, nedinkim, ul zot mahqi bir nishondin o‘zga narsa ermasdur. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo‘lg‘il. O‘zingni “Ja’far”, “Muhammad”, “Ahmad”, “usta”, “xo‘ja”, “fozil” oti bila atab, ammo unga loyiq bo‘lmasang, u ot ermasdur” [18, 32]. Bu fikri bilan Kaykovus nomga jiddiy munosabatda bo‘lish kerakligini ta’kidlagan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek tilida shaxs yoki obyektни nomlash jarayonini *nomlamoq*, *nomlanmoq*, *nomli*, *nomsiz* terminlari ifodalaydi. *Ism* o‘zagidan yasalgan *ismlamoq*, *ismlanmoq*, *isimli*, *ismdosh* so‘zlari kamiste’molligi bilan xarakterlanadi. Kuzatishlar *ism* so‘zi hozirgi o‘zbek tilida ko‘proq shaxsning atoqli oti, antroponim ma’nosida, *ot*, *nom* so‘zlari esa umuman nom, atoqli ot ma’nolarida meyorlashganini ko‘rsatadi. Arabcha *ism*, forsha *nom* leksemalari o‘zbek tiliga, keyinchalik XIII asrlardan keyin kirgan bo‘lishi mumkin. Chunki XIV asrlarga oid Xorazm yozma obidalari tilida *at* so‘zi bilan bir qatorda *ism*, *nomdor* leksemalari uchraydi.

Yuqorida tahlil qilingan *ot*, *ism*, *nom* tarixiy-an’anaviy so‘zlardir. Bu so‘zlar o‘tmishda onomastik ma’nodan ko‘ra ko‘proq etnografik ma’no ifodalagan. Hozirda bu so‘zlarga ilmiy terminlik vazifasi ham yuklatilgan. Albatta, yuqoridagi fikr-mulohazalarda *ot*, *ism*, *nom* so‘zlarining o‘ziga xos jihatlari, ya’ni uslubiy-vazifaviy xususiyatlari bayon etildi. Xullas, misollardan ayon bo‘lib turibdiki, *nom* so‘zi umumiyroq ma’noni anglatasa, *ot* va *ism* terminlari unga nisbatan xususiyroq ma’noni ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Nuritdinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lingvistik tahlili. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2022, – B.53.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. 3 жилд. – Б. 150-151.
3. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С.65-65.
4. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
5. Боровков А. Лексика Среднеазиатского Тефсира XII-XII в.в. Восточной литературы. – М.: 1968. – С. 62.
6. Фазилов Э. Староузбекский язык. Харезмские памятники XIV века Том. 1. – Ташкент: Наука, 1966. – С.428.
7. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 148-149.

8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. – Тошкент: Университет. 2000. - Б.258.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – Б.175.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. 2 жилд. – Б.232.
11. Маҳмудхўжа Бехбудий. Ҳақ олинур, берилмас // Садои Фарғона. 1914 йил (Бу мақоланинг маълум бир парчаси «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетасининг 2012 йил 1 сентябрдаги сониди берилган.
12. Орипов А. Оилада туғилса гўдак. II Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – Б.88.
13. Ҳамроев Ф. Дунёнинг исми // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2012 йил 14 сентябрь.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. 3 жилд. – Б. 53-54.
15. Нуритдинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. - Б.7.
16. Т.Эназаров, Х.Даурова, ЎЗМУ Тилшуносликнинг долзарб масалалари. VI китоб. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Akademnashr, 2013. – Б. 188-193.
17. Жалолiddин Румий. Оқибат тупроқ бўлурмиз. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. – Б.6.
18. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.32.

O‘ZBEK XALQ ASKIYA SAN’ATI VA DRAMATIK ASARLARDA ONOMASTIKANING O‘RNI

Zaylobova Nazokat Turqunboyevna
Tilshunoslik kafedrasini ilmiy tadqiqotchisi
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada qadimgi o‘zbek tomosha san’ati hisoblangan askiya san’ati va dramatik asarlarda uchraydigan onomastik til birliklari haqida fikr yuritilgan. Askiyada askiyachilarning xos laqablari (“kar”, “ko‘r”, “kal”, “gung”, “eshak”, “novcha”, “pakana”, “garang”, “gov”, “qishloqi” kabi) real va samimiy kulgini ta’minlashi misollar asosida isbotlangan. Hatto, askiyachilarning qayerlik ekanliklariga qarab askiya olib borishlaridagi xilma-xilliklar va o‘ziga xosliklar ochib berilgan. Dramatik asarlarda esa ishtirokchilarning nomlanishida (Qo‘chqor, Qumri, Bozorvoy, Olimjon, Xumorxon, Netayxon, Huzurjonov kabi) muallifning munosabati

yashiringani misollar orqali dalillangan. O‘zbek xalq askiya san’ati va dramatik asarlarda onomastikaning alohida o‘rni va ahamiyati borligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: askiya, ism, laqab, dramatik asarda nomlarga munosabat, salbiy va ijobiy bo‘yoqli ismlar.

РОЛЬ ОНОМАСТИКИ В УЗБЕКСКОМ НАРОДНОМ ИСКУССТВЕ «АСКИЯ» И ДРАМАТИЧЕСКОМ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Зайлобова Назокат Тургунбоевна

Научный сотрудник кафедры Языкознания
Ферганский государственный университет

Аннотация. В статье рассматривается аския, считающееся древним узбекским искусством слова, а также ономастические языковые единицы, встречающиеся в драматических произведениях. В аския встречается типичные прозвища, такие как “кар”, “ко‘р”, “кал”, “гунг”, “эшак”, “новча”, “пакана”, “гаранг”, “гов”, “қишлоқи”, которые используются для насмеха отдельных лиц. Раскрывается даже различия и особенности аския, игроков в аския. В драматических произведениях авторское мироощущение скрыто в именах участников (таких как Кучкор, Кумри, Бозорвой, Олимжон, Хуморхон, Нетайхон, Хузуржонов). Также поясняется, что ономастика занимает особое место и значение в узбекском народном творчестве и драматургии.

Ключевые слова: аския, имя, прозвище, отношение к именам в драматической пьесе, имена с отрицательной и положительной окраской.

THE ROLE OF ONOMASTICS IN THE ART AND DRAMATIC WORKS OF THE UZBEK PEOPLE

Zaylobova Nazokat Turgunboyevna

Scientific researcher of the Department
Fergana State University

Annotation. The article examines askiya, considered the ancient Uzbek art of words, as well as onomastic linguistic units found in dramatic works. In Askia there are typical nicknames such as “kar”, “ko‘r”, “kal”, “gung”, “eshak”, “novcha”, “pakana”, “garang”, “gov”, “qishloqi”, which are used for the ridicule of individuals. Even the differences and characteristics of askia and askia players are revealed. In dramatic works, the author's worldview is hidden in the names of the participants

(such as Kuchkor, Kumri, Bozorvoy, Olimjon, Khumorkhon, Netaykhon, Khuzurjonov). It is also explained that onomastics occupies a special place and significance in Uzbek folk art and drama.

Keywords. Askiya, name, nickname, attitude to names in a dramatic play, names with negative and positive colors.

Kirish. Tilshunos olim, onomastika bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borgan E. Begmatov onomastik til birliklarida lingvokulturologik tahlil uchun yordam bera oladigan quyidagi belgilarni keltirib o'tadi:

1. Antroponimlar shaxslarni farqlash bilan birga, nomlovchining xohishi va faoliyati bilan bog'liq rasm-rusumlarga asoslanadi;
2. Antroponimlar xalq ijodkorligining samarasi hisoblanadi;
3. Antroponimlar orqali asrlar davomida yashagan kishilarning etnik, madaniy-ma'naviy qarashlari hamda diniy e'tiqodlari bizga qadar yetib keladi;
4. Antroponimlar motivatsiyasi millatning tarixiy taraqqiyotiga bog'liq hisoblanadi [2, 37-38].

Demak, izlanishlarni ana shu nuqtayi nazardan olib borish tadqiqotchiga birmuncha yengillik tug'diradi.

Asosiy qism. Qadimiy o'zbek tomosha san'ati hisoblangan askiyada hajviy-yumoristik usul bilan ijtimoiy hayotdagi illatlarni tanqid qilish an'anasi kuchli bo'lgan. E'tibor qilinadigan jihati shundaki, askiyachilar voqea-hodisalarga, odamlarga o'xshatish, mubolag'a, so'z o'yinlari orqali o'z munosabatlarini bildirib boradilar. Askiyachilar kulgining real va samimiyligini ta'minlash uchun o'z nomlaridan, xususan, laqablaridan ham foydalanganlar. Laqab to'g'ridan-to'g'ri yoki qiziqchining ismi ketidan qo'shib aytilgan. Masalan, *Shodmon qiziq*, *Mo'min qishloqi* kabi. Askiyada hatto kishining jismoniy kamchiligiga ham nozik qochirimlar orqali til tegizib o'tish rasm bo'lgan. askiyachilarning har xil laqabi bo'lgan. Masalan, "kar", "ko'r", "kal", "eshak", "garang", "gov", "novcha", "pakana", "qishloqi" kabi. Umrining oxirigacha askiya bilan shug'ullangan, ammo moddiy qiyinchilikda yashagan *Zokir gov* nomli askiyachi bir boyning to'yida askiya paytida vafot etadi. Boy to'yining azaga aylanishini istamaydi va "o'limini hazilga chiqaringlar, bo'lmasa, hammangni jazolayman", deb qo'rqitadi. Chorasiz qolgan askiyachilar murdani atrofni o'rab olib shunday askiya qiladilar:

Mo'min qishloqi. Turing, hazil vaqti emas, suvni isitib qo'yishdi, yuvg'uchilar yuvishadi, bekorchi hazil chinga aylanib ketadi, axir.

Usmon qiziq. Qo'y, yotaversin. Zardasini xotiniga qilsin, bizga nima?

Sa'di Maxsum. Mayli, qo'yaver, keyin o'zi pushaymon qiladi, baribir o'rniga o'tmaydi.

Askiyadagi yana bir e'tiborli xususiyat – u o'zini o'zi tanqid qiladi. Kishi xarakteridagi fazilat va nuqsonlarni kosa, kosa ostida nimkosa qabilidagi kabi qochirimlar bilan hajv ostiga oladi. Erka qori laqabi bilan mashhur bo'lgan qo'qonlik hofiz va usta askiyachi bir yarim yoshligida qizamiq chiqib ko'zidan ajraydi va bir umrga ko'r bo'lib qoladi. Mamayunus ismli askiyachining esa tug'ma kalligi bo'ladi. Ular o'rtasida shunday askiya bo'lib o'tadi:

Mamayunus aka. Turing, qori aka! Ko'r otga (kurortga) keldingiz!

Erka qori. Hovliqmay qoling, Mamayunus! Sho'rtepa-ku!

Agar askiya eshituvchilar ularning laqablaridan xabardor bo'lmasalar, nima uchun boshqalarning kulganiga tushunolmasliklari mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, andijonlik, marg'ilonlik, toshkentlik askiyachilarning o'zaro aytishuvlarida o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi. Marg'ilonlik askiyachilarda payrov kuchli bo'lsa, andijonlik askiyachilarda bayonchilik kuchli bo'lgan va hokazo. Mashhur ustoz askiyachi Tursunbuva Aminovning obrazli qilib aytishicha: "Andijonliklar uloqni aylantirib kelib tashlaydilar, Qo'qon va marg'ilonliklar esa tavakkal qilib tashlaydilar".

Demak, askiyaning aytishuvlarida askiyachilarning qayerlik ekanliklarida ham o'ziga xoslik mavjuddir.

Ma'lumki, dramatik asar sahna uchun yaratilgan asardir. Dramaturg asar voqealariga to'g'ridan-to'g'ri aralasholmaydi. Ammo remarka (muallif nutqi) orqali qahramonlar xatti-harakatlariga bema'lol munosabat bildira oladi. Bunday munosabat, ayniqsa, asar qahramonlarining nomlanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Dramaturg Sharof Boshbekovning "Temir xotin" [3, 96] jiddiy komediyasida ishtirok etuvchilarga e'tiborni qaratamiz:

”Qo'chqor – traktorchi.

Alomat – robot.

Olimjon – olim.

Qumri – Qo'chqorning xotini”.

Bozorvoy – Qo'chqorning jo'rasi, asarda ko'rinmaydi, xotini Sharofatning gaplaridan hamisha ikki qopgina bodring ko'tarib tirikchilik tashvishida bozordan beri kelmaydigan odam qiyofasi ko'z oldimizga keladi. Sinchiklab qaraydigan bo'lsak, har bir qahramonning nomlanishini o'zidayoq muallif munosabati ko'zga tashlanadi:

Qo'chqor – qo'yning erkagi, shunday bo'lsa-da, u bizga beozor qo'yni eslatadi. Qumri – beozor musicha, Bozorvoy – tirikchilik tashvishida bozordan beri kelmaydigan odam, Olim – ixtirochini yodga solib turadi. Bu nomlanishlar ularning tipik obrazlari haqida o'quvchiga va tomoshabinga yetarli ma'lumot beradi. Bunday

nomlanishlarga yashiringan munosabatlarni yozuvchi Abdulla Qahhorning “Og‘riq tushlar” hamda “Tobutdan tovush” komediyalarida ham uchratamiz.

“Og‘riq tushlar” komediyadagi qahramonlarning biri Marasul Huzurjonov, biri esa Xumorxon deb nomlanadi [4, 71-127]. Ular o‘z ismlariga juda munosib qiyofada asar davomida namoyon bo‘ladilar. Marasul Huzurjonov hamisha o‘z huzurhalovatini o‘ylaydigan, Xumorxon esa yengiltak, mol-dunyoga o‘ch ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Yoki “Tobutdan tovush” komediyasidagi Suxsurov va Netayxon obrazlari quyib qo‘ygandek o‘z nomlariga munosib tasvirlanadi. Suxsurov poraxo‘r amaldor, xotini Netayxon esa yengiltaklik bilan nom chiqargan axloqsiz ayol sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilshunos olim S.Mo‘minov o‘zining “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” ilmiy monografiyasida shunday yozadi: “Tabiiy va ijtimoiy muhitning inson muloqot xulqiga bevosita ta’sir etishligini dialektologlar, etnograflar yiqqan boy faktik materiallar ham, yozuvchi va shoirlarning asarlarida tasvirlangan hayotiy voqealar ham to‘liq tasvirlaydi. Chunonchi, Tog‘ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Erkin A‘zamov asarlaridan Surxondaryo vohasi kishilarining; Jumaniyoz Sharipov, Erkin Samandar, Omon Matjon asarlaridan xorazmliklarning; Ne‘mat Aminov, Jamol Kamol, Omon Muxtor asarlaridan buxoroliklarning; Erkin Vohidov, Yo‘ldosh Sulaymon, Anvar Obidjon kabi shoir va adiblarning asarlaridan Farg‘ona kishilarining nafasi kelib turadi” [5,144].

Natijalar va muhokama. Yozuvchi, ijodkorlarning uslubiy tomondan etnik xoslanishi ularning asl tug‘ilib o‘sgan joylariga ham bog‘liq ekanligi haqidagi yuqoridagi fikrlarda jon borligini ularning asarlarini o‘qib bemalol bilib olish mumkin. Biz izlanishlar jarayonida qiziq faktlarga duch keldik. Askiyachilar laqablar orqali o‘z munosabatlarini ochiq bildirsalar, dramaturglar o‘z munosabatini personajlarning nomlanishida ham berishga erishadilar. Adabiyotshunos Rahmon Qo‘chqor “Ichimizdagi xoin” maqolasida shunday yozadi: “Hamza Hakimzodaning 1917-yilning birinchi yarmida – Turkiston xalqlari oldida istiqloлга erishishning noyob imkoniyati paydo bo‘lgan kunlari yozgan “Muxtoriyat yoki avtonomiya” pyesasida adibning cheksiz g‘azab va nafratini qo‘zg‘agani uchun ham ular (ta’kid bizniki) insoniy ismga loyiq ko‘rilmay, “T domla”, “J domla”, “S domla” singari nomlar bilan atalgan” [6, 28]. Dramaturg personajlarning o‘ta omiligi, savodsizligi, kaltafahmligini ko‘rsatish uchun ham ataylab shunday qilgan, ularga bo‘lgan g‘azab va nafratini shu yo‘sin bildirgan. Demak, mazkur obrazlar o‘z davri uchun tipik hodisa hisoblangan. Mazkur dramatik asarda faqat bosh harflarning o‘zini keltirish bilan qahramonlarning nomlanishida ham ramziy ma’no borligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Xulosalar. Qadimiy og‘zaki san’at turi hisoblangan askiyada askiyachilarning nomlariga qo‘shib aytilgan laqablardan ham hajviy-yumoristik real kulgi keltirib

chiqarilgan. Ba'zan ism o'rnida to'g'ridan-to'g'ri "kal", "ko'r", "eshak", "novcha", "pakana", "qishloqi" kabi laqablar qochirim tarzida berilib, xalqqa yetkazilgan. Ayniqsa, orqadan gapirilganda laqabning o'zi ismning o'rnida ishlatilgan.

Dramatik asarlarda esa muallif salbiy yoki ijobiy munosabatini personajlarning nomlanishi orqali ko'rsatishga erishadi. Biz yuqorida bu holatni misollarda ko'rsatib berishga urindik. Demak, o'zbek xalq askiya san'ati va dramatik asarlarda onomastikaning ham alohida o'rni borligi shubhasizdir.

Adabiyotlar

1. Мухаммадиев Р. Аския. – Тошкент, 1962.
2. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. 3-сон.
3. О'zbek adabiyoti. 8-sinf uchun. Darslik-majmua. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Қаҳҳор А. Асарлар. Беш жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
5. Мо'minov S. О'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. – Farg'ona: Classic, 2021.
6. Tafakkur. Ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2021, 2-son.

ONOMASTIK LINGVOPOETIKA

BADIY MATNDA LAQABLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI

Abatov Doston Ro‘zimurod o‘g‘li

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Qarshi davlat universiteti

dostonabatov1997@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matndagi Mirvali chatoq, Multfilm polvon, Ishton polvon, Qiz polvon, Hez polvon, Suvto‘ra, O‘ris mirob, Cho‘tir mirob, Yog‘och polvon, Umarali paratka, To‘pponcha polvon, O‘rik domla, Xira pochcha, To‘lanmo‘ylov, Jinoyat oqsoqol, Echki, Tuya, Tuya amaki, It, Qora amma, Mahmudbukur, Sepkilli xola, Hayda shamol, Huri satang, Muborak chevar, Naimsartarosh, Isroil mo‘ylov, Qalandar Qarnoqiy, Neko‘zbibi, Hindubek, Temur Samarqandiy kabi laqablarning qo‘yilish sabablari, lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, laqablar antroponimikaning tarkibiy qismi ekanligi hamda tadqiqot xulosalaridan badiiy matndagi laqablarning lingvopoetik va lingvomadaniy tadqiqini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi, laqablarning xilma-xil ma‘noda qo‘llanishi keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: laqab, lingvopoetika, antroponim, onomastika, poetonim, ism, asliy laqab, ikkinchi ism, nisbiy laqab, o‘xshatma laqablar, kasb-hunar bilan bog‘liq laqablar, shaxsning jismoniy kamchiliklari motiv bo‘lgan asliy laqablar.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ ПРОЗВИЩ В
ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ**Абатов Достон Рузимурод угли**

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Каршинский государственный университет

dostonabatov1997@gmail.com

Аннотация. В данной статье раскрываются и обсуждаются причины и лингвопоэтические особенности таких прозвищ, как Мирвали чаток, Мультфильм палван, Иштон палван, Киз палван, Хез палван, Сувтура, Урис мираб, Чутир мираб, Ягач палван, Умарали паратка, Туппонча палван, Урюк домла, Хира почча, Тулан усатый, Оксакал преступник, Эчки, Туя, Дядя-

верблюды, Собака, Чёрная тетья, Махмуд Горбун, Веснушчатая тетья, Хайда ветрило, Хури Сатанг, Мубарак-Искусница (Чевар), Наим Парикмахер, Исраил усатый, Каландар Карнаки, Некозбиби, Хиндубек, Темур Самарканди. Также отмечается, что прозвища являются компонентом антропонимики и что выводы исследования могут быть использованы при реализации лингвопоэтических и лингвокультурологических исследований прозвищ в художественных текстах, а прозвища используются по-разному.

Ключевые слова: прозвище, лингвопоэтика, антропоним, ономастика, поэтоним, имя, оригинальное прозвище, второе имя, относительное прозвище, сходные прозвища, прозвища, связанные с профессией, оригинальные прозвища, прозвища, мотивированные физическими недостатками человека.

LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF NICKNAMES IN ARTISTIC TEXT

Abatov Doston Ruzimurod ugli

doctor of philosophy in philology (PhD)

Karshi State University

dostonabatov1997@gmail.com

Annotation. In this article, Mirvali chatoq, Cartoon wrestler, Ishton wrestler, Girl wrestler, Hez wrestler, Suvtora, Oris mirab, Chutir mirab, Wooden wrestler, Umarali paratka, Pistol wrestler, Orik domla, Khira pochcha, full moustache, criminal elder, door, camel, camel uncle, dog, black aunt, Mahmud bukur, freckled aunt, Hayda zahal, Huri Satang, Mubarak Chevar, Naim barber, Israel moustache, Qalandar Qarnaqi, The reasons for nicknames such as Nekuzbibi, Hindubek, Temur Samarkandi, and linguopoetic features are discussed. Also, it is mentioned that nicknames are a component of anthroponymics and that research conclusions can be used in the implementation of linguopoetic and linguocultural research of nicknames in artistic texts, and nicknames are used in different ways.

Keywords: nickname, linguopoetics, anthroponym, onomastics, poetonym, first name, original nickname, second name, relative nickname, similar nicknames, nicknames related to profession, original nicknames that are motivated by physical defects of the person.

Kirish. Tarixiy va badiiy asarlar matnidagi antroponimlar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda kishi nomlarining lug‘aviy-ma’noviy guruhlarini tarixiy shaxs nomlari; laqablar; badiiy qahramon nomlari; mifik va diniy-situativ nomlar tashkil

etishi qayd etilgan. Badiiy matnda laqablar asar qahramonlarini tavsiflash, ularga xos ayrim belgi-xususiyatlarni ifodalash, kitobxon hissiyotiga ta'sir qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun ham laqablarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Asosiy qism. Professor E.Begmatovning antroponimlarga bag'ishlangan monografik ishida laqablarga katta o'rin berilgan. Olim laqablarning tilshunoslik fanida o'rganilish tarixi, laqablarning mohiyati va ta'rifi, ism va laqablarning o'zaro munosabati, ularning o'xshash va farqli tomonlari hamda tor yoki keng ma'noda tushunish masalasi, ularning tasnifi singari muammolar xususida fikr yuritadi.

Jumladan, olim laqablarning tasnifiga to'xtalar ekan, ularni dastlab ikki guruhga ajratadi:

1. Asliy laqablar.
2. Nisbiy laqablar.

Bundan tashqari, o'zbek tili tarixidagi va hozirgi tildagi laqablar materialiga tayangan holda quyidagicha tasnif etilganini kuzatamiz:

1. Shaxsning jismoniy kamchiliklari motiv bo'lgan asliy laqablar.
2. Kishilarning xarakteri va harakatidagi tipik xususiyatlarga ishora qiladigan laqablar.
3. O'xshatma laqablar.
4. Shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog'liq nisbiy laqablar.
5. Shaxsning qaysi urug', qabila yoki millatga tegishli ekanini ko'rsatuvchi nisbiy laqablar.
6. Shaxsning amal va unvoniga nisbat berilgan laqablar.
7. Diniy ma'noli nisbiy laqablar [1. 60-66].

Har bir yozuvchi o'zi yozgan asarlarining jonli chiqishi uchun asar qahramonlariga xarakteri, kasb-kori yoki birorta individual xususiyatidan kelib chiqib laqab tanlaydi. Badiiy matnda laqablar yozuvchining aytmoqchi bo'lgan fikrini oydinlashtirish bilan birga matnning ko'pqatlamliligini yuzaga chiqarishga ham xizmat qiladi.

Hajviy asarlar ustasi hisoblangan S.Ahmad ohori to'kilmagan, xalqchil laqablarni yaratadi va bu laqablar asar qahramonlarini u yoki bu tomondan tavsiflash, ularga xos ayrim belgi-xususiyatlarni ifodalash, kitobxon hissiyotiga ta'sir qilishda muhim lingvopoetik vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, S.Ahmadning "Jimjitlik" romani qahramoni Mirvalining laqabi "*chatoq*" bo'lib, u juda qitmir va ishkalsiz yashay olmaganligi uchun ham yozuvchi bu laqabni Mirvaliga qo'yadi. Bu laqab Mirvaliga juda mos qo'yilganini romandan olingan quyidagi parchalardan ham bilib olishimiz mumkin. *Aytgan gapini qilmay, uraman deganini urmay qo'ymasdi. Xullas, Tolibjon yoshlik*

paytlarini ko‘z oldiga keltirib, Mirvalining oqsoqlanmagan, timdalanmagan, peshonasi g‘urra bo‘lmagan paytini eslolmadi. Undan tashqari, mushtdek boshi bilan urgutlik bir tojik qizni yaxshi ko‘rib qolib, dovon oshib, hadeganda o‘sha yoqqa ketib qolaverardi. O‘z qishlog‘idan nariga qiz bermaydigan urgutlik tojiklarga uning bu bema‘niligi malol kelganidan bir-ikki ushlab olib kaltaklashgan edi. O‘shanda ham Mirvali tovba qilmagan. Ertasiga oy endi ko‘tarilgan pallada o‘sha qizni opqochib kelgandi [2.25].

Yoki:

Mirvalining “hozir kartinka ko‘rasanlar” deb, Razzoq buqachining itini tiriklay yoqib yuborishi, usta Dolimning mushugining ikki ko‘ziga mix qoqishi bilan bog‘liq voqealar ham *chatoq* laqabining o‘rinli tanlanganini ko‘rsatib turibdi.

“Jimjitlik” romanida Multfilm polvon, Ishton polvon kabi yengil kulgi qo‘zg‘aydigan laqablar ham uchraydi va ijodkor bu laqablarning izohini ham keltiradi.

– *Rajab polvonga bormi talabgor. Multfilm polvonga talabgor bo‘lsa, davraga chiqsin!*

Buxorolik Istam polvon o‘rtaga chiqdi. U gavdali, muskullari terisini turtib chiqqan baland bo‘yli polvon edi. Bu polvonda kuch ko‘p-u hunar yo‘q edi. U davrada ko‘pam xadis olib yurmasdi. Shartta ko‘tarib urar, yo ustidan chiqar, yo tagiga tushganini bilmay qolar edi.

Ikkala polvon xadis olib, bir-birini sinab, davrani bir aylanishdi. Rajab polvon raqibini g‘aflatga solib, bir ko‘tarisha yerga urmoqchi bo‘ldi. Yo, pirim, deb ko‘tarishga chog‘landi. Istam polvon yerga mixlab qo‘yilgandek qotib turaverdi. Ana shundan keyin Rajab polvon bor kuchini yig‘ib bir hamlada yerdan uzmoqchi bo‘ldi.

– *Yo, pirim!*

Shunda kutilmagan voqea yuz berdi. Ya‘ni, Rajab polvonning ishtonbog‘i chirt etib uzildi-ketdi. Buni Istam polvon sezdi. Uni shartta ko‘tarib chirpirak qilib aylantira boshladi. Rajab polvonning ishtoni tizzasigacha tushdi. Yana shitob bilan aylantira boshladi. Ishton endi to‘piqqacha tushgan edi. Istam polvon yanada tez aylantira boshladi. Ishton to‘piqdan uchib chiqib, hakamlar yoniga borib tushdi. Istam polvon ishtonsiz raqibini hamon aylantirar edi.

Bakovul zo‘r bilan ularni to‘xtatdi. Ikkovining ham boshi aylanib, o‘rtada mastga o‘xshab chayqalib-chayqalib arang turishardi. Rajab polvon qo‘l siltab, davradan chiqib ketdi.

Ana shu voqeadan keyin uning Rajab polvon oti Ishton polvon bo‘lib ketgan edi [2.278].

Ba'zan badiiy matnda qahramonga suhbatdoshlari tomonidan piching qilinishi, laqabi orqali shaxsiyatiga tegilishi kuzatiladi. *Makritlik Nizom polvon desa hamma tanirdi. U Urgutda bo'lgan katta bir kurashda Panjikentdan kelgan bir ayol polvon bilan kurashib, uni yengolmagach jirkanch bir ishga qo'l uradi. Ana shundan keyin Nizom polvonning nomi Qiz polvon bo'lib ketdi. Davralarda o'rtaga tushsa, chiq, chiq davradan, ayollar bilan kurashga yaraysan, qiz polvon bilan kurashmaymiz, deb chiqarib yuboradigan bo'lishdi* [2.265].

Badiiy matnda bir qahramonning birdan ortiq laqabi bo'lishi ham mumkin. Masalan, "Jimjitlik" romani qahramoni Nizom polvonning *Qiz polvon* laqabidan tashqari *Hezalak polvon*, *Hez polvon* kabi laqablari ham mavjud bo'lib, bu laqabning qo'yilish sababi quyidagicha:

– *Talablaringizni qondiramiz. Hozir "Qiz polvon" laqabli Nizom polvon Azim o'g'li bilan panjikentlik polvon opa Habiba Bobodo'stovalarni davraga chaqiramiz, marhamat...*

U ikki raqibni bir-biri bilan qo'l olishtirib, kurash boshlandi, dedi.

Nizom polvon xotirjam edi. Ammo Habibaning yuzida, ko'zida, holatida qandaydir g'azab, o'ch olish hissi sezilib turardi.

Bakovul, omin, deb yuziga fотиha tortdi. Olishish boshlandi. Yana ikki eski raqiblar betma-bet kelishdi.

Habiba polvon Bobodo'stova Nizom polvonning qo'lidan ushlab bir siltagan edi, bag'riga kelib tushdi. Uni azot ko'tarib, xuddi tosh o'ynaydigan polvonlardek boshidan ikki qarich baland ko'tarib, yag'rin tomoni bilan yerga tashladi. Zarb bilan tushgan Nizom ingrab yubordi. Habiba fursatni boy bermay, ikki yelkasini yerga qapishtirib, tizzasini bilan uning "nozik joyini" eza boshladi. Jon-jahdi bilan, kuchining boricha ezaverdi. Nizom polvon jon taslim qilayotgandek ovozi sekin-sekin o'cha boshladi.

Bakovul ular tepasiga keldi.

– *singlim, bas qil. Insofing bormi, o'ldirib qo'yasan-ku. Habiba uning gapiga quloq solmadi. Oxiri Nizom polvonning ovozi o'chdi. Uni ikki yigit zambarda opchiqib ketayotganda Habiba dedi:*

– *Tu endi mard nesti, tu endi hezalak (Sen endi erkak emassan, hezalaksan). Seni hamma Qiz polvon deyardi. Endi hez polvon bo'lding, nomard, – dedi-yu, davradan chiqib ketdi* [2.267].

Ayrim laqablar qahramonning kasb-koriga ishora qilish bilan birga uning butun xatti-harakatini o'zida aks ettira oladi, natijada laqab aniq antroponom darajasiga ko'tarilib, qahramonning asl ismini qo'llashga hojat qolmaydi. S.Ahmadning "Ufq" romanidagi qahramon nomi shunga misol bo'la oladi. Asli ismi *Filip* bo'lgan bu inson xalq orasida ko'plab suv inshootlarining qurilishiga va ta'mirlanishiga rahbarlik qilganligi uchun ham *Suvto'ra*, *O'ris mirob* laqablari bilan mashhur bo'ladi. Bu

laqabning mohiyati asarda “Katta Farg‘ona kanali”ning qurilish jarayonida butun fikr-u zikri kanal qazilishini muvaffaqiyatli yakunlash, ko‘plab hududlarga suv olib borib, cho‘llarni yashil vodiya aylantirishda bo‘lgan injenerning o‘z kasbiga muhabbati orqali ochib berilgan.

O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani qahramoni Aliga “qushchi” laqabining berilishi ham uning kasbi bilan bog‘liq edi. Asarda bu laqab quyidagicha izohlanadi:

Navkarlardan biri qorong‘ida betoqat depsinib turgan arg‘umoqni ro‘para qilib, qo‘ltig‘idan oldi. Lekin Ali Qushchi uzangini topib, tipirchilab turgan otga o‘zi sapchib mindi-da, jilovini qo‘liga oldi: u “qushchi” nomini bekorga olmagan, a’lohazratlari bilan ovga chiqqan paytlarida, ne-ne asov tulporlarni jilovlab, bir lahzada o‘ziga o‘rgatib olardi [5.6]!..

S.Ahmad “Ufq” romanida *Cho‘tir mirob (yuzi cho‘tir bo‘lgani uchun), Yog‘och polvon (kurashda hech kim uning belini bukolmagani uchun shunday laqab berilgan), Umarali paratka (kiyinishidan tortib har bir ishini tartib bilan bajargani uchun), To‘pponcha polvon (berilgan topshiriqni bir zumda bajaradigan, chapdast qahramon), O‘rik domla (yonidagi suhbatdoshiga faqat o‘rik mavzusida gapiradigan qahramon), Xira pochcha (ayollarga o‘ch qahramon), To‘lan mo‘ylov, Jinoyat oqsoqol* kabi original nomlarni yaratgan. Bunday nomlar asarning hayotiy chiqishini ta’minlash bilan birga qahramonlarning muayyan xarakterini yoritishda ijodkorning ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalashga ham xizmat qilgan.

S.Ahmadning “Ufq” romanida izohsiz qo‘llangan laqablar ham uchraydi. Kitobxon bunday laqablarning izohini kutmasligi ham mumkin, chunki o‘sha laqab haqida uning lisoniy tasavvurida muayyan ma’lumot mavjud bo‘ladi. Masalan, *echki* laqabli qahramonning, *echkiga o‘xshab jag‘i-jag‘iga tegmay shang‘illashi* haqida tasavvurimiz mavjudligi uchun ortiqcha izoh talab qilmaymiz. Ijodkor ham bunday holatlarda so‘zni tejash maqsadida ortiqcha tafsilotga berilmaydi: *“Eski haqqulobodlik Echki laqabli askiyachi chol ming‘irlab-ming‘irlab turib birdan mo‘ljalga urdi” [3.205].*

Badiiy matnda laqablar askiyani, o‘tkir hazil-mutoyibani yuzaga chiqarish uchun ham xizmat qilishi mumkin. Quyidagi parchada *“Tuya”* va *“Ko‘r”* laqablari askiyaga olingan. *Yusupov bilan Oxunboboyev o‘zaro askiya qilib turishardi. Ularning laqablaridan Usmonxo jayevning xabari bor edi. Ismi buzruk bo‘lgani uchun uni ham “Tuya” laqabi bilan atashardi. Oxunboboyevniki ham shunaqa edi. Yusupov Usmonxo jayevga qarab bosh barmog‘i bilan tahdid qildi.*

– *Eshon, Yo‘ldosh akam qirq kungacha suvsizlikka chidaydi, demoqchimisan?*

Usmonxo 'jaye'v gap kelganda otangni ham ayama, degan qabilda tilga kelganni shartta aytadiganlardan edi. Yusupovning o'zini ham askiyaga ilintirib o'tdi.

– Endi bu bechora ham nima qilsin, to ho'k, demaguncha ichmaydi-da.

Teshaboy Mirzayev Usmonxo 'jaye'vga yeb yuborgudek bo'lib qaradi. Sekin qulog'iga pichirladi. “Shundoq odamga askiya qilasanmi, nodon!”

Bu gapni Yusupov eshitib qoldi.

– Hoy, Teshavoy unaqa dema, Eshon hammani bir ko'zda ko'radiganlardan.

Qiyqiriq kulgi bo'lib ketdi. Teshavoy Mirzayevning bir ko'zi sal qisiroq bo'lganidan tengdoshlari askiyada “Ko'r” deb atashardi [3.204-205].

O'.Hoshimov asarlaridagi qahramonlarning laqablari ham xalqchil va kitobxonni voqelikka olib kirishda alohida ekspressiv vazifani bajara oladi. Jumladan, yozuvchining “Dunyoning ishlari” qissasida *Mahmud bukur* (jismoniy kamchilikka ega bo'lgan, ya'ni bukri bo'lgan qahramon), *Sepkilli xola* (yuzida sepkillari ko'p bo'lgan qahramon, asl ismi Sharofat bo'lsa-da, uni hech kim bu ism bilan chaqirmasdi. Hamma uni laqabi bilan *Sepkilli xola* deb atashardi), *Haydar shamol* (arzimagan voqea uchun ham tezda qizishib ketganligi uchun shunday laqab berilgan), *Huri satang* (pardoz-andozga, kiyinishga zeb bergan qahramon), *Muborak chevar*, *Naim sartarosh* (kasbiga ishora keltirilgan laqablar), *Isroil mo'ylov* (mo'ylov qo'yishga qiziqadigan va mo'ylovi bilan boshqalardan ajralib turadigan qahramon) kabi bir qator laqablar keltirilgan.

Badiiy matnda qahramonning muayyan xarakterini bo'rttirib tasvirlashda ismsiz laqabning o'zi, ya'ni ism o'rnida laqab qo'llanilishi ko'p uchraydi. Masalan, O'.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi qahramonlaridan biri *Kelinoyi* laqabi bilan ataladi, hatto asar davomida uning ismi umuman tilga olinmaydi. Laqab egasiga qissada quyidagicha ta'rif berilgan:

Ovozidan tanidim: qo'shnimiz Mo'min akaning xotini. Mo'min aka – ketmonchi. O'zi ham mo'mingina odam. Xotini boshqacharoq. Katta-yu kichik hamma uni kelinoyi deb chaqiradi. Kelinoyining qiziq odati bor. Ichida gap yotmaydi. Uyida qaysi sholchasiga xokandozdan cho'g' tushib qancha joyi kuygani, qaysi o'g'li sholg'omni yomon ko'rishi, qaysi qizining sochiga sirka oralagani – hammasini birpasda mahallaga yoyib chiqadi [4.46].

O'.Hoshimovning “Ikki eshik orasida” romanida ham yuqorida ta'kidlanganidek ismsiz laqab uchraydi. Masalan, asarda *Pochcha* laqabli obraz mavjud bo'lib, uning asl ismi biror marta tilga olinmaydi. Romanda ta'kidlanishicha, Bashoratning o'zi kuyovni uyiga boshlab kelgani va Bashorat bilan oila qurgan bu yigit ichkuyov bo'lib yashaganligi uchun ham uni *Pochcha* laqabi bilan chaqirishgan.

“Ikki eshik orasi” romanida *Qora amma* (rangi qop-qora bo‘lgan xotin), *Tuya amaki* (bo‘yi uzun bo‘lgan qahramon), *It* (it muchalida tug‘ilgan, shuningdek, xarakteridan kelib chiqib berilgan laqab) kabi ismsiz laqablar ham qo‘llangan.

Ba’zi laqablar shaxsning tug‘ilib o‘sgan hududiga nisbat berish orqali ham qo‘yilishi mumkin. Masalan, *Qalandar Qarnoqiy* (“Ko‘hna dunyo”), *Neko‘zbibi* (“Sohibqiron” dramasi), *Hindubek* (“Yulduzli tunlar”), *Temur Samarqandiy* (“Yulduzli tunlar”).

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, badiiy matnlarda uchraydigan laqablarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish orqali laqablarning turli so‘z o‘yinlarini hosil qilish va asarning xalqchil chiqishida muhim ahamiyat kasb etishi oydinlashdi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida yaratilgan roman, qissa, drama, hikoyalar matnidagi laqablarni alohida-alohida tadqiq etish ehtiyoji mavjud bo‘lib, bu tilshunoslarimiz oldida turgan galdagi vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
2. Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: Sano-standart, 2016. – 336 b.
3. Саид Аҳмад. Уфқ / Қайта нашрга тайёрловчи Хусанходжаева Нодира Саид Аҳмад қизи. – Т.: Сано-стандарт, 2015. – 632 б.
4. О‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – 336 b.
5. O.Yoqubov. Ulug‘bek hazinası. – Toshkent, 2018. – 432 b.
6. Ўткир Ҳошимов. Икки эшик ораси. – Т., 2019. – 544 б.
7. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. Uchinchi nashri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 656 b.
8. Абдулла Орипов. Сайланма. 1-3 жилд. – Тошкент: Гафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.

ANTROPONİMİKÄ

ЦВЕТООБОЗНАЧЕНИЯ В ТАТАРСКОЙ АНТРОПОНИМИИ

Галиуллина Гульшат Раисовна

доктор филологических наук, профессор, заведующая кафедрой
Татарского языкознания Казанского федерального университета

Казань, Россия

caliullina@list.ru

Аннотация: В статье анализируются татарские антропонимы, в составе которых употребляются прилагательные, обозначающие оттенки цветов. На основе отдельных приемов описательного, сравнительно-исторического, семиотического и герменевтического методов, сделана попытка описания репрезентации культуры в личных именах с компонентами *ак* (белый) и *кара* (черный). В результате анализа мы пришли к выводу, что антропонимическая картина мира отражает самые важные аспекты культуры и истории, мировоззрения и психологии татарского народа. В семантике «цветных» имен обнаруживаются скрытые информационные пласты архаичного мифологического мышления. Древние наивные представления тюрков транслировались и в ономастикон татар. В татарском антропонимиконе анализируемые имена употреблялись как в прямом значении при характеристике физических свойств ребенка, так и во вторичной номинации в качестве имен-пожеланий. «Цветные имена» в настоящее время рассматриваются как единицы исторического антропонимикона, однако они сохранили свои знаковые функции в топонимическом пространстве.

Ключевые слова: татарский язык, личное имя, исторический антропонимикон, цветообозначение, антропоним, ономастика.

TATAR ANTROPONIMIYASIDA RANG BILDIRUVCHI NOMLAR

Galiullina Gulshat Raisovna

filologiya fanlari doktori, professor

Qozon federal universiteti Tatar tilshunosligi kafedrası mudiri

Qozon, Rossiya

Annotatsiya. Maqolada ranglarni anglatuvchi sifatlar asosida tatar antroponimlari tizimi tahlil qilinadi. Tasviriy, qiyosiy-tarixiy, semiotik, germenevtik metodlar usullari asosida oq va qora komponentli kishi ismlari tasviriy ifoda qilishga harakat qilingan. Tahlil natijalaridan ayon bo‘ldiki, antroponimiya dunyosi tatar xalqining madaniyati va tarixi, dunyoqarashi va psixologiyasining eng muhim aspektlarini namoyon etadi. Ismlarning “rang” semantikasida arxaik mifologik dunyoqarashning yashirin axborot qatlamlari mujassam. Turklarning qadimgi sodda qarashlari tatar onomastikasi leksikasida ham aks etadi. Tahlil etiladigan nomlar tatar antroponimikasida ham o‘z ma’nosida, ya’ni bolaning jismoniy xususiyatlarini ta’riflash, hamda ism-tilak ma’nosida ham qo‘llanilgan. “Rang anglatuvchi ismlar” hozirgi kunda tarixiy antroponimikaning birliklari sifatida o‘rganiladi, biroq ular o‘zlarining belgi funksiyalarini toponimik makonda saqlab qolganlar.

Kalit so‘zlar: tatar tili, kishi ismi, tarixiy antroponimikon, rang-tus anglatuvchi, antroponim, onomastika.

THE COLOR DESIGNATION OF TATAR ANTROPONYMY

Galiullina Gulshat Raisovna

Doctor of Philology, Professor

Head of the Department of Tatar Linguistics

of Kazan Federal University, Kazan, Russia

caliullina@list.ru

Annotation. The article analyses Tatar anthroponyms with adjectives denoting shades of colours. On the basis of individual techniques of descriptive, comparative-historical, semiotic and hermeneutic methods, an attempt is made to describe the representation of culture in personal names with the components ak (white) and kara (black). As a result of the analysis we came to the conclusion that the anthroponymic picture of the world reflects the most important aspects of culture and history, worldview and psychology of the people. The semantics of ‘coloured’ names reveals hidden information layers of archaic mythological thinking. The ancient naive ideas of the Turks were also transmitted into the onomasticon of the Tatars. In the Tatar anthroponymicon, the analysed names were used both in direct meaning when characterising the physical properties of a child, and in secondary nomination as wish-names.

Keywords: Tatar language, personal name, historical anthroponymicon, colour designation, anthroponym, onomastics.

Введение. Ономастика представляет неотъемлемую часть фоновых знаний носителей языка и культуры, где отражаются история народа, духовные ценности, верования, освоение данной территории и взаимосвязь с другими этносами, которые живут по соседству испокон веков. Из всех групп ономастической лексики именно ядерные разряды сохранили наиболее полную информацию о прошлой истории и культуре народов. Они являются своего рода памятниками, в которых отражается общественная история этноса, прослеживается специфика знаковой системы и динамика языковых закономерностей.

Одним из символов историко-культурного прошлого тюрко-татарского народа являются «цветные» онимы, которые сохранились в историческом антропонимиконе или же в качестве названий населенных пунктов. Следует подчеркнуть, что в рамках данной статьи мы акцентируем внимание на антропонимах с «цветными» компонентами, которые употреблялись в именике татар и сохранились в составе фамилий и топонимов. Мы полагаем, что истоки образования таких онимов восходят к анимистическим верованиям тюркского народа. Это гипотеза возникает из лингвокультурологических характеристик, закреплённых в семантике, структуре антропонимов. В нашей статье постараемся обосновать данный тезис на примере исторического ономастикона татарского народа. Объектом анализа выступают сложносоставные личные имена одним из компонентов которых являются прилагательные, обозначающие цвет в татарском языке.

В работе используется комплекс методов и приемов, в частности, описательный метод для анализа фактического материала, отдельные приемы сравнительно-исторического при рассмотрении функционирования анализируемых имен в различных исторических периодах, семиотического и герменевтического методов при описании репрезентации культуры в личных именах.

Основная часть. Обожествление природы, характерное для первобытной поры, проявлялось в верованиях, культах, обрядах, поклонениях. Индивид отражает свое видение, понимание мира, окружающей действительности в языковых символах, какими являются онимы [3: 64]. Мифологическое сознание народа отражает наивную мифологическую картину мира, возникающую в результате бытовых контактов древнего социума с миром, представленным как глобальный образ мира. Несомненно, в центре этого образа находятся религиозные представления наших предков, которые непосредственно возникли в процессе познания окружающей действительности. Главной особенностью анимизма является персонификация древними людьми окружающей действительности. Персонификация мира способствовала

появлению метафоры в языке. Ассоциации, вызванные в результате сравнения, сопоставления предметов, явлений, позволили видеть схожие элементы между ними, и постепенно, кроме денотатного значения, в языке появляются и другие значения слова. Как уже было отмечено, большинство «цветных» онимов появились в результате вторичной номинации. Хотя нельзя исключить и функционирование в прямом значении, когда прилагательное употребляется при характеристике внешних признаков человека.

Подробно остановимся на двух базовых цветах – белом и черном и попытаемся описать их специфику проявления и функционирования в антропонимической подсистеме татарского языка.

Онимы, в составе которых употребляется прилагательное *ак* (белый), по нашим представлениям, отражают древние верования. В первую очередь белый цвет ассоциируется с дневным светом, жизнеутверждающим началом, благополучием, неземной чистотой. У древних тюрков и болгар цветами Тэнре, имеющими оберегающую силу, считались белый, голубой. Большинство личных имен, в составе которых формант *ак* употреблялся как в прямом, так и переносном значениях, описывают внешние особенности индивида, например, *Акбаиш*, *Аккаиш*, *Аксакал* и другие. Имена с данным компонентом довольно часто встречаются в письменных памятниках до конца XVIII века.

Онимы с компонентом *ак* являются древними. В период проживания древних тюрков на территории Саяно-Алтайского региона, в результате языковых контактов прототюркских и протомонгольских племен, онимы с компонентом *ак* проникли в другие языки.

Следует отметить, что прилагательные не всегда употребляются в денотативном значении. Многозначность анализируемого прилагательного была зафиксирована еще в древнетюркском языке. В.В. Радлов указывает, что у тюркских народов слово *ак* употребляется в нескольких значениях: 1) белый, 2) чистый, несмешанный, 3) добродушный, чистосердечный, невинный [5: 259]. В результате различных ассоциаций они использовались для обозначения разных признаков, в том числе являлись символом верховного бога. Собственные имена с компонентом *ак* отражают ранние воззрения людей, их мировосприятие, которые соотносятся с мифологическим периодом в жизни древнего общества, где доминировало ассоциативное восприятие окружающего мира. Белый цвет присущ эпитету богов, выражает божественность, святость, мудрость, опыт, принадлежность к высшему слою общества: *Акморза*, *Акчура*, *Акби*, *Актуган*, *Аппак*, *Акбикэ*, *Акбикэч* и другие [7: 42-43]; в татарских шеджере сохранились имена, относящиеся к XVI веку: *Аккына*, *Аккучкар*, *Аккош би* [2], *Ак дэрвиш*, *Акчурак бий* [8: 217].

Традиция символического употребления компонента *ак* в составе личных имен продолжалась довольно долго. В документах, относящихся к XVII – XVIII векам, еще встречаются имена с компонентом *ак*: *Акко (Кудабердеев), Акмамэт (Клевлеев), Аксолтан, Аксэит (Чюрин), Акчура (Маметов)* [9: 205], *Ракай Акбаши улы, Акбирде* [10: 287]. Имена с данным компонентом сохранились и на эпитафических памятниках, например, на надгробье 1689 года зафиксировано имя мастера, надписавшего камень *Аккузад (Аккучат)* [1].

На особую популярность имен с вышеназванным компонентом указывает большое количество антропонимических единиц, сохранившихся в составе татарских фамилий: *Аккузин, Аксакалов, Акбашев, Аккашев, Аппаков, Акчаров* и др.

Эти единицы, хотя и вышли из употребления в качестве личного имени, но сохранились в топонимии татарского языка. Часть личных имен продолжала свое существование в качестве названия населенного пункта, например, село *Аппаково* в Альметьевском районе РТ, населенные пункты *Акъяр, Акбаши, Аклыш* в Пермской области и другие.

В современном антропонимиконе татар имена с компонентом *ак* не употребляются. В результате анализа материалов Управления ЗАГС Республики Татарстан и нашей базы личных имен за 2010-2022 гг., мы нашли единичные случаи употребления таких имен: мужские имена древнетюркского происхождения *Актай, Акбулат* и женское имя-новообразование *Акчэчэк*.

Знаком Земли считается черный цвет. «Цветовые» имена и названия существуют в ономастической системе многих народов, где черный цвет также относится к цвету земли, хотя семантическое поле данной ономолексеми включает в себя и такие понятия, как «дурной, темный»; «грозный, сильный, могучий»; «северный». Необходимо отметить, что в традиционной культуре семиотическая нагрузка черного цвета связана с его негативной психологической оценкой [3: 112].

В древнетюркском языке слово «*кара*» имело несколько значений: 1) черный цвет; 2) темный, лишенный цвета; 3) злостный, злополучный; 4) плохой, скверный, грозный, сильный, могущественный; 5) земля, почва и др. [4: 423]. Там же отдельной статьей представлено употребление данной лексеми в качестве ономастической единицы [там же: 424].

В семантике имяобразующего компонента *кара* прослеживаются преобладание таких сем как 'множество', 'богатство', 'главный', 'великий'. Как указывает Г.Ф. Саттаров, в имяназвании используются мотивированные значения «богатство», «множество» и прямое значение «чёрный» – для обозначения внешних признаков ребёнка [7: 106]. Развивая высказанное Г.Ф. Саттаровым, можно предположить, что основные значения, служащие

мотивами в имянаречении, связаны с мифологическим мышлением тюрков, для которых Земля – лоно, приносящее богатство, плодородие.

В языке современных татар активно употребляется словосочетание *Жир-ана* (Земля – мать), ассоциирующееся с женским началом. По верованиям, Земля опекает людей, оберегает, обеспечивает питанием, дарует жизнь, богатство, что отражено в ономастической языковой картине тюрко-татар. Мы допускаем, что включение в антропосистему форманта *кара* в определенной степени связано с вышесказанным. Семантика личных имен, употребляемых в исторической антропонимиконе, отражает разные аспекты древних верований: *Карабай, Карашай* [2: 71], *Байкара* [10: 37], *Каранай, Каратай, Караташ, Каратимер, Карахан* [6 : 182-186] и мн. др. Они сохранились и в топонимии Республики Татарстан в качестве ойконимов: *Карабай, Карабаш, Карадуган, Каразирек, Каратун, Карашира, Каратал, Каракүл, Карашай-Саклау* и др.

Выводы. Имя собственное имеет богатый внутренний ресурс номинации. Оно обладает способностью накапливать в своем денотате экстралингвистическую информацию, которая в результате логических процедур анализа и обобщения становится частью семантики имени собственного. В вышеприведенном кратком обзоре мы попытались показать общую культурную семантику двух основных цветообозначений, которые сохранились в антропонимическом пространстве татарского языка. В татарском историческом антропонимиконе эти личные имена употреблялись как имена-описания, так и в качестве имен-пожеланий. Выпав из антропонимической системы, они сохранили свои знаковые функции в топонимическом пространстве.

Литература:

1. Ахметзянов М.И. Из истории края. Надгробные памятники / М. И. Ахметзянов. // г. Мензеля. Газета Мензелинского районного Совета народных депутатов. – 1993. – 5 января. – №2 (8396) // <http://tashlar.narod.ru/text/ahmetzanov-minzele.htm> (дата обращения: 23.10.2024)
2. Әхмәтҗанов М. Нугай урдасы / М. Әхмәтҗанов. – Казан: Мәгариф нәшр, 2002. – 341 б.
3. Галиуллина Г.Р. Татарские личные имена в контексте лингвокультурных традиций / Г. Р. Галиуллина. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2008. – 349 с.
4. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.

5. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий В.В. Радлова. Т.1. – СПб. – М., 1963. – 969 с.
6. Сагтаров Г.Ф. Татар исемнәре: аңлатмалы сүзлек. – Казан: Татар. кит. нәшр., 2019. – 551 б.
7. Сагтаров Г.Ф. Исемен матур, кемнәр куйган? / Г.Ф. Сагтаров. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1989. – 256 б.
8. Усманов М.А. Жалованные акты Джучиева Улуса XIV-XVI вв. / М. А. Усманов. – Казнь: изд-во Казанского ун-та, 1979. – 317 с.
9. Писцовая книга Казанского уезда 1602-1603 годов // Сос. Р.Н. Степанов. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 1978. – 239 с.
10. Хисамова Ф.М. Татарский язык в восточной дипломатии России (XVI – начало XIX вв.) / Ф.М. Хисамова. – Казань: Изд-во «Мастер Лайн», 1999. – 408 с.

ASMO UL-HUSNA VA O‘ZBEK ISMLARI

Xusanov Nishonboy Abdusattorovich

filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoyi nomidagi Toshkent davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

xusanovnishonboy@navoiy-uni.uz

Annotasiya. Maqolada nomshunoslikda o‘ziga xos kategoriya bo‘lgan teonimlar – Allohning ism va sifatlarini aks ettiruvchi atoqli otlarning xususiyatlari tahlil qilingan. O‘zbek tilidagi ko‘plab antroponimlarning yuzaga kelishi va nomlanishi bevosita teonimlarga – Allohning ism va sifatlarini aks ettiruvchi Asmo ul-Husna (أَسْمَاءُ الْحُسْنَى) ga bog‘liq. Asmo ul-Husnadagi الرحمن: Ar Rohman va الرحيم Ar-Rohim ismlarning transonimizatsiya usulida antroponimlarni hosil qilishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ism, teonim, transonimizatsiya, islom, nom, ma’no, tahlil, manba, antroponim, atoqli otlar, ism va sifatlar, Allohning ism va sifatleri, Asmo ul-Husna.

АСМО УЛ-ХУСНА И УЗБЕКСКИЕ ИМЕНА

Хусанов Нишонбой Абдусатторович

доктор филологических наук, профессор

Ташкентский государственный университет

Узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация. В статье проанализированы теонимы, которые являются специфической категорией в ономастике, отражающих имя и качества Аллаха. Возникновение и наименование многих антропонимов в узбекском языке напрямую связано с теонимами – АСМО уль-хусна (الْحَسَنُ الْأَسْمَاءُ), отражающими имя и качества Аллаха. В АСМО уль-хусне: الرحمن Ar Rahman и الرحيم AR-Rahīm выявляется, что имена образуют антропонимы методом трансонизации.

Ключевые слова: имя, теоним, транслитерация, ислам, имя, значение, анализ, источник, антропоним, имена собственные, имя и атрибуты, имя Аллаха и атрибуты, Асма уль-Хусна.

ASMO UL-HUSNA AND UZBEK NAMES

Khusanov Nishonboy Abdusattorovich

Doctor of Philology, professor

Tashkent University

Uzbek language and literature named after Alisher Navai

xusanovnishonboy@navoiy-uni.uz

Annotation. The article analyzes theonyms, which are a specific category in naming science – the characteristics of eminent nouns reflecting the name and qualities of Allah. The origin and name of many anthroponyms in the Uzbek language is directly related to the theonyms – ASMO ul-husna (الْحَسَنُ الْأَسْمَاءُ), reflecting the name and qualities of Allah. In ASMO ul-husna: الرحمن Ar Rahman and الرحيم AR-Rahīm, it is revealed that names form anthroponyms by the method of transonization.

Key words: Name, theonym, transliteration, Islam, name, meaning, analysis, source, anthroponym, eminent nouns, and adjectives, name and adjectives of Allah, Asma ul-husna.

Kirish. Tildagi har bir atoqli ot – nom nomshunoslik qonuniyatlari asosida rivojlansa-da, ularni o‘rganish va tahlil etishda turli fanlarning materiallaridan keng foydalaniladi. Atoqli otlarning tushunchani (ma‘noni) bildirmasligi va shartli belgi deb hisoblash, ko‘rinishlari va turlarini to‘liq o‘rganilmaganligi sababli ularning lisoniy xususiyatlari turdosh otlarnikiga qaraganda kam tadqiq etilgan. Atoqli otlar

majmui,yani “onomastik ko‘lam ma‘luo‘m bir xalq tilidagi real, gipotetik va xayoliy obyektlarni nomlash uchun qo‘llaniladigan atoqli otlar yig‘indisidir” [1,9].

Asosiy qism. O‘zbek nomshunosligida 22 ta onomastik ko‘lam tarkibi haqida ma‘lumot berilgan hamda mifoteonim mifonim tarkibiga kiritilgan [2,48] bo‘lsa-da, teonimlar maxsus tadqiq etilmagan. Teonimlarning tadqiq etilmaganligining asosiy sababi dunyoning diniy qiyofasi haqidagi qarashlarning etarlicha emasligi va metafizik fikrlashdir. N.V.Podolskaya onomastik terminlar lug‘atida “Teonim – Xudoning har bir panteondagi oti” [3,124] deb ataydi.

Nomshunoslikda muhim o‘rin tutuvchi teonimlar xorijiy va rus olimlarining ishlarida ular teonimlar, demonimlar,mifonimlar va boshqalarga ajratilib tasnif qilingan. O‘zbek nomshunosligida teonimlar quyidagicha mavzuiy guruhlariga ajratiladi: Alloh nomlari, payg‘ambarlar nomlari, farishtalar nomlari, islomda muqaddas hisoblanuvchi narsa, tushuncha nomlari [4,76]. Fikrimizcha, teonimlarning bunday tasnifi asosli va to‘g‘ri. Islom diniga oid muhim manbalarda Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) deb nomlanuvchi Allohning ismlarning ma‘no xususiyatlarini yoritish muhim ahamiyatga ega. Zero, faqat Allohning ism va sifatlari Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) bo‘lib qolmasdan paygambarlar va kishilarning ismlarini yuzaga kelishiga asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Allohning 99 ismi Asmo ul-Husna haqida Qur‘onning 4 surasida ma‘lumot berilgan.A‘rof surasi 180-oyatida “Allohning go‘zal ismlari bordir. Bas unga ular ila duo qiling” deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, Qur‘oni Karimning Hashr surasi 22-24 oyatlarida Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) dagi 13 ta ism keltirilgan: ar-Rahmon, ar-Rahim, al-Malik, al-Quddus, as-Salom, al-Mo‘min, al-Muhaymin, al-Aziz, al-Jabbor, al-Mutakabbir, al-Xoliq, al-Bori’, al-Musavvir.To‘ho surasi 8 oyatida “Allohdan o‘zga(hech qanday) Tangri yo‘q. Faqat uning o‘zi bordir. Uning uchun eng go‘zal ismlar bordir”, Isro surasi 110 oyatda “(Ey Muhammad), ayting: “Alloh deb chorlangiz, yoki Rahmon –“Mehribon”, deb chorlangiz. Qanday chorlangizlar-da joizdir. Zero, u zotning go‘zal ismlari bordir”deb qayd etilgan. Asmā’ allāh al-Ḥusnāda boshqa ismlar Qur‘oni Karimning turli joylarida va hadislarda uchraydi, ammo Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) birikmasi Qur‘onning 4 joyida berilgan. Allohning 99 ismi uning sifatlari va ular bilan bog‘langan fe‘llardan hosil bo‘lgan. Ism so‘zi arabcha bo‘lib hozirgi o‘zbek tilda “nom”, “kishi oti”, “shaxsiy nom” “ma‘nolarida ishlatiladi [5,232]. Shar‘iy ma‘noda “buyuklik”, “alomat”. Husna so‘zi esa “ahsan” so‘zining muannasi bo‘lib “eng go‘zal” degan ma‘noni bildiradi. Umuman, Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) birikmasini “Allohning eng go‘zal ismlari” deb atash mumkin. Bu nomlash shartlidir, chunki Qur‘ondagi 99 ta ismining ba‘zilari Allohning sifatlari hisoblanadi: Al Mutakabbir, Al Muntaqim va boshqalar. Shu sababli Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) ni “Allohning go‘zal ismlari va sifatlarli” deb nomlash to‘g‘riroq bo‘ladi. Mo‘tabar diniy manbalarda Allohning ismi

aynan shu shakl va ko‘rinishda odamlarga nisbatan ism sifatida ishlatilishi noto‘rg‘i deb hisoblanadi.

Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) da Allohning barcha ismlari va sifatleri, fazilatleri va buyukliklari aks etgan bo‘lib, Qur‘ondagi 99 ta ismning qisqacha ma‘nosi quyidagicha: الرحمن Ar Rohman “barchaga mehribon va ehson qilguvchi”, الرحيم Ar-Rohīm “oxiratda faqat mo‘minlarga rahm qiluvchi”, الملك Al-Malik “barcha narsaning egasi”, القدوس Al-Quddūs “nuqsonlardan va ayblardan xoli”, السلام As-Salām “salomat qilguvchi”, المؤمن Al-Mu‘min “iymon va omonlik beruvchi”, المهيمن Al-Muhaymin “borliqni qamrab oluvchi”, عزيز Al-Aziz “izzat sohibi, الجبار Al-Jabbār “istaganini qiluvchi”, المتكبر Al-Mutakabbir “ulug‘ligi cheksiz”, الخالق Al-Xoliq “vujudga keltiruvchi”, البارئ Al-Bāri’ “yo‘qdan bor qiluvchi”, المصور Al-Musovvir “borliqqa shakl beruvchi”, الغفار Al-G‘offār “mag‘firati bilan kechiruvchi”, القهار Al-Qohhār “barcha maxluqotlarni hukmiga kirituvchi”, الوهاب Al-Vahhāb “tekinga ne‘mat beruvchi”, الرزاق Ar-Rozzāq “rizqni yaratuvchi”, الفتاح Al-Fattāh “rahmat xazinalarini ochuvchi”, العليم Al-‘Alīm “ilm sohibi, zohir va yashirin narsalarni biluvchi”, القابض Al-Qobiz “torlik va qiyinchilik qilguvchi”, الباسط Al-Bāsīt “qalblarini keng qiluvchi”, الخافض Al-Xofiz “martabasini tushiruvchi”, الرافع Ar-Rofi’ “martabasini ko‘taruvchi”, المعز Al-Mu‘izz “aziz qilib qo‘yguvchi”, المنزل Al-Muzill “istagan maxluqini xor qilib qo‘yuvchi”, السميع As-Samī’ “hamma narsani eshitguvchi”, البصير Al-Basīr “hamma narsani ko‘rib turuvchi”, الحكم Al-Hakam “har bir narsaga hukm etuvchi”, العدل Al-‘Adl “eng adolatli, اللطيف Al-Latīf “cheksiz lutf ko‘rsatuvchi”, الخبير Al-Xobīr “hamma maxfiy va oshkora narsadan xabardor”, الحليم Al-Halīm “hilm va yumshoqlik qiluvchi”, العظيم Al-‘Azīm “aql tasavvur qila olmaydigan darajada azamat sohibi”, الغفور Al-G‘ofūr “kechirguvchi”, الشكور Ash-Shakūr “oz amal uchun ko‘p savob berguvchi”, العلي Al-Aliy “martabasi oliylikda benihoya”, الكبير Al-Kabīr “buyuklikda tengsiz”, الحفيظ Al-Hafiyz “har bir narsani mukammal muhofaza qiluvchi”, المقيت Al-Muqīt “barcha maxluqotlarning rizqlarni yaratuvchi”, الحسيب An-Hasīb “qiyomatda bandalarining hisobini qiluvchi”, الجليل Al-Jalīl “sifatlarining har biri ulug‘likka ega”, الكريم Al-Karīm “karami keng”, الرقيب Ar-Roqīb “kuzatib turuvchi”, المجيب Al-Mujīb “duolarni qabul qiluvchi”, الواسع Al-Vāsi’ “hamma narsani keng ilmi bilan qamrab oluvchi”, الحكيم Al-Hakīm “har narsa, ishni hikmat ila qiluvchi”, لودودا Al-Vadūd “bandalariga yaxshilikni ravo ko‘ruvchi”, المجيد Al-Majīd “shon-sharafi baland”, الباعث Al-Bā’is “xalqlarga payg‘ambarlar yuboruvchi”, الشهيد Ash-Shahīd “har bir ishda hoziru nozir va shohidlik beruvchi”, الحق Al-Haqq “haqni yuzaga chiqaruvchi zot”, الوكيل Al-Vakīl “barchaning ishi topshirilgan zot”, القوي Al-Qovviy “eng quvvatli zot”, المتين Al-Matīn “eng matonatli zot”, الولي Al-Valiy “muhabbat qiluvchi”, الحميد Al-Hamiyd “barcha maqtovlar ila maqtalgan zot”, المبدئ Al-Mubdi’ “barcha narsaning hisobini olgan zot”,

Mubdi“barcha narsalarni avval boshdan bor qilgan zot”, المعيد Al Mu'id“yo‘q bo‘lgan narsalarni yana qaytadan tiriltiruvchi zot”, المعيد Al-Muhyi“tiriltiruvchi”, المميت Al-Mumit “jonzotlarning jonini oluvchi”, الحي Al-Hayy “hayoti abadiy va azaliydir”, القيوم Al-Qoyyūm “har bir narsaning ustida turuvchi”, الواجد Al-Vājid “xohlaganini topuvchi”, الماجد Al-Mājid “qadri va shoni buyuk”, الواحد Al-Vāhid “yagona”, الصمد Al-Ahad “bo‘linmas”, الصمد As-Somad“hech nimaga ehtiyoji yo‘q”, القادر Al-Qodir“qudrat sohibi”, المقدر Al-Muqtadir “qudrati nihoyatda cheksiz”, المقدم Al-Muqoddim “xohlaganida oldinga suradigan zot”, المؤخر Al-Mu'axxir “xohlaganida orqaga suradigan zot”, الأول Al-'Avval “avvaldan bor zot”, الآخر Al-'Axir “hamma narsa yo‘q bo‘lganda ham O‘zi qoladi”, الظاهر Az-Zohir “uning mavjudligi ochiq-oydin”, الباطن Al-Bātin “barcha pinhon-maxfiy narsalarni bilguvchi”, الوالي Al-Vāli “har bir narsaga ega bo‘lgan zot”, المتعالي Al-Mutā'ali“nuqsonlardan yuqori turuvchi zot, البر Al-Barr “yaxshilik va ehsonda tengsiz”, التواب At-Tavvāb “tavbaga yo‘llovchi va tavbani qabul qiluvchi”, المنتقم Al-Muntaqim “zolim va osiylarning jazosini beruvchi”, العفو Al-Afuvv “afv qiluvchi”, الرؤوف Ar-Ro‘ūf “o‘ta shafqatli va mehribon”, مالك الملك Mālik-ul-Mulk “mulk egasi”, المقسط “o‘z adolati ila mazlumlarga nusrat va zolimlarga jazo beruvchi”, الجامع Al-Jāmi “haqiqatlarni jamlovchi”, الغني Al-G‘oni “hech kimga va hech narsaga hojati tushmaydigan zot”, المغني Al-Mug‘ni “bandalaridan qay birini xohlama behojat qilib qo‘yadigan zot”, المانع Al-Māni “man qiluvchi”, الضار Az-Zorr “zarar beruvchi narsalarni ham yaratuvchi”, النافع An-Nāfi “manfaat beruvchi”, النور An-Nūr “o‘zi zohir bo‘lgan va o‘zgalarni zohir qilgan”, الهادي Al-Hādi “hidoyat qiluvchi”, البديع Al-Badī “o‘xshashi yo‘q narsalarni keltiruvchi”, الباقي Al-Bāqi “doimiy bordir”, الوارث Al-Vāris “mavjudotlar yo‘q bo‘lganda ham boqiy qoluvchi”, الرشيد Ar-Roshīd “to‘g‘ri yo‘lga irshod qiluvchi”, الصبور As-Sobur “osiylarni jazolashga shoshilmaydigan zot”.

Natija va muhokama. Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) dagi ismlarning nomlanish xususiyatlari nihoyatda keng hamda murakkabligini nazarda tutib ularning qisqa ma‘nosi va shar‘iy izohi bilan cheklanish lozim topildi. Nomshunoslikdagi muhim masalalardan biri – ularning trasonimizatsiya usulida antroponimlarga aylanishi va kishi ismlarini hosil qilishi ekanligini nazarda tutib mavzuni الرحمن Ar Rohman, الرحيم Ar-Rohīm teonimlari orqali yoritamiz.

Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) dagi ismlar o‘bek tilida turlicha ko‘rinishlardadi antroponimlarni hosil qilgan va faol qo‘llanilmoqda. الرحمن Ar Rohman teonimi Quroni Karimda eng ko‘p qo‘llanilgan ismlardan biridir. Asmo ul-Husna (أسماء الحسنی) da birinchi o‘rinda berilgan, ma‘nosi keng bu ism asosida o‘zbek tilida ko‘plab antroponimlar vujudga kegan. Bu teonimdan trasonimizatsiya usulida yasalgan kishi ismlariga Rahmon (rahmdil, shavkatli), Abdurahmon, Rahmonali, Rahmonbek, Rahmonbergan, Rahmonberdi, Rahmonboy, Rahmonjon, Rahmonnazar,

Rahmonniyoz, Rahmonnur, Rahmontoy, Rahmonulla, Rahmonsher, Rahmonqul kabi antroponimlarini keltirish mumkin. Asmo ul-Husna (أَسْمَاءُ الْحُسْنَى) dagi الرحمن Ar Rohman ismidan kishilar uchun Rahmon antroponimini yasash va qo'yish shar'iy jihatdan to'g'ri emas. الرحمن Ar Rohman “ qaysi dinda bo'lishidan qat'iy nazar barcha insonlarga va maxluqotlarga marhamat ko'rsatuvchi” ma'nosini anglatadi, الرحيم Ar-Rohīm teonimi undan “oxiratda faqat mo'minlargagina lutf va marhamat qiluvchi zot” ma'nosini bildirib farqlanadi. الرحيم Ar-Rohīm teonimi asosida Rahim (rahm qiluvchi, mehribon), Abdurahim, Rahimbek, Rahimboy, Rahimjon, Rahimxon, Rahima, Rahimali, Rahimbadal, Rahimbergan, Rahimberda, Rahumdod, Rahimyor, Rahmiddin, Rahimmamat, Rahimmirza, Rahimmurod, Rahimnazar, Rahimniyoz, Rahimnur, Rahimtoy, Rahimto'ra, Rahimsho, Rahimqul (6,349) kabi kishi ismlari hosil qilingan. Asmā' allāh al-Ḥusnā ismlarining hamda tranonimizatsiya usulida ulardan hosil qilingan antroponimlarning ma'no va qo'llanish xususiyatlarini chuqur tahlil qilish lozim.

Umuman, diniy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra Qur'ondagi “har bir harf uchun hasanot (yaxshilik, ajr-savob) yoziladi”(7,27). Asmo ul-Husna (أَسْمَاءُ الْحُسْنَى) ning – Allohning 99 ismining va bu ismlar asosida vujudga kelgan o'zbek antroponimlarining ma'nosini bilning ahamiyati beqiyosdir.

Xulosalar. Asmo ul-Husna (أَسْمَاءُ الْحُسْنَى) dagi ismlar va kishi ismlarini tadqiq etishda quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

1. O'zbek adabiy yodgorliklaridahi Allohning 99 ismini to'plash, ularning ma'no va qo'llanish xususiyatlarini nomshunoslik yo'nalishida tadqiq etish zarur.

2. Asmo ul-Husna (أَسْمَاءُ الْحُسْنَى) dagi ismlar va sifatlarning ma'nosi, mazmun –mohiyati hamda ularning farqli jihatlarini yoritishda diniy adabiyotlardan, nomshunoslikning usullaridan keng foydalanish lozim.

3. Allohning 99 ismi asosida yasalgan va o'zbek antroponimlari tarkibida turlicha ko'rinishlarda ishlatilayotgan ismlarning yasalishi, qo'llanilishida ularning lug'aviy va shar'iy ma'nolariga e'tibor qaratish zarur. Asmo ul-Husna (أَسْمَاءُ الْحُسْنَى) dagi ismlar oldidan abd (عَبْدُ), ismdan so'ng – “qul”, “berdi” va boshqa so'zlarini qo'shish maqsarga muvofiq hisoblanadi.

4. Asmo ul-Husna (أَسْمَاءُ الْحُسْنَى) dagi ismlar va sifatlarning mazmunini yaxshi bilish kishilarning o'zliklarni anglashlariga, ko'plab fazilatlarni egallashlariga, ma'noli hamda chiroyli ismlarni tanlashlariga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1986, – С. 256.

2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, Фан, 2013. – 264 б.
3. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М., 1978.
4. Хусанов Н.А. Ўзбек антропонимлар тарихи . – Тошкент: Наврўз, 2014.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. Иккинчи жилд. Тошкент, 2006. – 671с.
6. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент, 2007. – 608 б.
7. Қуръони Каримнинг машҳур суралари фазилати, “Имом Бухорий халқаро маркази”. – Самарқанд, 2020. – 444 б.

TOPONIMIKA

ISTANBUL TOPONIMLARINING LEKSIK-MORFOLOGIK
XUSUSIYATLARI

2-maqola

Hamidov Xayrulla Xudoyorovich

filologiya fanlari doktori, professor

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

e-mail: hamidovx@gmail.com

Annotatsiya. Turkiyaning qadimiy Istanbul shahri toponimlarining leksik-morfologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan 1-maqolada Istanbul toponimlarning tahlili va tasnifi doirasida ushbu birliklarning morfologik tuzilish va etimologik xususiyatlari tadqiq etilib, toponimlarning yuzaga kelish omillarini, tarixi, ular anglatgan ma'nolar, Istanbul toponimlarining salmoqli qismini tashkil etgan «*köy*» komponentli joy nomlari turkshunoslikning turli nuqtayi nazarlaridan imkon doirasida ko'rib chiqilgan edi. Ushbu maqolada esa «*kapı*» (*darvoza, eshik*), «*bahçe*» (*bog', park*), «*bey*» (*bey, og'a*), «*paşa*» (*poshsho*) komponentlari yordamida yasalgan joy nomlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yer adlari (toponimlar), leksik-semantik xususiyat, morfologik xususiyat, «*kapı*», «*bahçe*», «*bey*», *paşa* komponentli toponimlar, ma'muriy hudud, nohiya.

О ЛЕКСИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ
СТАМБУЛЬСКИХ ТОПОНИМОВ

Статья 2.

Хамидов Хайрулла Худоеврович

доктор филологических наук, профессор

Ташкентский государственный университет востоковедения

e-mail: hamidovx@gmail.com

Аннотация. В первой статье, посвященной изучению лексико-морфологических особенностей топонимов древнего города Стамбул, находящегося в Турции, были изучены морфологическая структура и этимологические особенности данных единиц в рамках анализа и классификации топонимов Стамбула. А также в рамках возможностей с разных позиций тюркологии были рассмотрены факторы возникновения топонимов, их история, лексико-семантические особенности топонимов Стамбула, в состав которых участвовал компонент «*köy*» (село, деревня). В данной статье

рассматриваются топонимы, с компонентами «*kapı*» (*ворота, дверь*), «*bahçe*» (*сад, парк*), «*bey*» (*господин*), «*paşa*» (*паша*).

Ключевые слова: топонимы, лексико-семантический признак, морфологическая особенность, топонимы с компонентами «*kapı*», «*bahçe*», «*bey*», «*paşa*», административное деление, район.

ABOUT LEXICO-MORPHOLOGICAL FEATURES OF ISTANBUL TOPONYMS

Khamidov Khayrulla Khudoyorovich

Doctor of Philology (DSc), professor
Tashkent State University of Oriental Studies
e-mail: hamidovx@gmail.com

Annotation. In the first article, devoted to the study of the lexico-morphological features of toponyms of the ancient city of Istanbul, located in Turkey, the morphological structure and etymological features of these units were studied as part of the analysis and classification of Istanbul toponyms. And also, within the framework of possibilities, from different positions of Turkology, the factors of the emergence of toponyms, their history, lexical and semantic features of Istanbul toponyms, which included the component “*köy*” (village, hamlet), were considered. This article discusses toponyms with the components “*kapı*” (gate, door), “*bahçe*” (garden, park), “*bey*” (lord), “*paşa*” (pasha).

Keywords: toponyms, lexical-semantic feature, morphological feature, toponyms with the components “*kapı*”, “*bahçe*”, “*bey*”, “*paşa*”, administrative division, district.

Kirish. Turk tarixida salmoqli o‘rinni egallagan Usmoniylar imperiyasi 630 yil hukmronlik qildi. Uning negizida barpo qilingan zamonaviy Turkiya Respublikasi tashkil topganiga ham o‘tgan yili 100 yil to‘ldi. Usmoniylar davlati poytaxti va imperiyaning eng buyuk tarixiy shahri bo‘lgan Istanbul respublika davrida yanada gullab-yashnadi, kengaydi va taraqqiy topib, bugun ham aholi soni, ham hududi va boshqa mezonlarga ko‘ra dunyoning eng ilg‘or megakentlari qatorida o‘z o‘rni va mavqeiga ega. Birinchi maqolamizda Istanbulning boy tarixi va noyob go‘zalligi bilan sivilizatsiyalar poytaxti bo‘lganligi, bir necha asrlik dini, madaniyati, ma‘naviyati asrlar davomida turli xil dinlar va madaniyatlarni o‘zida mujassamlashtirgani va bunday xususiyatlar tarixiy kentning toponimlarida o‘ziga xos tarzda muhrlangani ta’kidlangan edi.

Istanbul toponimlarining turk tiliga xos barcha lisoniy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan til birliklari sifatida har doim turli fan sohalarining tadqiqot obyekti bo'lib kelganligi, ularning leksik va morfologik nuqtayi nazaridan o'rganilishi turk tili leksikasining muhim qatlami hisoblangan toponimlarning yasash, yuzaga kelish xususiyatlarini o'rganishga muhim ahamiyat va dolzarblik kasb etishini yana bir karra ta'kidlash o'rinli. Zero bugungi kunda dunyoning yirik sanoat va turizm kentlaridan biri sanalgan Istanbuldagi mahalla, mavze va dahalar, ma'muriy hudud va tuman nomlarining tadqiq etilishi turkshunoslikka qo'shilgan hissa bo'ladi.

Turkiya Respublikasi va Istanbul kentining eng so'nggi nashr etilgan xaritalari, turk olimi Umar Bilgi qalamiga mansub «Turkiyadagi tarixiy nomlar, Turkiyaning tarixiy geografiyasi va tarixiy nomlari ustida alfavit tartibida olib borilgan tadqiqot» [1] nomli asari, turli lug'at, ensiklopediya va ma'lumotnoma (kılavuz-spravochnik)lar maqola uchun asosiy manba hisoblanadi.

Istanbul toponimlari tilshunoslikning turli nuqtayi nazarlardan o'rganilgan ushbu maqola oldiga ham bir qator an'anaviy vazifalar qo'yildi: Istanbul shahridagi katta-kichik mahalla, mavze va dahalar, ma'muriy hudud va tuman nomlarining kelib chiqishiga doir materiallarni tahlil qilish, tasniflash; toponimlarni hosil qilgan ba'zi kalit so'zlarni aniqlash, ularni ma'no va morfologik tuzilish xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish va b. Turkshunoslikning turli nuqtayi nazarlaridan tahlil qilingan toponimik birliklar haqidagi 2-maqolani tayyorlashda ham ilgari sanab o'tilgan lug'atlardan foydalanildi [4].

Asosiy qism. Ma'lumki, turkcha joy nomlarining asosiy qismi tarixiy Vizantiya imperiyasi davridan boshlab, saljuqiylar va 600 yildan ortiq hukmronlik qilgan Usmoniylar imperiyasiga qadar ming yildan ortiq tarixiy davrni o'zida aks ettirgan va hozir ham olimlarning qiziqishini uyg'otib keladi. Ana shunday turfa xillik Istanbul toponimlarining leksik-morfologik xususiyatlari, semantikasi, toponimlarning salmoqli qismini "ekzotik" nomlardan tashqari, «*kapi*» (*darvoza, eshik*), «*bahçe*» (*bog', bog'cha, park*) komponentli joy nomlari ham tashkil etadi va ular alohida e'tiborni tortadi.

Turk tilida *bahçe* va *bağ* komponentlaridan yasalgan Istanbul joy nomlari talaygina. Forschadan o'zlashgan *bahçe* va *bağ* so'zlari hozirgi zamon turk tilida poliz, bog', bog'cha va hatto uy oldidagi kichik hovli, hatto tomorqa ma'nolarida ham qo'llaniladi. Turk tilida ushbu ot-komponent asosida yasalgan toponimlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin: *Bahçeköy* (lug'aviy ma'nosi: Bog' qishloq), *Dolmabahçe* (lug'aviy ma'nosi: Do'lma bog', ya'ni Istanbuldagi Bosfor bo'g'ozining bir chetida XIX asrda tosh-tuproq to'ldirilib bir necha gektar yer qilingan va u yerga usmonli podshosi "Dolmabahçe" saroyini qurdirgan. Shu bilan o'sha atrof Dolmabahçe nomini olgan), *Fenerbahçe* (fanarli, ya'ni fonuslar

qo'yilgan bog', park), *Paşabahçe* (Poshsha bog'chasi), *Bahçelievler* (Bog' uylar – dachalar), *Bağcılar* (bog'bonlar) va h. Ulardan ba'zilar quyidagilardir:

Dolmabahçe – Istanbul shahridagi dahalardan biri. Yosh Usmon davrida uning buyrug'i bilan Istanbul (Bosfor) bo'g'ozining Beshiktosh va Findikli mavzolari orasidagi qirg'og'idan boshlab, yirik bir qismi tuproq bilan to'ldiriladi. Ana shu to'ldirilgan hududga podshoh uchun bir bog' barpo etiladi. Tuproq bilan to'ldirilganligi uchun “to'ldirilgan bog'”, “to'lma bog'cha”, ya'ni *dolmabahçe* bo'lib qoladi. Bu bog' ichida barpo etilgan sulton saroyi *Dolmabahçe sarayı* nomini olgan va bugungi kunda ham dunyoning turli mamalakatlaridan kelgan turistlarning e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

Bahçelievler – Istanbul shahri markaziga yaqin, 300 mingdan ortiq aholisi bo'lgan tuman, tuman markazining va dahaning nomi. Bu tuman Istanbulning Bakırköy, Güngören, Bağcılar va Zeytinburnu dahalari orasida joylashgan. 1992 yilgacha *Bahçelievler* tumani *Bakırköy* tumaniga qarashli bo'lgan.

Bağcılar – Istanbul shahri markaziga yaqin, 200 mingga yaqin aholisi bo'lgan tuman, tuman markazining va dahaning nomi.

Usmonli davrida bu tumanda rum (yunon) aholi yashagan. U davrda tuman *Mahmut Bey Nahiyesi* deb nomlangan. Bağcılar ana shu nohiyaga tegishli bo'lgan. Hozirgi paytda Bağcılar tumaniga qarashli bo'lgan ko'ylar quyidagilardir: *Avaz Köyü, Ayapa Köyü, Ayayargı Köyü, Çıftıburgaz Köyü, Vidoz Köyü, Yeni Bosna köyü*. Bulardan faqat *Çıftıburgaz Köyü* bugungi kunda *Bağcılar* deb o'zgartirilgan. Qolganlari o'z nomini saqlab qolgan.

Turk tilida ***kapı*** komponenti asosida yasalgan toponimlar ham talaygina. “Kapı” so'zi “eshik” yoki “darvoza” demakdir. Toponimlar yasalish nuqtayi nazaridan qaraladigan va “darvoza” ma'nosida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, undan yasalgan so'zlar o'sha darvozadan kirilgandan keyin joylashgan joy nomini anglatadi. Gap shundaki, Usmoniylar imperiyasi davrida Istanbulda shahar (qal'a)ga kirish darvozalari bo'lgan. Ulardan ko'pchiligi hozir ham saqlanib qolgan. Ularni quyidagi tartibda sanab o'tish mumkin: *Ahırkapı, Belgratkapı, Çatladıkapı, Edirnekapı, Havuzkapı, Kumkapı, Mevlanakapı, Silivrikapı, Topkapı, Yenikapı*. Quyida “***kapı***” komponentidan yasalgan joy nomlaridan ba'zilarini izohlashga harakat qilamiz.

Masalan, Istanbulda joylashgan *Ahırkapı* toponimining kelib chiqishi Usmoniylar podshohi yashagan saroyning orqasidagi ***has ahır*** (xos oxur), ya'ni podshoh otlari boqilgan joy nomi bilan bog'liq. Uning so'zma-so'z tarjimasi “Otxona (molxona) eshigi (darvozasi) bo'lib, Marmara dengizining sohilida joylashgan Saroyga qarashli yettita og'ilxona (otxona) eshigidan biri bo'lgan bu joyda podshohning sara otlari saqlangan. Shu tarzda maxsus otxona Ahırkapı “Oxur eshigi (darvozasi)” deb nomlangan.

Çatladıkapi (Yorildi darvoza). Bu joy nomining kelib chiqishi ham o‘ziga xos tarzda ta’rif etiladi. Vizantiya imperiyasi hukmronligi davrida bu joy nomi **Sidera** deb nomlangan ekan. 1532-yilda zilzila oqibatida ko‘p joylar yorilib, vayron bo‘lgan. Bu ofatdan so‘ng bu joy **Çatladıkapi** (yorildi darvoza), ya’ni «yorilgan, yoki darz ketgan darvoza» deb atala boshlangan ekan.

Belgradkapi. Usmoniy sultoni Qonuniy Sulaymonning Belgrad (Oq shahar) safariga jo‘nagan Istanbul darvozasi sharafiga bu nomning o‘sha darvoza uning atrofidagi joyga berilgani aytiladi manbalarda.

Edirnekapi. Usmoniy davrida Istanbul qal’a devorlari ichida To‘pqopi va Ayvonsaroy orasida joylashgan daha (mavze). Usmonlilarning Istanbuldan oldingi poytaxti bo‘lgan Edirne shahari bilan bog‘liq bu joy nomi o‘sha shaharga chiqish darvozasini bildiradi.

Kumkapi (Qum darvoza). Usmoniy davrida Istanbul qal’a devorlari ichida To‘pqopiga qo‘shni bo‘lgan mavze bo‘lib, hozirgi paytda Istanbulning mashhur Laleli va Aksaray savdo markazlari, bozorlar joylashgan, darvozadan chiqilganda Bosfor bo‘g‘oziga chiqiladi.

Istanbulning Fotih tumani hududida joylashgan **Topkapi** mavzesi o‘z nomini Vizantiya shahar qal’a devorlaridagi darvozalarning eng kattasi **Hagios Romanos**dan olgan. Keyinchalik usmoniy davri bu joyni To‘pqopi deb atashgan. Fotih Sulton Mexmed Istanbulni zabt etishdan oldin o‘z o‘tovini Yevropa va Osiyoga yo‘nalgan quruqlik yo‘lining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgan ana shu darvoza oldida qurgan va uni **Topkapi** deb nomlagan ekan (**top** – to‘p, ya’ni yig‘ilgan, bir nechta, **kapi** – darvoza).

Hozirgi Istanbulning markazida joylashgan **Edirnekapi**, **Kumkapi**, **Topkapi**, **Yenikapi** mavze va dahalarida eng yirik savdo markazlari, davlat idoralari, xususiy ish markazlari, aholi yashaydigan binolar joylashgan.

Turk tilida “hane” komponenti asosida yasalgan toponimlar soni ham anchagina. Ot turkumiga oid bo‘lgan **hane** so‘zi forschadan turk tiliga o‘zlashgan bo‘lib, uy-joy, turar-joy, ombor ma’nolarini bildiradi. “Hane” so‘zi, asosan, turdosh otlarga qo‘shilib, joy nomi yasagan. Masalan: **Balikhane**, **Kağithane**, **Saraçhane**, **Şiřhane**, **Tophane**. Bularga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Balikhane – baliqchilarning shu yerda ishlaganligi, shu yerda do‘konlari joylashganligi uchun Istanbul bo‘g‘oziga yaqin bu makonga Baliqxona (**balikhane**) deb nom berilgan.

Hane komponent bilan yasalgan keyingi toponim **Kağithane** dir. Kağithane Istanbuldagi kichik bir belde nomidir. So‘zning asosiy ma’nosi bosmaxona, qog‘ozxonadir. Bir ish to‘planib, birgalikda bajariladigan makon **hane** so‘zi yordamida bir joy nomi hosil qilingan.

Istanbulning eng mashhur yerlaridan biri ayni komponent asosida yuzaga kelgan **Tophane** dir. Turkcha “top” va forscha “hane” soʻzlaridan yasalgan qoʻshma soʻz Usmonlilar davridan qolgan eski bir daha nomidir. Istanbul bosib olingandan keyin Fotih Sulton Mehmeddan boshlab urushlar arafasida bu joyda metall eritilib, toʻp va oʻqlari yasalgan. **Tophane** ning yana bir maʼnosi urush paytida askarlarning toʻp otishni oʻrganish uchun ajratilgan joylaridir. Usmonlilar davridan qolgan eski bir oʻq otish markazi ham boʻlgan bu mavze Istanbulning Rumeli sohili (Evropa qismi) da Salıpaazarı va Karaköy mavzelari oʻrtasida joylashgan. Bu joyda Qilich Ali Poshsho kulliyasi, 1-Mahmuddan qolgan Toʻpxona chashmasi, Nusratiya jome masjidi saqlanib qolgan. Hozirgi paytda ramazon oyida ana shu joyda iftor payti otilgan toʻp ovozi butun Istanbulga eshitiladi va iftor dasturxonı atrofida oʻtirgan kishilar soatlariga qaramasdan iftorni boshlashlari mumkin.

Saraçhane. Istanbuldagi joy nomi. Arab tilidan oʻzlashgan *serrac (saraç)* soʻziga hane soʻzidan yasalgan qoʻshma soʻz shaklidagi toponim. Otga arava qoʻshish uchun qoʻllaniladigan moslamalar, otga tegishli boʻlgan egar-jabduqlar yasaladigan, taʼmirlanadigan va sotiladigan mavze, joy. Shuningdek teridan qilingan narsalar sotiladigan joy.

Istanbuldagi mashhur dahalardan biri **Şiřhane** dir. Forscha *şes* va *hane* soʻzlarining qoʻshilishidan paydo boʻlgan, bugungi kunda eskirgan atama boʻlib, qadimda Usmonli qurolsozligida 6 millimetr kalibrli qurollar ishlab chiqarilgan. Hozirgi turk tilida “şiş” soʻzi “kabob” va “six” maʼnosida qoʻllanadi. **Şiřhane** – oʻsha joyda koʻp kabobxonalar joylashganligi sababli shu nom bilan atalgan.

Turk tilida qoʻllanib kelinayotgan unvon nomlari turk tarixida muhim iz qoldirgan buyuk odamlarga berilgan. Ulardan eng birinchisi **pařa** (poshsho) unvonidir. **Pařa** soʻzi 1. Usmonlilarda yuqori lavozim, eng baland harbiy unvonga ega boʻlgan kishi (marshal). 2. Hozirgi paytda turk xalqining generallarga bergan nomi, unvoni. 3. Bolalarga ogʻir – vazminlik uchun aytiladigan laqab. Turkiyaning Yozgat va Manisa viloyatlarida **Pařaköy** degan qishloqlar bor. Usmonli imperatorligi davrida yuqori lavozimli general va marshallarga berilgan bu unvonlarni olgan buyuk kishilar, tarixiy shaxslarning ismlari Istanbul shahridagi tuman, dahalarga ham berib kelingan. Masalan: **Bayrampařa, Cerrahpařa, Fethipařa, Gazi Osman Pařa, Çedikpařa, Haydarpařa, Kasımpařa, Koca Mustafa Pařa, Murselpařa, Piyalepařa, Şemsipařa, Talatpařa** va b.

Pařa komponenti asosida yasalgan Istanbul toponimlarining baʼzilarida bu unvon nomi qoʻshib yoziladi (**Bayrampařa, Cerrahpařa, Fethipařa, Çedikpařa, Haydarpařa, Kasımpařa, Murselpařa, Piyalepařa, Şemsipařa, Talatpařa** va b.), baʼzilarida esa ajratib yoziladi (**Gazi Osman Pařa, Koca Mustafa Pařa, Mustafa Kasım Pařa**). Keltirilgan nomlarning bazilariga taʼrif berib oʻtish mumkin. Masalan, Istanbuldagi beldeardan birining bugungi nomi boʻlgan **Bayrampařa**

(Bayrampasha) ni olsak, bu joy nomi Sulton IV Murodning Bosh vaziri Bayram Poshshoning sharafiga qo'yilgan. Bu tumanning eski nomi *Sağmalcılar* (sut sog'uvchilar mavzesi ma'nosida) bo'lib, bu yerlarga Bolgariyadan kelgan muhojirlar sog'in sigirlar boqish uchun ferma qurishgan va bu daha *Sağmalcılar* bo'lib tanilgan. 1954 yilda ko'y maqomi olgan *Sağmalcılar* mavzesi *Ramı Bucağı* hududi ichida edi. Keyinchalik *Maltepe Askeri Kışlası (Kışla arkası)* (Maltepa harbiy qismi, kazarma orqasi) bo'lib ham tanilgan. Ko'chishlar bo'lganligi sababli aholi soni ortib borgan. Mashhur turk me'mori Mimar Sinan tomonidan Istanbulning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qurilgan va bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatayotgan suv kanallari, uy-joy binolarining chiqindi suvlari (kanalizatsiyalar) shu joyga boradi. *Bayrampaşa* tumani 1927-yilda tashkil etilgan.

Bey komponenti asosida yasalgan Istanbul dahalari ham bir nechta: **Beylerbeyi, Beyoğlu, Osmanbey, Beykoz**. Turk tilining izohli lug'atida **Bey** so'zining quyidagi ma'nolari ajratiladi: 1. Erkak ismlaridan keyin hurmatni ifodalash uchun qo'llaniladi: Ahmet Bey; 2. Ismi bilinmagan erkak kishini chaqirish uchun qo'llanadi: Bey, Beyferndi. 3. Ayollar, ba'zan turmush o'rtog'iga shu so'z bilan murojaat qilishadi: Bey! 4. Boy, ilg'or kishi; 5. Urug', qabila boshlig'i va hok.

Beylerbeyi. 1. III Murat davridagi beylardan biri bo'lgan Mehmet Poshshoning Istanbulning Yevropa qismida joylashgan chorbog'-uyi va bu joy bir qishloq, ya'ni *köy* bo'lgan va hozir ham shunday nomlanadi. Bu degani "Beylarning beyi", ya'ni "boylarning boyi" yoki "xo'jayinlarning xo'jayini" (beklarning begi, ya'ni eng kattasi). Bu tarixiy so'z sifatida, viloyatning eng yuqori lavozimli mulkiy amiridir. 2. Istanbulning Onado'lu sohilida Uskudar tumaniga qarashli daha nomi. 19-asrgacha bu joyning nomi Istavros Bahchesi bo'lgan. Bosfor ko'prigining Osiyo tomonidagi ustun-oyoqlari ana shu mavzedadir. Beylarbeyi saroyi va jome masjidi bu mavzening tarixiy asarlari hisoblanadi.

Beyoğlu. Istanbul shahri markazidagi Galatasaray va Taqsim daha (maydon)lari orasida joylashgan mavze. Uning qadimgi nomi yunoncha *Pera* bo'lgan. Undan tashqari, Beyo'g'li tumani Bosfor va Halich qo'ltig'i orasida qolgan, Do'lmabog'chadan Sutlujagacha bo'lgan sohil mavzellarini ham o'z ichiga olgan. Aholisi 250 mingdan ortiq. Beyo'g'li Istanbulning tijorat va ko'ngilxushlik-tomosha dahasi ham hisoblanadi. Hozirgi paytda Beyo'g'li tumanida Istanbulning eng yirik mehmonxonalari, ko'pchilik mamlakatlarning elchixonalari, Teleradiostudiyalari, teatr va kinoteatrlar, kutubxonalar joylashgan. Eng mashhur va ko'zga ko'ringan tuman hisoblanadi.

Bu mavze nomining qanday paydo bo'lganligi haqida turli rivoyatlar aytilgan. Bulardan biriga ko'ra, ushbu maskan Islom dinini qabul qilib, bu yerda yashay

boshlagan Pontus shahzodasi nomi bilan bogʻliq. Ikkinchisiga koʻra esa, bu mavzeda “Bey oʻgʻli” ismli Venedik shahzodasi yashagan ekan. Yana bir rivoyatga koʻra esa, bu dahada yashagan bir Venedik elchisiga, rasmiy yozuvlar joʻnatilganda, unga shunday murojaat qilingan ekan.

Beyoğlu tumani haqida gapirganda, *Haliç* qoʻltigʻi haqida soʻz aytmaslik mumkin emas. *Haliç* (*Halich*) ni yevropaliklar Oltin shox deyishadi. Beyoʻgʻli yonida eni 500 metr uzunligi esa 5000 metr boʻlgan bir portdir. Istanbul yoqasida Jibali, Ayakapi, Fener, Balat, Ayvansaray, Yeyyup daha va mavzelari, Beyoʻgʻli tomonida esa Kasimpasha, Xaskoʻy, Hajioʻgʻlu, Sutluja, Karaagʻach mavzelari joylashgan. Hozirgi paytda Halich atrofi obodonlashtirilmoqda.

Osmanbey. Bu tuman ham Istanbulning Beyoʻgʻli, Shishli tumanlariga qoʻshni boʻlgan, tekstil mahsulotlari, tayyor kiyim ishlab chiqarish fabrikalari joylashgan raoni hisoblanadi. Osmanbey Usmoniylar imperiyasining asoschisi Usmon Gʻoziy (Osman Gazi) ismi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Beykoz. Bu Istanbuldagi Bosfor boʻgʻozining Onadoʻlu sohilidagi tuman markazi va 150 mingdan ortiq aholi yashaydigan daha nomi. Istanbulning **Beykoz** tumanida 18 ta koʻy, 1 bujoq boʻlib, unda salkam 200 mingga yaqin aholi yashaydi. Bu tuman nomining etimologiyasi manbalarda berilmagan.

Istanbul toponimlaridan bir nechtasi tosh (taş) komponenti yordamida yasalgan. Ularning soni koʻp emas, lekin bu joylarni hamma yaxshi biladi. Bular **Beşiktaş**, **Çemberlitaş** va **Kabataş** belde¹ va mavzalaridir.

Beşiktaş: Birinchi nuqtai nazarga koʻra, Istanbulning koʻzga koʻringan Beshiktosh beldesi oʻz nomini Barbaros Hayrettin Paşaʼning oʻz kemalarini bogʻlash uchun Istanbul boʻgʻozi (Bosfor boʻgʻozi) qigʻogʻiga oʻrnatgan beshta ulkan toshdan olgan. Boshqa bir nuqtai nazar esa, bu joy oʻz nomini bir ruhoniyning bu yerda qurgan ibodatxonasiga Quddusdan keltirilgan beshikka oʻxshash toshni qoʻydirganligi va shu sababdan dahaning **Beshiktosh** deb nomlanganligi haqidadir. Albatta, bular taxmin. Lekin Beşiktaş soʻzining hozirgi Beshiktosh dahasi joylashgan yerda beshikka oʻxshash katta tosh boʻlganligi bilan bogʻliqligi haqidagi taxminlar haqiqatga ancha yaqin turadi.

Çemberlitaş – Vizantiyaning eng katta maydonlaridan biri boʻlgan Konstantinus Forumi joylashgan yerda katta ustunlardan biri boʻlgan Chamberlitaş (Chambarli tosh) nomidan olingan.

Kabataş – Istanbulning Karakoʻy mavzesiga qoʻshni boʻlgan mavze. **Kaba** – qoʻprol, soʻziga **taş** soʻzi qoʻshib yasalgan joy nomi. Hozirgi paytda bu yerda port joylashgan. Usmonli davrida mashhur boʻlgan kishilardan «Koʻsa shogird» laqabini olgan Mustafo Najib Chalabiy katta (kaba – qoʻpol, besoʻnaqay) toshni yoʻnib, kichik bir joy tayyorlagan, keyinchalik u portga aylantirilgan.

¹ *belde* дегани *köy* (қишлоқ)дан катта, лекин *ilçe* (туман)дан кичик аҳоли яшайдиган жой

Istanbulning relyef bilan bog‘liq shaklda yasalgan joy nomlari ham talaygina. Bulardan biri *Zeytinburnu* dir. Istanbul shahri hududida, Bosfor bo‘g‘ozi bo‘ylab, Sirkeji-Floriya sohil yo‘nalishi ustida joylashgan bir kichik tuman va daha nomidir. *Zeytinburnu* Istanbulning 3-toifaga mansub bir tumani bo‘lib, unda turli ishlab chiqarish korxonalari, fabrikalari, qonunga xilof ravishda qurilgan 100 minglab kishi yashaydigan uy-joylar bor. *Zeytinburnu* toponimi arabcha *zeytin* (*zeytun*) co‘ziga turkcha *burun* so‘zini qo‘shish yo‘li bilan yasalgan.

Turli xil ko‘chishlar natijasida ham joy nomlari ham ko‘chirilgan. Masalan, Istanbulning markazida joylashgan, bugungi kunda ham o‘z nomini saqlab qolgan *Aksaray* (Oqsaroy) maydoni va mavzesini oladigan bo‘lsak, bu joyning paydo bo‘lishi tarixi haqida quyidagilarni aytib o‘tish mumkin: XV asrda hukmronlik qilgan Fotih Sulton Mahmudning Bosh vaziri Is‘hoq Poshsho, Ich Onado‘lu mintaqasidagi (Anqaraga yaqin shahar) Oqsaroy qo‘lgasi egallangandan keyin u yerda yashagan mintaqa xalqidan bir qismini Istanbulga ko‘chirib kelgan va bugungi Oqsaroy dahasi (Istanbuldagi daha)ga joylashtirish to‘g‘risida farmon bergan. Oqsaroyda ko‘chib kelib, bu yerga joylashgan aholi yangi daha (mahalla)ga o‘z shaharlarining nomlarini berishgan (Oqsaroy).

Turk tilidagi ba‘zi tuman va mahalla nomlari tarixiy voqea-hodisalar, ularning nomlari asosida yuzaga kelgan. Masalan: *Ayrılık Çeşmesi* (Istanbulning Haydarpaşa beldesi hududida joylashgan mavze)ni oladigan bo‘lsak, qadimda Makkaga hajga ketuvchilar shu yerda to‘planishgan va yo‘lga chiqishgan. Hojilar yaqinlari, oilalari bilan shu yerda vidolashishgani uchun bu mavzega Ayrılık Çeşmesi (Ayriliq chashmasi) nomi berilgan.

Istanbuldagi ba‘zi tuman, daha va mavze nomlari o‘sha yerda joylashgan jome’, masjid va muzey nomlaridan olingan: Beyazit Camisi – Beyazit (meydanı, semti), Sultanahmet Camisi – Sultanahmet (meydanı, semti), Ayasofya müzesi (Camisi) – Ayasofya (semti), Topkapı sarayı (müzesi) – Topkapı (semti) va h.

Istanbul devorlari ichida qolgan qismining yetti tepa ustida qurilganligi ko‘p aytiladi. Bu tepalar joylashgan joylar quyidagilar:

1. To‘pqopi saroyi, Ayasofiya va Sultonahmad jome masjidi joylashgan hudud (tepa).
2. Chamberlitash va Nuriy Usmoniya jome’lari joylashgan hudud (tepa).
3. Boyazid jome masjidi, Istanbul universiteti va Sulaymoniya jome masjidi joylashgan yer (tepa).
4. Fotih jome masjidi joylashgan yer (tepa).
5. Yovuz Sulton Salim jome masjidi joylashgan yer (tepa).
6. Edirnekapi dahasida Mihrimah Sulton jome masjidi joylashgan hudud (tepa).
7. Kojamustafapasha dahasining joylashgan yeri (tepa).

Istanbulda shahar devorlarining tashqarisida qolgan mashhur tepalar esa quyidagilardir:

- Beykozdagi Yusha tepasi;
- Rumelihisorida shahidlik tepasi;
- Sariyerdagi Maden tepasi;
- Pashabahchedagi Qorlitepa;
- Beyo'g'lidagi Tepaboshi va Fotihtepa;
- Shishlidagi Hurriyat tepasi; G'ayrattepa, Yesentepa; Kushtepa va b.

Xulosalar. Ushbu maqola doirasida tahlilga tortilgan misollardan ham ko'rinib turibdiki, hozirgi turk tilida turkchaga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga ham *köy* so'zi qo'shilib o'nlab joy nomlari yasalgan va ular ustida jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak. Dunyoning eng yirik megakentlaridan biri sanalgan Istanbul toponimlarining leksik-morfologik tuzilishini o'rganish turkshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi va bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish mamlakatimiz va Turkiya Respublikasi orasida kundankunga mustahkamlanib borayotgan abadiy do'stlik aloqalarining yanada chuqurlashtirilishiga zamin hozirlaydi, deb umid qilamiz.

Adabiyotlar

1. Bilgi Umar, Türkiye'deki Tarihsel Adlar. Türkiye'nin Tarihsel Coğrafiyası ve Tarihsel Adları üzerine Alfabetik düzende bir İnceleme, İnkilap Kitabevi, İstanbul, 1993.
2. Dictionnaire Larousse, Ansiklopedik Sözlük, İstanbul, Milliyet, 3. Cilt, 1993-1994.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Русский язык, 1981. 2 жилд.
4. Köylerimiz, İçişleri Bakanlığı, İller İdaresi Genel Müdürlüğü, Genel yayın No: 327, Ankara, 1982.
5. Баскаков А.Н. Турецко-русский словарь. – М.: Русский язык, 1977; Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. – М.: Русский язык, Multilingual. – İstanbul, 1995; Büyük Türkçe-Rusça Sözlük. – М.: Русский язык, 1977, Multilingual. – İstanbul, 1994; Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. 1.-2.C. – Ankara: 1998; O'zbek tilining izohli lug'ati. –M.: Русский язык, 1981; O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

QASHQADARYO VA ANDIJON VILOYATI GIDRONIMLARINING MAVZUVIY TASNIFI

Djurabayeva Zamira Axmedovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Andijon davlat pedagogika instituti

zamiradjurabayeva-1958@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv jarayonlari milliy tillar lug'at tarkibining miqdor va sifat jihatidan keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Qadriyatlaridan, tarixidan, o'z manbalaridan voz kechib, gegemon tillar ta'siriga tushib qolgan tillarning asta-sekinlik bilan yo'qolib borayotgani butun dunyo ahliga ma'lum. Qaysi bir millat vakillari o'z ona tillari taqdiri ustida astoydil bosh qotirsa, uning taraqqiyoti uchun kurashsa, bunday tillarning nafaqat shu mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham nufuzi oshib borayotgani aniq fakt. O'zbek tili ham shunday tillardan biridir. Uning kelajagini saqlab qolish yo'lidagi eng muhim ishlarimizdan birini xalqimizning tarixi, milliy urf-odatlari, qadriyatlari bilan bog'liq bo'lgan nomlarni to'plash, qaydga olish va lingvistik jihatdan tasniflash ishlari tashkil qiladi. Onomastik nomlar shunday maqomga ega bo'lgan leksik birliklar sanaladi. Ular ichida suv bilan bog'liq atamalar ming yilliklarning yorqin ifodasi sifatida o'zbek tilida muhim o'ringa ega. Jumladan, Qashqadaryo va Andijon viloyatlaridagi buloq, soy, daryo, ko'l, hovuz, quduq nomlari xalqimizning dunyoqarashi, urf-odatlari, uzoq tarixidan bizga ma'lumotlar beradi. Ularning leksik-semantik va struktur xususiyatlari o'zbek tilining o'ziga xos tomonlarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra ushbu maqolada o'zbek tili leksikasining eng boy va qadimiy qatlamlaridan biri bo'lgan suv bilan bog'liq nomlarning leksik-semantik guruhlarini Qashqadaryo va Andijon viloyatlari gidronimlari misolida tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: til, tilshunoslik, onomastika, onomastik ko'lam, ko'lamcha, toponim, antropogidronim, topogidronim, etnogidronim, fitogidronim, zoogidronim.

ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ГИДРОНИМОВ КАШКАДАРЬИНСКОЙ И АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Джурабаева Замира Ахмедовна

доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Андижанский государственный педагогический институт

zamiradjurabayeva1958@gmail.com

Аннотация. Современные процессы глобализации приводят к резкому изменению словарного запаса национальных языков как в количественном, так и в качественном отношении. Всем известно, что постепенно исчезают языки, отказавшиеся от своих ценностей, истории и своих истоков и попавшие под влияние языков-гегемонов.

Совершенно очевидно, что когда представители какой-либо нации борются за судьбу своего родного языка и борются за его развитие, престиж таких языков возрастает не только в нашей стране, но и на международной арене.

Узбекский язык является одним из таких языков. Сбор, запись и лингвистическая классификация названий, связанных с историей, национальными традициями и ценностями нашего народа — одна из важнейших наших задач по сохранению его будущего.

Ономастические имена считаются лексическими единицами, имеющими такой статус. Среди них важное место в узбекском языке занимают термины, связанные с водой. Например, названия родников, ручей, рек, озер, прудов, колодец Кашкадарьинской и Андижанской областей дают нам ценные сведения о мировоззрении, обычаях и многовековой истории нашего народа. Их лексико-семантические и структурные особенности имеют особое значение в раскрытии уникальных особенностей узбекского языка.

В данной статье на примере гидронимов Кашкадарьинской и Андижанской областей проанализированы лексико-семантические группы водных названий, которые являются одним из наиболее богатых и древнейших пластов лексики узбекского языка.

Ключевые слова: язык, лингвистика, ономастика, ономастическая сфера, масштаб, топоним, антропогидроним, топогидроним, этногидроним, фитогидроним, зоогидроним.

THEMATIC CLASSIFICATION HYDRONIMES OF KASHKADARY AND ANDIJAN REGIONS

Jurabaeva Zamira Akhmedovna
associate professor (PhD)
Andijan State Pedagogical Institute
zamiradjurabayeva-1958@gmail.com

Annotation. Modern processes of globalization lead to a sharp change in the vocabulary of national languages, both quantitatively and qualitatively. Everyone

knows that languages that have abandoned their values, history and their origins and fallen under the influence of hegemonic languages are gradually disappearing.

It is quite obvious that when representatives of any nation fight for the fate of their native language and fight for its development, the prestige of such languages increases not only in our country, but also in the international arena.

Uzbek language is one of such languages. The collection, recording and linguistic classification of names associated with the history, national traditions and values of our people is one of our most important tasks in preserving its future.

Onomastic names are considered lexical units that have this status. Among them, terms related to water occupy an important place in the Uzbek language. For example, the names of springs, streams, rivers, lakes, ponds, wells in the Kashkadarya and Andijan regions give us valuable information about the worldview, customs and centuries-old history of our people. Their lexical-semantic and structural features are of particular importance in revealing the unique features of the Uzbek language.

In this article, using the example of hydronyms of the Kashkadarya and Andijan regions, the lexical-semantic groups of water names, which are one of the richest and oldest layers of vocabulary of the Uzbek language, are analyzed.

Key words: language, linguistics, onomastics, onomastic sphere, scale, toponym, antropogidronim, topogidronim, etnogidronim, fitogidronim, zoogidronim.

Kirish. Inson uchun eng muhim vazifa azaldan jonli tabiatda yashab qolish bo'lgan. Yashash uchun kurash insonni hamisha o'ylashga, fikrlashga, boshqalar bilan o'z fikrini muhokama qilishga, eng muhimi, muayyan zamonda yashash manzili topishga majbur qilgan. Hamma davrlarda yashash uchun qulay joy suv yoqalari, soy, daryo, ko'l bo'ylari bo'lgan. Suv hamisha insonga tiriklik manbai – obi hayot vazifasini o'tab kelgan. Shu bois, qadimdan odamlar suvga nisbatan o'ta ehtiyotkorona munosabatda bo'lishgan. Suvni asrab, tejab ishlatish, uni e'zozlash hammaning burchi sanalgan. Suvni toza saqlash jamiyat qonunlaridan biri bo'lgan. Shu asosda odamlar har bir suv manbaini alohida nom bilan atashga o'rganishgan. Buloq, soy, daryo, quduq va shu kabilarning ko'rinib turgan xossalriga, rangiga, joylashish o'rniga, odamlarga keltirgan foyda-zarariga qarab turib nom berishgan. Masalan, bahor toshqinlarida to'lib-toshib, har tomonga bosh urib, o'zanini buzib oqqani, odamlarga ko'p zarar keltirgani uchun Andijon viloyatining Paxtaobod va Izboskan tumanlari hududidan oqib o'tgan daryoni *Tentaksoy* deb atashgan. Xuddi shunda xususiyatga ega bo'lgan suv manbai Qashqadaryoda *Jinnidaryo* deb

nomlangan. Juda o'xshash, noyob nominatsiya – daryoning butun xossasi shu so'zlarda o'z aksini topgan.

Aslida, qadimdan odamlar o'z makonlarini bir-biridan farqlash uchun yer yuzining har bir obyektiga alohida nom berishganlar. Shu soha bilimdonlaridan biri V.A.Nikonovning ta'kidlashicha, zamonlar o'tishi bilan shaharlar va davlatlar tanazzulga yuz tutishi, tillar va hatto, xalqlarning o'zi ham manguga yo'qolib ketishi mumkin, lekin ularga qo'yilgan nomlarni aslo yo'qotib bo'lmaydi [1, 15]. Bu borada O'zbekistondagi joy nomlari o'zgacha bir manzarani tashkil qiladi. O'zbek tilining o'ziga xos latofati, go'zalligi, boyligi, shirasi shahar va qishloqlar, daryolar, buloqlar, tog'lar, qirlar, bir so'z bilan aytganda, joy nomlari – toponimlarda o'zining yaqqol ifodasini topgan. Buni ko'hna va hamisha navqiron Qashqadaryo hamda Andijon viloyati toponimlari misolida ham ko'rish mumkin.

Asosiy qism. Ma'lumki, joy nomlarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan til birligiga toponim deyiladi. Toponim yunoncha *topos* – joy va *onoma* – nom so'zlaridan olingan bo'lib, leksikologiyaning joy nomlarini o'rganuvchi bo'limi, ma'lum bir hududdagi joy nomlari majmuasi ma'nolarini anglatadi [2, 110].

Joy nomlari – keng tushuncha. U “yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug'rofiy va sun'iy (inson yaratgan) ob'yektlarning atoqli otlari: oykonim, oronim, speleonim, xoronim, urbanonim, drimonim, nekronim kabi 100 ga yaqin geografik ob'yektlarni, tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashsak, onomastik ko'lam va ko'lamchalarni o'z ichiga qamrab oladi” [3, 76-77]. Shulardan biri suv bilan bog'liq bo'lgan nomlar – gidronimlar hisoblanadi.

Gidronim yunoncha *hydor* – suv, *onyma* – nom so'zlaridan olingan bo'lib, oqar va turg'un suv hamda suv havzalari nomlari sanaladi [2, 30].

Ushbu maqolada Qashqadaryo va Andijon viloyatidagi gidronimlarga xos bo'lgan umumiy va xususiy jihatlarni aniqlashga urinib ko'rdik.

Har ikkala viloyat bilan bog'liq joy nomlari S.Qorayev, N.Hasanov, A.Muhammadjonov, T.Nafasov, N.Oxunov, A.Ergashev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan [qarang, 4].

Ma'lumki, toponimlarda har bir tilning o'ziga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlari ko'proq bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti, aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, shu yerga asos solgan kishi nomlari, tarixiy shaxslar va ular faoliyati bilan bog'liq voqealar toponimlarning vujudga kelishida asosiy lisoniy manba hisoblanadi [5, 35]. Bu holat, ayniqsa, suv bilan bog'liq nomlarda kuchli kuzatiladi. Bu kabi nomlarni O'zbekistondan va ikkala viloyatdan istagancha topish mumkin. Vodiy viloyatlaridagi gidronimlar yuzasidan doktolrlk ishini bajargan N.Uluqovning aytishicha, Farg'ona vodiysida 6,5 ming gidronomik nom bor. Ishda ularning 36 ta turi farqlangan [6, 4-19].

To'plagan materiallarimiz asosida ularni mikroko'lamchalarga ajratishga harakat qildik.

1. Buloq nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *Abdalbuloq, Ayirg'a, Arpabuloq, Beshbuloq, Bodaki, Bo'talabuloq, Gulbog', Gulbuloq, Gumbaz, Devonbuloq, Yonabu, Yong'oq, Jangalbuloq, Jiya, Jiydali, Junivoybuloq, Zirkbuloq, Kamar, Ko'kcha, Qamashibuloq, Qashmuyar, Qizilbuloq, Qizilqo'ton, Qoqbuloq, Qoraqara, Qo'ng'izbuloq, Qo'riq, Qo'tirso'lak, Lo'libosti, Obichashma, Oqbuloq, Olabuloq, Polabuloq, Sabziq, Sassiychashma, Tovulchak, Tomchi, Toshbuloq, Xarkalla, Xo'janye'mati, So'rbuloq, So'rcha, Cho'yansoy va h.k.*

Andijon viloyati bo'yicha: *Shirmonbuloq, Oybuloq, Oqbuloq, Sovuqbuloq, Fozilmon ota bulog'i, Abduhakimbuloq, Shirag'anbuloq, Uchbuloq va h.k.*

2. Ariq nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *Ajirchasoy, Arabbandi, Gov, Darxon, Denov, Jaztyepa, Jar, Janbo'z, Ko'lob, Qamashi, Qorasuv, Qoratyepa, Qoracha, Qumariq, Loyqa, Mo'minobod, Oqariq, Po'lati, Savbog', Sariq, Xabar, Xonobod, Xo'jaariq, Yangikent va h.k.*

Andijon viloyati bo'yicha: *Damariq, Yov, Yozyovon, Jo'ga, Qaqir, Qatortol, Miyon, Naynavo, Katta ariq, Do'stariq, Nishab, To'rtko'lkada, Uyshshinariq, Xakan, Xo'ja, Eshon, Yangiariq, Xonariq va h.k.*

Andijondagi ariqlar haqida Zahiriddin Muhammad Bobur: *"To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas"*– deb yozadi [7,58]. Andijonliklar mazkur 9ta ariq nomini saqlab qolganlar: *Xakanariq, Burxonshayx, Jo'yibozor, Xo'tanariq, Bo'g'roxon arig'i, Oqravot, To'qmoq, Bobotavakkal, Dalvarzin.*

Bobur ariq o'rnida *tarnov* so'zini qo'llagan.

TARNOV [forscha: suv oqadigan, o'tadigan quvur] Yomg'ir, qor suvlari oqib tushishi uchun tom chyetlariga o'rnatiladigan, yohoch yoki tunukadan quvur yoki ariqcha shaklida yasalgan moslama [8,165].

3. Soy nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *Abdi, Ajirchasoy, Almatsoy, Arabbandi, Baqati, Beshqo'ton, Beshsoy, Bulquloq, Bulutxona, Varanko'lsoy, Voxinsoy, Gandagerim, Gandasoy, G'elon, Govxona, Govxonasoy, Guldara, Gumushlik, Gurati, Gurunlak, Davronsoy, Dandonchakan, Darasoy, Dashtsoy, Dug'ob, Do'konxona, Yelsoy, Javaqli, Jar, Jarsoy, Jarshashir, Zarangzorsoy, Zoqchisoy, Ingichka, Ingichkasoy, Sichqonsoy, Yo'natsoy, Ichkalibuloq, Ichkilik, Kavraysoy, Kallasoy, Kindik, Kindiktyepa, Kon, Ko'kashsoy, Ko'kdaryo, Kunko'rmas, Kuyukdaryo, Qaynarbuloq, Qayrag'ochsoy, Qizilangur, Qizilgaza, Qizilko'l, Qizilsoy, Qishloqsuv, Qovluq, Qoplondara, Qora archa, Qora dahana, Qoranko'l, Qorako'lsoy, Qorasuv, Qorachashma, Qorong'iliksoy, Qo'ybor, Qo'rnonak, Qo'rg'onaksoy, Qurko'l, Qursoy, Quruqlisoy, Quruqsoy, Qutchi, Qushliq, Qushtuvasoy, Quyuqchinor, Langar, Mamarli, Navdarz, Navchaqar,*

Obakihonaqo, Obishxondaryo, Oyoqchidaryo, Oqquldiqsoy, Oqota, Oqgravot, Oqsoy, Oqsuv, Oqtosh, Olayluq, Omonchiqsoy, Otxona, Oftobro'ya, Oxirgiqishloqsoy, Oxirgisoy, Polvonsoy, Rahimsoy, Salimsoliq, Sangpastsoy, Sanginak, Sarituz, Sarito'qay, Sarich, Sarobi, Soyjilg'ako'l, Suvjar, Suvlisoy, Suvtushar, Takalik, Tarag'aysoy, Temirsandiq, Tyemiro'g'li, Tirna, Tyerakli, Toldi, Tomchisoy, Toshbuloq, Toshqal'a, To'laq'loqsoy, To'lasoy, To'tko'l, To'rtqo'yliq, Uvildilik, Uyshinsoy, Ulug'dala, Fayzullo, Xo'jaqo'rg'on, Xo'jaorolsoy, Chaqcha, Chappasuv, Chashmai kanda, Chashmai obizamzam, Chilhazor, Chimboy, Cho'yanlisoy, Sharda, Shardaryo, Shirindaryo, Sho'rdaryo, Sho'rsoy, Egrisuv, Yaroqsoy va h.k.

Andijon viloyati bo'yicha: *Andijonsoy, Shahrixonsoy, Moylisoy, O'rmonsoy, Yangi Naynavo, Tentaksoy va h.k.*

4. Daryo nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *G'ulondaryo, G'uzordaryo, Jinnidaryo, Katta O'radaryo, Kichik O'radaryo, Qashqadaryo, Qizildaryo, Qorasuv, Qumdaryo, Oqdaryo, Oqsuv, Tanhozaryo, Yakkabog'daryo va h.k.*

Andijon viloyati bo'yicha: *Norin, Qoradaryo, Arabonsoy, Sirdaryo, Xolmurod, Qolzandaryo, Norin va h.k.*

5. Kanal nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *Beshariq, Bo'ston, Darxon, Jeynov, Zarbuloq, Imomyoqub, Koson, Lagandi, Makrat, Mirishkor, Mudun, Navqot, Obinavvot, Paxtaobod, Pistaxon, Po'lati, Rudaksoy, Sandal, Ushoqtyepa, Fazli, Xitoy, Chil, Qamrad, Qavchin, Qoributan, Qumdaryo, Halqabod va h.k.*

Andijon viloyati bo'yicha: *Katta Farg'ona kanali, Katta Andijon kanali, Janubiy Farg'ona kanali, Shimoliy Farg'ona kanali, Qurama, Chinobod, Do'stlik, Yangi Ko'ratma, Savay, Tuyamo'yin, Karkidon, Paxtaobod, Ulug'nor va h.k.*

6. Kollektor nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *Badaxshon, Dasht, Duyul, Jonboz, Juyruk, Zax, Loyqa, Uzunquduq, Tinibek, Xonobod, Shamolquduq, Sho'rsoy, Sho'rcha, Yangidaryo, Qalli, Qorabayir, Qorabog'soy va h.k.*

Andijon viloyati bo'yicha: *Zambarko'l, Sariqsuv, Sherqo'rg'on, Mazgilsoy, Jo'ga, Abduamat, Sariqjo'ga, Chyegara va h.k.*

7. Ko'l nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *Qorabuloq, Tortar, Tuyako'l, Halimko'l, Sho'rko'l va h.k.*

Andijon viloyati bo'yicha: *Ko'l, Oltinko'l, To'rtko'l, To'dako'l va h.k.*

8. Suv ombori nomlari. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: *Berdi, Bozorko'l, Karim, Kelin, Langar, Latta, No'g'ayli, Pachkamar, Uvana, Xo'ja, Chilgumbaz, Chimqo'rg'on, Shamshiqoq, Sho'rabsoy, Yangiqo'rg'on, Qalqama, Qamashi, Qizilsuv, Hamro, Hisorak va h.k.*

Andijon viloyati bo'yicha: *Andijon, Kampirobod, Otchopar, Asakaadir va h.k.*

9. Qashqadaryo viloyatining boshqa joylarda uchramaydigan muzlik nomlari: *O'rtachilhazor, Chapchilhazor, Chilhazor va h.k.*; sardoba nomlari: *Yakka*; sharshara

nomlari: *Svutushar*; suv tashlamalari nomlari: *Jar, Sangak, Qirlisoy*; quduq nomlari: *Taqirquduq, Cho'lyotoq, Alaqum, Po'lat bobo, Shirinquduq, Mo'minyotoq, Sho'rko'lyotoq, Qurbonboy, Beshquduq, Obbaquduq, Sutxona, Yutar, Berdiquduq, Avazcho'l, Hachcha, Qo'shjarli, Daraxtli, Kapali* va h.k.larning ham viloyat onomastik ko'lamida mavjud bo'lishini ta'minlagan.

Toponimlarni tadqiq qilish amaliyotidan ayonki, ma'lum bir hududning geografik nomlarini o'rganayotganda, toponimlarni o'rganish va tasniflashda sezilarli natijalarga erishish uchun ularning turli parametrlariga e'tibor berish taklif qilinadi [9,18].

Natija va muhokamalar. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikkala viloyatdagi gidronimik nomlar ko'lami va lisoniy belgilariga ko'ra o'ziga xos manzarani tashkil etadi. Ayniqsa, gidronimlarning leksik-semantik guruhlari bizga buloq, soy, daryo, ko'l, quduq va shu kabi nomlarning nominatsiyasidagi ko'z ilg'amas xususiyatlarini oydinlashtirishga yaqindan yordam beradi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Antropogidronimlar: *Almatsoy, Davronsoy, Rahimsoy, Salimsoliq, Fayzullo* (soy nomlari); *Imomyoqub* (kanal nomi); *Tinibek* (kollyektor nomi); *Berdi, Karim* (suv ombori nomlari); *Po'lat bobo, Mo'minyotoq, Qurbonboy, Berdiquduq, Avazcho'l*, (quduq nomlari) va hokazo. Bular shaxsning joy (obyekt) bilan aloqadorligi, bog'liqligi asosida yuzaga kelgan gidronimlar sanaladi. [10, 29].

2. Etnogidronimlar: *Lo'libosti, Xo'janye'mati* (buloq nomlari); *Arabbandi, Uyshinsoy, Xo'jaqo'rg'on, Xo'jaorolsoy* (soy nomlari); *Darxon, Xitoy, Qavchin* (kanal nomlari); *No'g'ayli, Xo'ja* (suv ombori nomlari) va hokazo.

Etnotoponimlar xalq, millat, urug' nomlaridan va ular ishtirokida hosil b'ylgan joy nomlaridir [11, 43]. Ular ichida etnogidronimlar muhim o'rin tutadi.

3. Fitogidronimlar: *Arpabuloq, Gulbog', Gulbuloq, Yong'oq, Jangalbuloq, Jiyda, Jiydali, Zirkbuloq* (buloq nomlari); *Guldara, Zarangzorsoy, Kavraysoy, Sarito'qay, Terakli, Toldi, Qayrag'ochsoy, Qoraarcha, Quyuqchinor* (soy nomlari); *Bo'ston, Pistaxon* (kanal nomlari) va hokazo. Fitogidronimlarda xalqning poetik tafakkuri zuhr bergani ko'zga tashlanadi. *Pistaxon, Quyuqchinor* gidronimlari fikrimizga dalil bo'la oladi.

4. Topogidronimlar: *Qamashibuloq, Qamashi, Yangikent* (ariq nomlari); *Varanko'loy, Voxinsoy, Qishloqsuv* (soy nomlari); *G'uzordaryo, Yakkabog'daryo* (daryo nomlari); *Navqot, Po'lati* (kanal nomlari); *Badaxshon* (kollektor nomi) va hokazo.

5. Zoogidronimlar: *Qo'ng'izbuloq, Gov, Govxona, Govxonasoy, Sichqonsoy, Qoplondara, Qo'ybor, Otxona, Takalik, Qorabayir, Tuyako'l* va hokazo.

5. Rang bilan bog‘liq nomlar: *Ko‘kcha, Qorabuloq, Qizilbuloq, Qizilqo‘ton, Qoraqara, Oqbuloq, Olabuloq* (buloq nomlari); *Qorasuv, Qoratepa, Qoracha, Sariq*, (ariq nomlari); *Ko‘kashsoy, Ko‘kdaryo, Qizilangur, Qizilgaza, Qizilko‘l, Qizilsoy, Qora archa, Qora dahana, Qoranko‘l, Qorako‘lsoy, Qorasuv, Qorachashma, Oqquldiqsoy, Oqota, Oqgravot, Oqsoy, Oqsuv, Oqtosh* (soy nomlari); *Qizildaryo, Qorasuv, Oqdaryo, Oqsuv*, (*daryo* nomlari); *Qorabayir, Qorabog‘soy* (kollyektor nomlari); *Qorabuloq, Qizilsuv*, (suv ombori nomi) va hokazo. E‘tibor berilsa, qora gidroelementi bilan buloq, ariq, soy, kollektor, suv ombori va h.k.lar hosil qilinyapti. Bu mazkur leksik birlikning gidronimlar yasashdagi faolligidan dalolat beradi.

6. Son bilan bog‘liq nomlar: *Beshbuloq* (ariq nomi); *Beshqo‘ton, Beshsoy, To‘rtko‘l, To‘rtqo‘yliq* (soy nomlari); *Beshariq* (kanal nomi); *Beshquduq* (quduq nom) va hokazo.

7. Sifat bilan bog‘liq nomlar: *Bo‘talabuloq, Qoqbuloq, Qo‘tirso‘lak, Polabuloq, Sassiqlihashma, Sho‘rbuloq, Sho‘rcha*, (buloq nomlari); *Loyqa* (ariq nomi); *Qizilgaza, Qorong‘iliksoy, Quruqlisoy, Quruqsoy, Quyuqchinor, Oxirgiqushloqsoy, Oxirgisoy, Sangpastsoy, Soyjilg‘ako‘l, To‘laqo‘lsoy, To‘lasoy, Shirindaryo, Sho‘rdaryo, Sho‘rsoy, Egrisuv* (soy nomlari); *Jinnidaryo, Qashqadaryo* (daryo nomlari); *Uzunquduq, Shamolquduq, Sho‘rsoy, Sho‘rcha, Yangidaryo* (kollyektor nomlari); *Halimko‘l, Sho‘rko‘l* (ko‘l nomlari); *Latta, Sho‘rabsoy* (suv ombori nomlari); *Yakka* (sardoba nomlari); *Taqirquduq, Shirinquduq, Sho‘rko‘lyotoq* (quduq nomlari) va hokazo.

Sifat bilan bog‘liq nomlar chida qoq so‘zi e‘tiborni tortadi. Andijon viloyatida yerga oid *qoq* so‘zi qo‘llanadi. Qashqadaryoda *Qoqbuloq* gidronimi mavjud. Professor N.Uluqovning aytishicha: “Qoq – yog‘in yoki ko‘lmak suvlar to‘plangan suvlik ma‘nosini anglatadi” [6, 101]. Demak, Qoqbuloq yomg‘ir va qor suvlaridan hosil bo‘lgan buloq sanaladi.

8. Ob-havo bilan bog‘liq nomlar: *Bodaki* (ariq nomi); *Yelsoy* (soy nomi); *Shamolquduq* (kollyektor nomi) va hokazo.

9. Chashma leksemasi ishtirokida yasalgan gidronimlar: *Obichashma, Sassiqlihashma* (ariq nomlari); *Qorachashma, Chashmayi kanda, Chashmayi obizamzam* (soy nomlari) va hokazo. *Chashma* so‘zi forscha *chashma – buloq, manba* so‘zlaridan olingan bo‘lib, “yer ostidan chiqayotgan suv manbai va uning suvi” ma‘nosini bildiradi [12, 405].

Andijon viloyatida forsiyzabon millat vakillarining suv yoqalarida zich joylashmaganligi sababli chashma bilan yasalgan gidronimlar deyarli uchramaydi. Qashqadaryo viloyatida esa bunday aholi vakillari ko‘pchilikni tashkil etadi va yuqoridagi kabi gidronimlarning uchrashi tabiiy.

Xulosalar. Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkin: har ikkala viloyat hududidagi oqar va to‘xtam suvlar: buloqlar, ariqlar, kanallar, ko‘llar va

h.k.lar nomini bildiruvchi gidronimlar o‘zbek tilining boy onomastik qatlamini tashkil qiladi. Ularda shu yerda yashovchi xalqlarning dunyoqarashi, urf-odatlarini, turmush tarzi o‘zining yaqqol ifodasini topgan. Hidronimlarning leksik-semantik guruhlari suv manbalariga nom berish usullarining xilma-xil ekanligini tasdiqladi. Muayyan shaxs, urug‘, qabila, elat nomlari asosida yasalgan gidronimlar mazkur qatlamning sezilarli qismini tashkil etadi.

Shuningdek, suv manbalari joylashgan hududdagi daraxtlar, suv yoniga in qurgan yovvoyi hayvonlar, rang, miqdor, tam bilan bog‘liq nominatsiyalarda ham qiziq faktlar qayd etildi. Bu kabi nomlarni o‘rganish xalqimizning tafakkur lahazalarini o‘rganishda alohida qiymatga ega.

Adabiyotlar:

1. Nikonov V.A. Vvedeniye v toponimiku. – M.: Nauka, 1965. –179 s.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 168 b.
3. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – 104 b.
4. Xasanov X. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 80 б.; Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 240 b.; Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 432 b.; Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent, 2006; Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati (Maktab o‘quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 88 b.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б. Охунов Н. Фарғона водийси антропоойконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 2. – Б. 26-30; Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол.ф.н. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2012. – 135 б.
5. Turdibekov M. Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlari: Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2022. – 256 b.
6. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лосоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.
7. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Академик нашр. – Тошкент: Фан, 1960. – 509 б.
8. Isaqov F. “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at. – Andijon: “Andijon” nashriyot-matbaa OAJ, 2006. – 236 b.

9. Суперанская А.В. Языковые и внеязыковые ассоциации собственных имен. – М., 1970. – С. 3–18.
10. Охунов Н. Фарғона водийси антропоойконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1997, – № 2. – Б. 27-32.
11. Karimov S.A., Bo‘riyev S.N. O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 43.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4 жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 бет.

ABOUT SOME ETHNOMYTHS

(in the example of toponyms of Namangan region)

Nematova Yulduz Odiljanovna,
doctor of philological sciences (PhD)

Karshi State University

nematovaulduz5@gmail.com

Yunusova Barchinoy Mahmudkhanovna

teacher of the department of Uzbek language and literature

Namangan State University

barchinoyyunusova21@gmail.com

Annotation. The ethnic composition of the population, the names of settlements representing their clan, tribe, nation, people – ethno-identifiers form a large group in Namangan region. Ethnoicons are a relic of a long historical period and represent the ethnic composition of the population, which clan, tribe, nation, nation they belong to. It is known that the Uzbek people are made up of clans. Accordingly, the place names in the Uzbek language were formed as a result of mixing and merging of various clans and tribes over many years. It should be noted that the names of many clans and tribes of the Uzbek people are now being forgotten.

Keywords: Oykonym, historical oykonyms, ethnonyms, etymology, etymology, motif, lexical base, clan, tribe, nation.

BA’ZI ETNONIMLAR HAQIDA

(Namangan viloyati toponimlari misolida)

Nematova Yulduz Odiljanovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qarshi davlat universiteti

nematovaulduz5@gmail.com

Yunusova Barchinoy Mahmudhanovna

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Namangan davlat universiteti
barchinoyyunusova21@gmail.com

Annotatsiya. Namangan viloyati aholisining etnik tarkibi, aholi yashash joylari nomlarini tashkil etuvchi urugʻ, qavm, millat, xalq nomlari etnoindikatorlari koʻpchilikni tashkil etadi. Etnoindikatorlar uzoq tarixiy davrlarning mahsulidir va ular aholining etnik tarkibini, yaʼni qaysi ulugʻ, qavm, millat, xalqqa tegishli ekanligini bildiradi. Maʼlumki, oʻzbek xalqi urugʻlardan tarkib topgan. Shunga koʻra, oʻzbek tilida toponimlar turli urugʻ va qavmlarning koʻp asrlik aralashuvi va qoʻshilishi asosida hosil boʻlgan. Shuni taʼkidlash muhimki, hozirgi kunda oʻzbek xalqining koʻpgina urugʻ va qavmlari unutilib bormoqda.

Kalit soʻzlar: oykonim, tarixiy oykonimlar, etnonimlar, etimologiya, motiv, leksik boylik, urugʻ, qavm, xalq.

О НЕКОТОРЫХ ЭТНОНИМАХ (на примере топонимов Наманганской области)

Нематова Юлдуз Одилжановна
доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каршинский государственный университет
nematovaulduz5@gmail.com

Юнусова Барчиной Махмудхановна
преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы
Наманганский государственный университет
barchinoyyunusova21@gmail.com

Аннотация. Этнический состав населения, названия населенных пунктов, представляющие свой род, племя, нацию, народ – этноиндикаторы образуют большую группу в Наманганской области. Этноиндикаторы являются пережитком длительного исторического периода и отражают этнический состав населения, т.е. к какому роду, племени, нации они принадлежат. Известно, что узбекский народ состоит из кланов. Соответственно, топонимы в узбекском языке образовались в результате смешения и слияния различных родов и племен на протяжении многих лет. Следует отметить, что названия многих родов и племен узбекского народа сейчас забываются.

Ключевые слова: ойконим, исторические ойконимы, этнонимы, этимология, этимология, мотив, лексическая база, род, племя, народ.

Introduction. Since toponyms are a unique linguistic and cultural-educational wealth created during the centuries-old history of the nation, which make up a significant part of famous nouns in world linguistics, are considered the "language of the land" and are a source of rich material for the sciences of linguistics, history, geography, archeology, ethnography, and geology. has always been in the spotlight. Nowadays, the sociolinguistic, ethnolinguistic, psycholinguistic, pragmalinguistic, anthropocentric, linguocultural approach to the study of toponyms, including oikonyms, is increasing.

In world linguistics, the field of toponymy is a developed and improved scientific direction. Now, all units of the toponymic scale, which are rapidly enriching and improving both in terms of quantity and quality, including oikonymic units that provide rich linguistic information about the history, geography, nature, ethnic composition of the population and other aspects of population addresses - neighborhoods, villages, towns and cities research in historical and contemporary aspects based on new linguistic paradigms was put on the agenda. The historical-linguistic study of oikonyms has both scientific and practical importance from the point of view of allowing to study the development of the language and its onomastic system, formal and substantive improvement.

Ethnoicons are a relic of a long historical period and represent the ethnic composition of the population, which clan, tribe, nation, nation they belong to. It is known that the Uzbek people are made up of clans. Accordingly, the place names in the Uzbek language were formed as a result of mixing and merging of various clans and tribes over many years. It should be noted that the names of many clans and tribes of the Uzbek people are now being forgotten. Nevertheless, even today such ethnic names are preserved in the system of place names in the territory of our republic, including in the Namangan region.

Materials and methods. In the analysis of this article, we turned to several methods. One of the main principles of scientific analysis in any science is historicity. The principle of historicity is very important in the analysis of oikonimic material, because the roots of past history, ethnography, and archeology of the people are expressed in oikonims. Therefore, oikonyms are studied from the point of view of history, ethnography.

The approach to the study of oikonim from a historical point of view has led to the wide application of historical, archaeological and ethnographic data and evidence to various disciplines.

Foreign scientists such as V. Georgiev, V. Tashitsky, S. Rospond, F. Bezglay, including A. M. Selishev, B. A. Serebrennikov, A. I. Popov, V. Russian scientists such as A. Nikonov, V. N. Toporov, O. N. Trubachev, Yu. A. Karpenko are of great service.

When studying onomastic units from a historical point of view, the following two directions are followed:

- a) the method of determining the changes from the historical state of the onomastic material to its current appearance (perspective analysis method);
- b) to determine the historical development process from the current state of the onomastic material to its historical state (retrospective analysis method).

Of course, this also applies to the oikonomic microscale. The main goal of both analysis directions is to determine the processes of development and change of oikonim [1]. In the first type of change, the linguistic history and evolution of onomastic units, including the names of neighborhoods, villages, cities, towns, are determined, and in the second, the reflection of the spirit of the time is taken into account in one or another onomastic units.

Areal (lat. arealis < area – area, space) **method.** In the study of onomastic units, including oikonims, the well-known names of population addresses in a specific oikonomic area - region are analyzed based on the areal method. Oykonymic units: the boundaries of distribution of polysonyms and comonyms in the area are determined on maps. For example, the area of application of oikonymic indicators, the distribution areas of oikonims formed on the basis of the motivation of a certain ethnic group, i.e. ethnooikonims, are determined in this method.

Results and discussions. *The Kipchak* tribe is one of the largest and main clans of the Uzbek population. Mahmud Koshgari in his work "Devonu lugotit turk" expresses the following thoughts about the Kipchaks: "The Kipchaks came from Western Altai in the VI century to the lands of Mongolia and Tuva, and the second part moved to the steppes near the Irtysh river, expanding their borders and occupying many places in the XI century. This vast area is called "Dashti Kipchak". The Kipchaks engaged in cattle breeding, clans were headed by a bek, and the tribe was led by a khan. Women also took part in the plundering wars of the Kipchaks, who had cavalry [2]. The Kipchaks were defeated by the Mongols and became part of the Golden Horde. Intermingled with the local population. The Kipchaks became part of the ethnic composition of the Uzbek people, as well as the Kazakh, Kyrgyz, Karakalpak and other Turkic peoples, and participated in their formation as a nation. In the territory of Uzbekistan, the Kipchaks settled in the districts between Samarkand and Kattakorgan, on the right bank of the Amudarya, in the northeastern and northwestern parts of the Fergana valley. Prof. According to Karim Shoniyozov, the total number of Kipchaks living in the territory of our republic in the first quarter of the 20th century was 127,000. Of these, 52,100 people lived in the Zarafshan Valley, and 42,400 people lived in the Fergana Valley [3].

The Kipchak tribe is divided into several clans: *Kogay, Bugach, Kumshoy, Immortal, Yashikh, Zhaydak, Puchughoy, Elaton, Bogaz, Ogym, Toz, Sirmaq, Ettikashka, Kutlug Seid, Cherik, Kokboyin, Toraigyr, Tovuldi, Changarakh, Chiyal, Kulon*, divided into such as *akboira, karabovur, Bashkirt, tikon, karatikon, sarikipchak, karaboyin*. Currently, most of the names of these Kipchak clans have been preserved as the names of the regions where they lived. For example, in the Namangan region, the following names related to Kipchak clans are found: *Yaidoq, Yalong'och, Yashiq, Baymoq, Saray, Qatogonsaray, Naymancha, Arbagish, Chongbagish, Duval, Kuram, Like Naiman, Uychi, Gugayo'lmas, Kogai, Kazakovul*.

Field – The name of a village in Yangikurgan district. *Field*– the name of one of the Kipchak tribes, an ethnonym. This word is morphologically an adjective, meaning *without a saddle*. Etymologically, it is formed by adding the suffix *-q* to the form formed by adding the suffix *-la*, which means strengthening, of the verb *yay*, which means *"distribute", "remove" in the old Turkish language*; later the consonant *-l* changed to the consonant *-d*, the vowel *-a* before the consonant *-q* changed to the vowel *ā*: *yay+laq > yaylaq > yaydaq > yaydâq > yaydaāq* [4]. This word is also used in the form *yaydav*. [5] Thus, *Yaidoq* oikonym, which was formed on the basis of the ethnonym *Yaidaq*, which means *"without a saddle-harness"*, means the concept of *a place where people belonging to the Yaidako clan of Kipchaks live*. The form of *Yaydaq* oikonym in the local dialect is *Djaidaq*.

Naked – The name of a village in Yangikurgan district. The adjective *"bare"* was formed from the form *"yalyan"* of the adjective *"without"* in the old Turkic language with the suffix *-ghach*, which means diminutive; after adding the suffix *ñ* consonant changed to consonant *n*; in Uzbek, the vowel *a* after the consonant *g* has changed to the vowel *â*, the vowels *a* in the first and second syllables have changed to the vowels *ä*: *yalañ+g'ach > yalañg'ach > yalang'ach > yalang'âch* [6]. This word is used in the modern Uzbek language in the sense of *not wearing clothes, without a head, without clothes* [7].

The show of S. Gubaeva, who studied the ethnonyms of the Fergana Valley, is *naked*. the name of one of the clans of the Kipchak tribe– ethnonym [8]. So, the ethnonym *"naked"* meaning *"not wearing clothes"* was the basis for the formation of the *"naked"* oikonym. Oykonom has the toponymic meaning of *"place of residence of people belonging to the naked clan"*. There is also a village with the same name in the city of Tashkent, a village in the Buvayda district of the Fergana region, and a place in the city of Ko'kan [9].

Saray is the name of a village in Chortoq district. Local residents associate the formation of Oykonom with the word *caravanserai*. It is said that there were caravansary connecting Kyrgyzstan, Zarkent, Hazratshah with Chortoq in the village area. It is assumed that there were three caravansary at the beginning. The rest of the

land is covered with reeds and bushes. These palaces belonged to Eshonboy, Sulaymonkul, Khojamurad Dodho and Eshonhoja Bai. Since caravanserais were along the road, caravans used to enter and leave for the night. Now there is no trace of them. [10]The village was called Saray because of these caravanserais. In our opinion, the name was formed on the basis of the ethnonym of the palace.

Saray is the name of one of the clans of the Kipchak tribe. Saray is one of the largest tribes of the Uzbeks. Recorded in all lists of the Uzbek people, the dialects of the palaces are close to the literary language.

A small group of palaces was also part of the Argyn tribe of Kazakhs. According to the population census conducted in 1924-1926, the number of palaces living in the territory of Uzbekistan was more than 50,000, of which 15,000 lived in Bukhara oasis, 20,000 lived in Karmana oasis. In particular, there are palaces in Namangan region. We think they live in Chortoq, Torakorgan districts.

According to Professor H. Doniyorov, the Sarai tribe is further divided into the following clans: Chem Sarai, Kungirod Sarai, Jomon Sarai, Mojoy Sarai, Golden Tamga Sarai, Soydan Tuman Sarai and Jolong'och (Naked) Sarai [11].

The Sarays were formed as an ethnic group in Dashti Kipchak during the 14th-15th centuries and settled in the territory of Uzbekistan together with other Uzbek tribes in the 16th century [12].

Saray oikonym in the system of toponyms of Namangan region was formed on the basis of this ethnonym and means *the place where people belonging to the Saray clan live*.

A branch of the Saray clan is known as Katagonsarai. The icon of Katagonsarai in Torakorgan district was formed on the basis of this ethnonym.

Havul is the name of a village in Pop district of Namangan region. This name is not related to the word *hurricane*, which means "*strong storm*". The name was originally in the *Tovul* form: later, as a result of voiceless *t* at the beginning of the word, it became voiced and changed to *d*. *Tovul* is actually the name of one of the Kipchak clans of the Ferghana Valley. The name of the village was based on the name of this ethnic group [13].

Elaton is the name of villages in Uychi, Uchkurgan, Yangikurgan districts of Namangan region. Elaton is one of the Kipchak clans of the Ferghana Valley. Village names are related to this ethnonym. Also, *Oljatopi* is a village in Uchkurgan district of Namangan region, and this name is also based on the ethnonym of [14] *Olja* belonging to the Kipchaks.

Dumor, Tumartop - The name of a village in Norin district. S. Koraev noting that the meaning of the name [15] *Dumor* is not known, he mentions that there was a

Kipchak clan named Dumar (Tumar) in the Fergana Valley and connects the naming of villages with this ethnonym.

In the toponymy of Uzbekistan, such names as *Tumorchi* (Kashkadarya v. Karshi t.) [16], *Tumor* (Samarkand v. Pax. t., Ishtikhon t.) are also observed [17].

In our opinion, *dumar* is really an ethnonym, it has the phonetic variants *tumar* // *amulet*. As mentioned above, the number of villages with the same name also confirms our opinion. *Tumortop* oikonym in Norin district was also formed based on the ethnonym *tumor* // *dumor*. Oikonym consists of morphemes such as *amulet* and *ball*. The word "ball" is a noun and in ancient Turkic language it means [18] *base, root*. According to Sh. Rakhmatullaev, the current meaning of the word grew out of the meaning of "root" [19]. Therefore, *Tumartop* is an ethnonym according to the basis of the name, and the combination of *the base of amulets* is its etymology. Oikonym means *the place where the base of the talisman seed resides*. *Dumar* icon is also formed based on the phonetic variant of the word *tumar*.

Conclusion. Oikonym informs about the places of residence of our ancestors and other Turkic peoples, tribes and peoples.

By observing toponyms, it is also possible to learn whether the ethnic group living in an area lived a sedentary or nomadic life in the past. According to scientific studies, settled and nomadic peoples differ in naming places. On the other hand, when the population is settled, the place is named according to its natural and geographical features, on the contrary, when the population is nomadic, the place is named after its clan and tribe [20].

In the etymological analysis of Oikonoms, along with folk etymology, it is necessary to pay serious attention to the analysis of the etymology of the name, the lexical basis of the name.

Etymological analysis of oikonoms When naming villages, towns and cities, the characteristic feature (ethnic composition of the population) specific to this region is taken into account. Although the names representing the ethnic composition of the local population – ethnonyms disappear under the influence of the development of society, they remain in the toponymic, in particular, the oikonymic lexicon as a special distinguished name of the population's addresses.

The ethnic composition of the population, the names of settlements representing their clan, tribe, nation, people – ethno-names constitute a large group in Namangan region. Such symbols provide a lot of information about various tribes and peoples who have lived in certain regions since ancient times, and are of great importance in determining the limits of their distribution.

REFERENCES

1. Begmatov E. Place names are a mirror of spirituality. – Tashkent: Spirituality, 1998. – B.7.
2. Yoldoshev B. Issues of Uzbek onomastics. – Samarkand, 2011. – B.
3. Sanaev I. This is the old world. – Tashkent: Adolat, 1996. – B. 40.
4. Shaniozov K. Ethnic history of the Uzbek nation. – Tashkent, 1974. – P.110-112.
5. Sevortyan E.V. Etymological dictionary of Turkish language. – M., 1989, T. IV. - S.79; Rahmatullaev Sh. Etymological dictionary of the Uzbek language (Turkish words). – Tashkent: University, 2000. – B.130.
6. An explanatory dictionary of the Uzbek language. – M.: Russian language, 1981, Volume II. – B.476.
7. Sevortyan E.V. The same dictionary, volume IV, page 106.
8. Rahmatullaev Sh. Etymological dictionary of the Uzbek language. – Tashkent: University, 2000. – B.360.
9. An explanatory dictionary of the Uzbek language. – Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2006. – B.105.
10. Gubaeva S. Etnicheskiy sostav naseleniya Fergany v kontse XIX – nachala XX c. –Tashkent, 1983. – P.73-74.
11. Okhunov N. Definition of place names. – Tashkent: Uzbekistan, 1994. – P.67.
12. Radlov V.V. Opyt slovarya turkskikh narechiy. – St. Petersburg, 1893, .T.III., ch.I. – S. 248-249.
13. Nasilov V.M. Drevneuygur language. – M, 1963. – P.23
14. Team. History of Chortok district. – Tashkent: University, 1995. – B. 21.
15. Daniyorov H. Genealogies and dialects of the Uzbek people. – Tashkent, 1989.
16. National Encyclopedia of Uzbekistan. – Tashkent, 2006.
17. Okhunov N. Definition of place names. – Tashkent: Uzbekistan, 1994. – P.17.
18. Gubaeva S. Etnicheskiy sostav naseleniya Fergany v kontse XIX – nachala XX c. – Tashkent, 1983. – P.63.
19. Karaev S. The meaning of geographical names. – Tashkent: Uzbekistan, 1978. – B.50.
20. Nafasov T. Kashkadarya village register. – Tashkent: Muharrir, 2009. – B.250.

QO‘SHRABOT TUMANI TABIIY-GEOGRAFIK GIDRONIMLARINING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Nurmuhammedov Bahodir Shakarboyevich

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

bnurmaxammedov7@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda o‘zbek toponimikasi oldiga areal toronimlarni zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tadqiq etish vazifasi qo‘yilmoqda. Ushbu maqolada biz Qo‘shrabot tumanidagi tabiiy-geografik gidronimlarni struktur-semantik jihatdan tahlil qilib, ost kategoriyalarga ajratdik. Gidronimlarning shakllanish asoslari ularning ma’nolari, dialektik o‘zgarishlari, tarixiy asoslari bilan bir qatorda taniqli toponimshunos olimlarimizning ba’zi qarashlariga o‘zimizning fikrlarimizni bildirdik. Toponimlarning shakllanishida hayvonat olami, nabotot olami hamda geografik landshaft jihatini inobatga olib nom berishlari ushbu o‘rganilayotgan Qo‘shrabot tumani uchun tabiiy va salmoqli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushu tuman tabiiy-geografik gidronimlarida topoformantlarga qaraganda topoleksemalar faolroq ekanligini kuzatamiz. Ularning struktur tuzulishi esa odatda ikki o‘zakdan besh o‘zakkacha tashkil etilishini ko‘ramiz. Qolaversa, gidronimlarning shakllanishida odamlarning ismi bilan nomlanishini ham kuzatishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: gidronimlar, o‘zak, so‘z yasovchi, struktur, obyekt, leksik, grammatik, zoogidronim, topoformant, topoleksema, kategoriya, fitogidronim, landshafti, metaforik gidronim.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ГИДРОНИМОВ КУШРАБОТСКОГО РАЙОНА

Нурмухаммедов Баходир Шакарбоевич

исследователь Самаркандского института

иностранных языков

bnurmaxammedov7@gmail.com

Аннотация. Сегодня перед узбекской торонимикой стоит задача исследования ареальных торонимов на основе современных лингвистических исследований. В данной статье мы проанализировали природно-географические гидронимы Кушработского района со структурно-семантической точки зрения и разделили их на подкатегории. Мы высказали свои мнения на основе

образования гидронимов, их значений, диалектических изменений, исторических основ, а также некоторых взглядов наших известных топонимистов. Видно, что при образовании топонимов района Кушработ естественно и важно давать названия с учетом аспекта животного мира, мира природы и географического ландшафта. В природно-географических гидронимах этого района тополексемы более активны, чем топоформанты. Их структура обычно состоит из двух-пяти корней. Кроме того, мы можно наблюдать имена людей по при образовании гидронимов.

Ключевые слова: гидронимы, корень, словообразовательный, структурный, объект, лексический, грамматический, зоогидроним, топоформант, тополексема, категория, фитогидроним, ландшафт, метафорический гидроним.

STRUCTURAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF NATURAL- GEOGRAPHIC HYDRONYMS OF THE KUSHRABOTSKY DISTRICT

Nurmukhammedov Bakhodir Shakarboevich

researcher at Samarkand Institute
foreign languages

bnurmaxammedov7@gmail.com

Annotation. Today, Uzbek toponymics faces the task of studying areal toponyms based on modern linguistic research. In this article, we analyzed the natural geographical hydronyms of the Kushrabotsky district from a structural and semantic point of view and divided them into subcategories. We expressed our opinions on the basis of the formation of hydronyms, their meanings, dialectical changes, historical foundations, as well as some of the views of our famous toponymists. It can be seen that when forming toponyms of the Kushrabot region, it is natural and important to give names taking into account the aspect of the animal world, the natural world and the geographical landscape. In the natural geographic hydronyms of this region, topolexemes are more active than topoformants. Their structure usually consists of two to five roots. In addition, we can observe the names of people in the formation of hydronyms.

Key words: hydronyms, root, derivational, structural, object, lexical, grammatical, zoohydronym, topoformant, topolexeme, category, phytohydronym, landscape, metaphorical hydronym

Kirish. To'plangan materiallarimiz asosida Qo'shrabot tumanidagi tabiiy-geografik gidronimlar kategoriyasiga kiruvchi suv obyektlarini quyidagi subkategoriyalari farqlandi: 1) geografik obyektning xarakterli xususiyatini baholash ma'nosiga ega bo'lgan gidronimlar (*Sovuqbuloq, Achchiquduq, Sho'rbuloq, Muzbuloq, Shirinbuloq*); 2) geografik obyektning paydo bo'lish vaqti davriga ishora qiluvchi gidronimlar (*Yangiariq, Yangiqo'rg'onsoy*); 3) geografik obyektning joylashish o'rniga ishora qiluvchi gidronimlar (*O'rtakoriz*); 4) geografik obyektning tabiiy materiali tarkibiga ishora qiluvchi gidronimlar (*Toshbuloq, Harsangsoy*); 5) geografik obyektning uzunlik yoki qisqalik xususiyatini ifoda etuvchi gidronimlar (*Kaltakoriz, Uzunquduq, Kaltasoy, Chuqurquduq*); 6) fitogidronimlar (*Gujumsoy*); 7) zoogidronimlar (*Chumchuqlisoy*); 8) geografik obyektning tuproq xususiyati, rangi va tusini ifoda etuvchi gidronimlar (*Qorasuv, Oqquduq*); 9) geografik obyektning hajmini ifoda etuvchi gidronimlar (*Kichiksoy, Kattariq*); 10) hududning landshaftini o'zida ifoda etuvchi gidronimlar (*Jarquduq*); (11) geografik obyektning miqdorini ko'rastuvchi gidronimlar (*Qo'shariq, Uchbuloq*).

Mavjud dalillarga asoslanib, Qo'shrabot tumani gidronimlarini lug'aviy-grammatik jihatdan tuzilishi (strukturasi)ni quyidagicha guruhlarga ajratib tahlil etish mumkin.

1. Tumandagi o'zak+so'z yasovchi shakliga ega bolgan gidronim: *Mo'rilloq*.

2. Tumandagi o'zak+shakl yasovchi qo'shimcha strukturasi ega sodda yasama tuzilishga ega bo'lgan gidronimlar: bunday guruhga tuman hududidagi *Quduq+cha* singari toponimlarni kiritish mumkin.

3. Tumandagi ikki komponentli o'zak+o'zak shakliga teng bo'lgan qo'shma toponimlar: Bunday ikki o'zakli qo'shma toponimlarga *Beklar+soy, Gujum+soy, Yoz+buloq, Jar+buloq, Qora+soy* singari suv obyektlari nomlari mansubdir.

4. Tumandagi uch komponentli o'zak+o'zak+o'zak shakliga teng bo'lgan qo'shma toponimlar. Bunday murakkab strukturali toponimlar tuman hududida unchalik ko'p emas: *qora + soy + buloq* kabilar.

5. Tumandagi o'zak+so'z yasovchi qo'shimcha+topoleksema strukturasi ega sodda yasama tuzilishga ega bo'lgan gidronimlar: *Sandal + li + soy, Jiyda + li + soy, Burgut + li + soy* kabilar.

Tumandagi ikki o'zakli toponimlarni struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Ot+ot strukturali gidronimlar. Bunday guruhga tumandagi *Gujum+soy, Xo'ja+soy, Beklar+soy* kabi toponimlar kiradi.

2. Sifat+ot strukturali gidronimlar. Tumandagi *Qizil+buloq, Qora+tosh, Qora+soy, O'rta+soy, Katta + buloq* singari bir qancha gidronimlar shu guruhga mansubdir.

3. Son+ot strukturali gidronimlar. Bu guruhga tumandagi *Chor+boq+soy*, *Uch + buloq* singari toponimlarni kiritish mumkin.

4. Tovushga taqlid strukturali gidronimlar. Bunday strukturali toponim tuman hududida bitta ekanligi ma'lum bo'ldi: *Mo'rilloq* kabi.

Tumandagi ucho'zakli strukturali gidronimlarning leksik-semantik tahlili. Bunday strukturali mikrotoponimlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Son + ot + ot strukturali gidronimlar: *Chor+boq+soy* kabi.
2. Ot +ot +ot strukturali gidronimlar: *Tuya + mo'yin + soy* kabi.

Geografik obyektning joylashish o'rniga ishora qiluvchi gidronimlar.

Ayirbuloq gidronimi fe'l (ayirmoq) va ot (buloq)ning birikuvidan hosil bo'lgan. "Ayirmoq" ikkiga bo'lingan ma'nosini ifodalaydi. Demak, buloq suvining ikki tomonga oqishi natijasida obyekt shunday nomlangan.

Belsoy gidronimi *ot+ot* grammatik-struktur shakliga ega. Gidronimning *bel* komponenti "tog' va tepaliklarning egarsimon eng baland joyi" ma'nosini anglatuvchi geografik termin [13, 1:219]. *Belsoy* gidronimini "tepalikning egarsimon qismidan o'tuvchi suv o'zani" deb izohlash mumkin.

So'poq soy gidronimining birinchi komponenti *so'poq* "yassi va cho'ziq" ma'nosini ifodalaydi [13, 3:617]. Demak, Sopoqsoy – "yassi va cho'ziq kichik daryo".

Qo'shrabot tumani gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O'zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Ayir+buloq*, *Bel+soy*, *Buloq+soy*, *Gum+buloq*, *Gum+soy*, *O'rta+soy*, *So'poq+soy* gidronimlari kabilar kiradi.

2. O'zak+shakl yasovchi affiks strukturali gidronimlarga *Obod+xon* misol bo'la oladi.

Tumandagi gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Bel+soy*, *Buloq+soy* kabilar kiradi;
2. Sifat+ot strukturali gidronimlarga *Gum+buloq*, *Gum+soy*, *O'rta+soy*, *So'poq+soy*larni kiritishimiz mumkin.
3. Fe'l+ot strukturali gidronimlarga *Ayir+buloq* kiradi.
4. Sifat+affiks strukturali gidronimlarga *Obod+xon* misol bo'la oladi.

Zoogidronimlar. Burgutli soy gidronimining birinchi komponenti "qarchig'aysimonlar oilasiga mansub katta yirtqich ovchi qush" ma'nosiga ega [13, 1:376]. Geografik termin "soy" so'zining izohi yuqorida keltirilgan. Ushbu onimni ornitogidronim deb izohlash mumkin.

Jilonbuloq mahalliy aholi ko'pincha "y" tovushi o'rniga "j" tovushini

qo‘llaydi, ya’ni “j”lab so‘zlovchidir. Gidronimning “*jilon*” komponenti aslan “sudralib yuruvchi, oyoqsiz, tanasi ingichka va uzun, ko‘zlari shaffof qovoqlar bilan qoplangan jonivor” ma’nosini ifodalovchi “ilon”dir [13, 2:198]. “*Buloq*” geografik termini “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosiga ega [13, 1:371]. Mazkur gidronimni “atrofida ilonlar ko‘p uchraydigan chashma” deb izohlash hamda zoogidronim sifatida baholash mumkin.

Qo‘shrabot tumani gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O‘zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Jilon+buloq* gidronimi kiradi.
2. O‘zak+topoformant+topoleksema strukturali gidronimlarga *Burgut+li+soy* misol bo‘la oladi.

Tumandagi gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Jilon+buloq* kiradi;
2. Ot+affiks+ot strukturali gidronimlarga *Burgut+li+soy* gidronimini kiritishimiz mumkin.

Geografik obyektning tuproq xususiyati, rangi va tusini ifoda etuvchi gidronimlar. *Ko‘kbuloq* nomli gidronimning birinchi komponent “tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori” ma’nosiga ega [13, 2:449]. Geografik termin “buloq” so‘zining izohi yuqorida keltirilgan. Keltirilgan izohlarga tayanib, “suvi tiniq chashma” deb izohlash mumkin.

Oqbuloq gidronimining birinchi qismi rangni nomlashdan tashqari “o‘simliksiz” [8, 115], “katta, yuksak” [10, 15] ma’nolariga ega. Geografik termin “buloq” so‘zining yuqorida keltirilgan. Dala ekspeditsiyasida mahalliy xalq ta’rifini eshitib, zilol, tozza buloq ma’nosini beradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Oqsoy gidronimi sifat (oq) va ot /topoleksema (soy) komponentlaridan iborat. Demak, ushbu gidronim “tepadagi, yuqoridagi tog‘ buloqlari va qorlari suvlaridan hosil bo‘lgan doimiy yoki mavsumiy oqadigan kichik daryo”ni ifodalaydi.

Qora buloq gidronimining “*qora*” elementi “ziyosiz; qorong‘i” ma’nosiga ham ega [13, 4:335]. Demak, *Qora buloq* gidronimini “atrofida daraxt-butalar ko‘p bo‘lgan buloq” deb izohlash mumkin.

Qumbuloq gidronimi “*qum*” va “*buloq*” qismlaridan iborat. *Qum* “bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarrachalardan tashkil topgan cho‘kindi tog‘ jinsi” ma’nosida qo‘llanadi [13, 4:376]. Gidronimining tashqi strukturasidan anglash mumkinki, buloq qumlik joyda joylashgan.

Yaltir buloq gidronimining *yaltir* komponenti yaltiramoq fe’lidan olingan bo‘lib, “yalt-yalt qilmoq, yarqiramoq” ma’nosini anglatadi. Demak, “Yaltirbuloq – yaltiroq tog‘ jinsli (yoki quyosh nuri tikka va ko‘p vaqt zamonida tushib turadigan) joydagi chashma”dir.

Qo'shrabot tumani gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O'zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Ko'k+buloq*, *Oq+buloq*, *Oq+soy*, *Qora+buloq*, *Qum+buloq*, *Yaltir+buloq* gidronimlari kabilar kiradi.

2. O'zak+shakl yasovchi affiks+topoleksema strukturali gidronimlarga *Qizil+cha+soy* kiradi.

3. O'zak+topoleksema+topoleksema strukturali gidronimlarga *Qora+soy+buloq* kiradi.

Tumandagi gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Qum+buloq* misol bo'ladi.

2. Sifat+ot strukturali gidronimlarga *Ko'k+buloq*, *Oq+buloq*, *Oq+soy*, *Qora+buloq* kabilar kiradi;

3. Fe'l+ot strukturali gidronimlarga *Yaltir+buloq*ni kiritishimiz mumkin.

4. Sifat+affiks+ot strukturali gidronimlarga *Qizil+cha+soy* kiradi.

5. Sifat+ot+ot strukturali gidronimlarga *Qora+soy+buloq* kabilar kiradi.

3.3.4. Geografik obyektning xarakterli xususiyatini baholash ma'nosiga ega bo'lgan gidronimlar

Chillabuloq gidronimining "chilla" komponenti "yilning eng issiq yoki eng sovuq qirq kuni" ma'nosiga ega [13, 4:484]. Yuqoridagilardan buloqning boshqa buloqlarga nisbatan anchagina muzdek ekanligiga ishora anglashiladi.

Ko'rbuloq gidronimining *ko'r* komponenti "ko'rish qobiliyati yo'q; so'qir" semasini ifodalaydi [13, 2:465]. Odatda, buloqning "ko'z"larini ko'rish mumkin, ammo ushbu holatda buloqning ko'zlari ko'rinmaydi, ya'ni juda kichkina.

Muzbuloq gidronimining "muz" komponenti "muz kabi sovuq, sovuq" ma'nolariga ega [13, 2:629]. Demak, *Muzbuloq* – "suvi sovuq bo'lgan chashma"dir.

Qo'tirbuloq gidronimining *qo'tir* komponenti "badanda pufakchalar hosil qilib, qattiq qichishtiradigan yuqumli teri kasalligi" ma'nosiga ega [13, 5:417]. Demak, *Qo'tirbuloq* – "suvi tarkibidagi elementlar evaziga qo'tir kasalligiga davo bo'luvchi buloq" demakdir.

Qurtqasoy gidronimining birinchi komponenti "qurtqa/qutqa" shevada "qattiq qum-tuproq aralashmali jins"ni ifodalaydi. Demak, *Qurtqasoy* – qutqa jinslari ko'p uchraydigan o'zan.

Sovuqbuloq gidronimining *sovuq* komponenti suvi muzdek odatdagidan yax bo'lgan holatni ifodalaydi. "Demak, shu tipdagi buloqlarga qaraganda suvi muzdek buloq anglashiladi.

Qo'shrabot tumanidagi mazkur kategoriyaga mansub gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O‘zak tuzilishidagi gidronimlarga *Koriz* misol bo‘la oladi.
2. O‘zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Aziz+buloq*, *Chilla+buloq*, *G‘oyib+soy*, *Ko‘r+buloq*, *Muz+buloq*, *Qiyomat+soy*, *Qo‘tir+buloq*, *Qurtqa+soy*, *Quru+soy*, *Sovuq+buloq* gidronimlari kabilar kiradi.
3. O‘zak+o‘zak strukturali gidronimlarga *Shoq+ariq* kiradi.
4. O‘zak+so‘z yasovchi affiks strukturali gidronimlarga *Mo‘ri+loq* kiradi.
5. O‘zak+so‘z yasovchi affiks+topoleksema gidronimlarga *Qayna+r+buloq* gidronimi misol bo‘ladi.

Tumandagi mazkur kategoriyaga mansub gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot strukturali gidronimlarga *Koriz* misol bo‘ladi.
2. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Muz+buloq*, *Qiyomat+soy*, *Qurtqa+soy* kabilar kiradi;
3. Sifat+ot strukturali gidronimlarga *Aziz+buloq*, *G‘oyib+soy*, *Ko‘r+buloq*, *Qo‘tir+buloq*, *Quru+soy*, *Sovuq+buloqlarni* kiritishimiz mumkin.
4. Son+ot strukturali gidronimlarga *Chilla+buloq* gidronimi kiradi.
5. Fe‘l+affiks strukturali gidronimlarga *Mo‘ri+loq* kabilar kiradi.
6. Fe‘l+affiks+ot tuzilishli gidronimlarga *Qayna+r+buloq* misol bo‘ladi.
7. Sifat+ot strukturali gidronimlarga *Shoq+aroq* misol bo‘ladi (Ilova).

Fitogidronimlar. *Do‘lanabuloq* gidronimining birinchi komponenti “ra‘nodoshlarga mansub, ko‘pincha tog‘li joylarda yovvoyi holda o‘sadigan, sariq yoki qizg‘ish, dumaloq mevali daraxt va uning yeyishli mevasi” [13, 1:673]. Xulosa qilish mumkinki, yonida do‘lana daraxti mavjud bo‘lgan chashmani anglatadi.

Jiydalibuloq gidronimning “jiyda” komponenti “bargi uzunchoq, guli xushbo‘y mevali daraxt va uning mevasi” tavsifiga ega [13, 2:84]. - *li* turkiy tillarga xos bo‘lib, “otlarga qo‘shilib, so‘z o‘zagidan anglashilgan ma‘noga ega ekanlikni yoki o‘sha ma‘noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi” [13, 3:583-584]. Yuqoridagilarga asoslanib, mazkur gidronimni fitogidronim sifatida baholab, “atrofida jiyda daraxtlari o‘sadigan chashma” deb izohlash mumkin.

Qamishbuloq ikki komponentli toponim. Ot (qamish)+ot (buloq) tuzilishiga ega. *Qamish* boshqodoshlarga mansub, suvda, botqoqlikda, to‘qayzorda o‘sadigan, bo‘g‘im uzun poyali o‘simlikning o‘rilgan poyasi va uning cho‘pi [13, 5:591].

Sandallisoy gidronimidagi *Sandal* – xushbo‘y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko‘p yillik daraxt [13, 3:438]. - *li* topoformanti turkiy tillarga xos bo‘lib, “otlarga qo‘shilib, so‘z o‘zagidan anglashilgan ma‘noga ega ekanlikni yoki o‘sha ma‘noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi” [13, 3:583-584]. Grammatik-struktur jihatdan ot (sandal) + affiks (-li) + ot (soy) shakliga ega.

Toklisoy gidronimining birinchi komponenti *tok* – “uzum o‘simligi” [13, 4: 135]. - *li* turkiy tillarga xos bo‘lib, “otlarga qo‘shilib, so‘z o‘zagidan anglashilgan

ma'noga ega ekanlikni yoki o'sha ma'noli narsa, hodisaning mavjudligini, ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi" [13, 3:583-584]. Demak, *Toklisoy* – fitogidronim bo'lib, soyning boshlanish qismida uzum o'simliklari joylashganligiga ishora qilinadi. Grammatik-struktur jihatdanot (tokl) + affiks (-li) + ot (soy) shakliga ega.

Zardolisoy gidronimining "zardoli" komponenti "o'rik daraxti va uning mevasi" ma'nosida qo'llanadi [13, 2:137]. Demak, *Zardolisoy* – qirg'oqlarida o'rik daraxtzori bo'lgan kichik daryo, fitogidronim demakdir. Odatda, daraxtzor soyning boshlanish nuqtasida joylashgan bo'ladi. Grammatik-struktur jihatdan ot (zardoli) + ot (soy) shakliga ega.

Qo'shrabot tumanidagi mazkur kategoriyaga mansub gidronimlarni leksik-struktur jihatdan quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O'zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Do'lana+buloq*, *Qamish+buloq*, *Zardoli+soy* gidronimlari kabilar kiradi.
2. O'zak+affiks+topoleksema strukturali gidronimlarga *Jiyda+li+buloq*, *Sandal+li+soy*, *Tok+li+soy* kabilar kiradi.

Tumandagi fitogidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Do'lana+buloq*, *Qamish+buloq*, *Zardoli+soy* kabilar kiradi.
2. Ot+affiks+ot strukturali gidronimlarga *Jiyda+li+buloq*, *Sandal+li+soy*, *Tok+li+soy*larni kiritishimiz mumkin.

Geografik obyektning miqdorini ko'rsatuvchi gidronimlar. Qo'shovuz qo'sh va hovuz komponentlaridan tashkil topgan mikrooykonim. Ikkita suv to'planadigan hovuz joylashgan hudud shunday nomlanadi.

Tomchisoy gidronimining birinchi komponenti *tomchi* bu yerda ko'pning juda oz qismini ifodalamoqda. Xulosa qilishimiz mumkinki, suvi oz, kam bo'lgan soy.

Uchbuloq gidronimining tashqi strukturasi ma'lum bo'ladiki, makonda uchta buloq joylashgan.

Qo'shrabot tumanidagi miqdorni ko'rsatuvchi gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O'zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Tomchi+soy*, *Uch+buloq* gidronimlari kabilar kiradi.
2. O'zak+o'zak strukturali gidronimlarga *Qo'sh+ovuz* kabilar kiradi.

Tumandagi miqdor semasini ifodalovchi gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Tomchi+soy* kabilar kiradi.
2. Sifat+ot strukturali gidronimlarga *Qo'sh+ovuz* kabi.
3. Son+ot strukturali gidronimlarga *Uch+buloq* kabilar misol bo'ladi.

Hududning landshaftini o‘zida ifoda etuvchi gidronimlar. *Jarbuloq* gidronimidagi birinchi komponent “*jar*” geografik termini “chetlari o‘pirilgan chuqur soylik; chuqurlik” deb izohlanadi [13, 2:73]. Mazkur izohlardan gidronimni “chuqur soylikda joylashgan chashma” deb izohlash mumkin. Ushbu gidronim ikki o‘zakli bo‘lib, ot+ot strukturasi ega.

Tuyamo‘yinsoy gidronimi joyning geografik xususiyatiga qarab, uning tashqi ko‘rinishi asosida vujudga kelgan. Bu joy tuya bo‘yniga o‘xshash egri [Дўсимов З., Эгамов Х., 1977:134]. V.V.Radlov “*Tuyamo‘yin – tog‘, daryo, qumlik joylarning tor qismi – yo‘lagidir*” (Slovar, IV, 1960) deb yozadi. Gidronim ot (tuya) + ot (mo‘yin/bo‘yin) + ot (soy) strukturali hisoblanadi.

Qo‘shrabot tumani gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O‘zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Jar+buloq* gidronimi kiradi.
2. O‘zak+o‘zak+topoleksema strukturali gidronimlarga *Tuya+mo‘yin+soy* kabilar kiradi.

Tumandagi gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Jar+buloq* kiradi.
2. Ot+ot+ot strukturali gidronimlarga *Tuya+mo‘yin+soy*ni kiritishimiz mumkin.

Geografik obyektning hajmini ifoda etuvchi gidronimlar. *Boshbuloq* gidronimidagi *bosh* so‘zining “ulkan, asosiy, katta” ma‘nolari mavjud [13, 1:333]. Xulosa qilish mumkinki, asosiy katta buloq nazarda tutiladi.

Kattabuloq gidronimidagi “*katta*” komponenti boshqasiga qaraganda hajmdorrog ma‘nosini anglatadi. Xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu gidronim boshqa buloqlarga nisbatan kattaroq buloqni ifodalaydi.

Qudugcha gidronimi ot (*quduq*) va affiks (-*cha*) tuzilishiga ega. Ushbu gidronim bir o‘zakli bo‘lib, ot so‘z turkumiga topoformant qo‘shilishi natijasida kichraytirish semasini ifodalamoqda.

Qo‘shrabot tumani gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O‘zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Bosh+buloq, Katta+buloq* gidronimlari kabilar kiradi.
2. O‘zak+shakl yasovchi affiks strukturali gidronimlarga *Qudug+cha* misol bo‘ladi.

Tumandagi hajm semasini ifoda etuvchi gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Bosh+buloq* kiradi.
2. Sifat+ot strukturali gidronimlarga *Katta+buloq* kabilarni kiritish mumkin.
3. Ot+affiks strukturali gidronimlarga *Qudug+cha* misol bo‘ladi.

Metaforik gidronimlar. *Qozonbuloq* gidronimi *qozon* va *buloq* komponentlaridan iborat, bunda buloqning tashqi ko‘rinishi qozon shakliga o‘xshashligi asos qilib olingan. O‘xshatishdan yana anglashiladiki, buloq tosh jinsli joydan chiqqan.

Jonbuloq gidronimidagi “*jon*” komponenti hayot manbai, hayot bag‘ishlovchi ma’nolarini ham ifodalab keladi [13, 2:104]. Xulosa qilsak, *Jonbuloq* – hayot bag‘ishlovchi ya’ni inson sog‘ligi uchun minerallarga boy bo‘lgan buloq ma’nosini bildiradi.

Qo‘shrabot tumanidagi metaforik gidronimlarni leksik-struktur jihatdan tuzilishini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. O‘zak+topoleksema tuzilishidagi gidronimlarga *Qozon+buloq*, *Jon+buloq* gidronimlari kabilar kiradi.

Tumandagi metaforik gidronimlarni grammatik-struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot strukturali gidronimlarga *Qozon+buloq*, *Jon+buloq* kiradi.

Qo‘shrabot tuman tabiiy-geografik gidronimlarning miqdoriy ko‘rsatkichi

jadval

Tabiiy-geografik gidronimlar	Bir o‘zakli	Ikki o‘zakli	Ucho‘zakli	To‘rt O‘zakli	Besh O‘zakli
Geografik obyektning xarakterli xususiyatini baholash ma’nosiga ega bo‘lgan gidronimlar	1	14	5	4	
Geografik obyektning paydo bo‘lish vaqti davriga ishora qiluvchi gidronimlar	5	21	4	7	
Geografik obyektning joylashish o‘rniga ishora qiluvchi gidronimlar	3	7	7		
Geografik obyektning tabiiy materiali tarkibiga ishora qiluvchi gidronimlar		11	6		1
Geografik obyektning uzunlik yoki qisqalik xususiyatini ifoda etuvchi gidronimlar		3	8		

Fitogidronimlar		5	20	4	
Zoogidronimlar		1	19		
Geografik obyektning tuproq xususiyati, rangi va tusini ifoda etuvchi gidronimlar		7	16		
Geografik obyektning hajmini ifoda etuvchi gidronimlar	1	2	13		
Hududning landshaftini o'zida etuvchi gidronimlar		1	15		2
Geografik obyektning miqdorini ko'rustuvchi gidronimlar		2	14		

Xullas, Qo'shrabot tumanidagi gidronimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali bu tumanda juda qadimdan turkiy xalqlar yashaganligi va shunga muvofiq tuman hududida mavjud suv obyektlarining asosiy qismi umumturkiy xarakterga ega ekanligi ayon bo'ldi.

Gidronimlarning tasnifiy belgilari hamda leksik-semantik xususiyatlari, ularning motivlashuv jarayonini aniqlash uchun ularning komponent tarkibini, grammatik strukturasi to'g'ri belgilash, yaxshi bilish talab qilinadi. Shunga ko'ra, bizning tumandagi gidronimlarning leksik-semantik tahliliga doir kuzatishlarimiz ana shu gidronimlarning grammatik strukturasi, tuzilishi haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 256 б.
2. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд, 2004. – 92 б.
3. Бегалиев Н., Туробов А. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд, 2015. – 156 б.
4. Бегматов Э. А. Киши номлари имлоси. – Тошкент, 1970. – 116 б.
5. Бегматов Э. А. Ўзбек исмлари имлоси (русча ёзилиш масалалари). Тошкент, 1972. – 383 б.
6. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. Автореф. дис... доктора филол. наук. – Ташкент, 1989. – 48 с.
7. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 136 б.
8. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати (мактаб ўқувчилари учун). – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 176 б.

9. Қораев, Суюн. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.
10. Нафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 88 б.
11. Нафасов Т., Турсунов Ш. Қарши шаҳри маҳалла ва кўчалари номлари. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 168 б.
12. Радлов В.В. Опыт словаря тюрских наречий. Т. I-IV. – СПб, 1960.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-2-3-4-5 жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.

**“Onomastika” xalqaro elektron ilmiy
jurnalida quyidagi ruknlar bo‘yicha maqolalar chop etiladi:**

- Davlat tili va onomastika;
- Tarixiy va zamonaviy onomastika bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari;
- Onomastik lingvopoetika;
- Onomastikada imlo masalalari;
- Onomastika va neymining (brendologiya)
- Tarix, geografiya bo‘yicha onomastik ilmiy tadqiqot natijalari;
- Onomastik leksikografiya.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8 sahifadan kam bo‘lmasligi shart;
- Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz tillarida qabul qilinadi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola sarlavhasi.
 2. Muallifning F.I.Sh. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart. Lavozimi, ilmiy unvoni, tashkilot, shahar, mamlakat va elektron pochta adresi to‘liq keltiriladi.
 3. Annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmun va maqsadi, 90 so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim) o‘zbek, rus, ingliz tillarida beriladi.
 4. Kalit so‘zlar o‘zbek, rus, ingliz tillarida (10-15 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak).

Maqolaning tarkibiy qismi:

Kirish (Introduction)

Asosiy qism (Main part)

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Xulosalar (Conclusions)

Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi.

- Maqola Times New Roman shriftida, 14 kattalikda, 1,5 intervalda tayyorlanadi;
- maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim;
- maqolaga havola (snoska)lar [1, 2,...] ko‘rinishida va maqola so‘ngida adabiyot sifatida ko‘rsatilishi lozim;
- maqola tomonlari chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
- tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha

muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari egasiga qaytarilmaydi.

- maqolada keltirilgan ma'lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko'chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas'uldir;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi;
- maqola so'ngida muallif(lar) telefon raqamini kiritishlari shart.

В научном международном журнале**“Ономастика” статьи будут изданы по следующим направлениям:**

- Государственный язык и ономастика;
- Результаты научных исследований по исторической и современной ономастике;
- Ономастическая лингвопоэтика;
- Вопросы правописания в ономастике;
- Ономастика и нейминг (брендология)
- Результаты ономастических научных исследований по истории, географии;
- Ономастическая лексикография.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Статья должна предоставляться не менее 8 страниц;
- Статьи принимаются на узбекском, русском, английском языках;
- Структура статьи:
 1. Название статьи.
 2. Ф.И.О автора (необходимо писать полностью), если авторов несколько, необходимо предоставить полную информацию о каждом из них. Должность, ученое звание, организация, город, страна и адрес электронной почты указываются полностью.
 3. Аннотация (краткое содержание и цель статьи, не меньше 90 слов) дается на узбекском, русском, английском языках.
 4. Ключевые слова на узбекском, русском, английском языках (должны состоять из 10-15 слов).

Содержание статьи:

Введение

Главная часть

Результаты

Обсуждение

Выводы

Литература – перечисляются в алфавитном порядке.

Статьи оформляются в формате Times New Roman, размер шрифта 14, интервал 1,5;

- если в статью включены рисунки, таблицы, схемы, различные графические обозначения, то они должны быть четко и ясно описаны, должно быть написано полное расшифровывание сокращений;
- ссылки на использованные источники (сноски) приводятся после цитаты в квадратных скобках с указанием порядкового номера источника цитирования

[1,2,...]. Список литературы помещается в конце текста под заголовком «Литература»;

- оформление статьи слева 3 см, справа 1,5 см, сверху и снизу 2 см;
- не менее 70-80% текста статьи должно быть основано на результатах личного исследования автора. Присылаемые статьи проверяются с помощью системы «Антиплагиат».
- статьи, поступающие в редакцию, рецензируются редакцией. После возврата статьи с рецензирования при необходимости все вопросы и возражения передаются автору на обработку. Копии статей не возвращаются владельцу.
- автор(ы) несут ответственность за научную основу, достоверность и правдоподобие информации и доказательств, представленных в статье;
- в 1 номере журнала публикуется только 1 статья автора;
- автор(ы) должны указать свой номер телефона в конце статьи.

Articles are published in the scientific international journal “Onomastics” in the following areas:

- State language and onomastics;
- The results of scientific research on historical and modern onomastics;
- Onomastic linguopoetics;
- Issues of spelling in onomastics;
- Onomastics and naming (brandology);
- Results of onomastic research in history, geography;
- Onomastic lexicography.

REQUIREMENTS FOR FORMING ARTICLES:

- The article must not be little from 8 pages;
- Articles are accepted in Uzbek, Russian, English;
- Article structure:
 1. Title of the article.
 2. Full name of the author (it is necessary to write in full), if there are several authors, it is necessary to provide full information about each of them. Position, academic title, organization, city, country and e-mail address are indicated in full.
 3. Abstract (brief content and purpose of the article, no more than 90 words) is given in Uzbek, Russian, English.
 4. Keywords in Uzbek, Russian, English (must consist of 10-15 words).

The content of the article:

Introduction

Main part

Results and discussion

Conclusion

Literature is listed in alphabetical order.

Articles are formatted as Times New Roman, font size 14, spacing 1.5;

- If the article includes figures, tables, diagrams, various graphic designations, then they should be clearly and clearly described, a full decoding of abbreviations should be written;
- References to the sources used (footnotes) are given after the quotation in square brackets, indicating the ordinal number of the citation source [1,2,...]. The list of references is placed at the end of the text under the heading "Literature";
- Design of the article on the left 3 cm, on the right 1.5 cm, top and bottom 2 cm;

- At least 70-80% of the text of the article should be based on the results of the author's personal research. Submitted articles are checked using the system of "Antiplagiat".
- Articles submitted to the editors are reviewed by the editors. After the article is returned from review, if necessary, all questions and objections are transferred to the author for processing. Copies of articles are not returned to the owner.
- The author(s) are responsible for the scientific basis, reliability and credibility of the information and evidence presented in the article;
- Only one article of the author is published in 1st issue of the journal;
- The author(s) must include their phone number at the end of the article.

